

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy. Buxoro Tarixi

Muharrirdan

Qo'lingizdagi "Buxoro tarixini O'rta Osiyoning yerli xalqlari tomonidan qachonlardir yozilib, endi o'tmish asrlar sahifalarini yoritish uchun xizmat qilib kelayotgan nodir yozma yodgorliklarning eng qadimiyalaridan biridir deyilsa, xato qilinmagan bo'ladi. Darhaqiqat, bundan 1000 yil muqaddam O'rta Osiyoning o'zida, o'z farzandi qo'li bilan yozilib, tugal bir asar holida bizning kunlargacha yetib kelgan boshqa tarixiy manba hozir bizga ma'lum emas. Shuning uchun ham "Buxoro tarixi"ni O'rta Osiyon xalqlari tarixnavislik fanidagi eng dastlabki asarlardan biri deb hisoblaydilar.

Bu asar, asosan, O'rta Osiyoda arablar istilosi natijasida islom dinining tarqatilishi (VIII asr) va undan bevosita oldingi davrlar hamda IX-B"XII asrlardagi Buxoro va unga yaqin shahar-qishloqlar xalqlarining iqtisodiy, madaniy, ijtimony, siyosiy tarixiga oid muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va bu hol "Buxoro tarixi"ning qimmatli bosh manba sifatida tarix fanida zo'r shuhrat topishiga asos solgan.[1]

Asarning hozirgi davrgacha yetib kelish tarixi boshqa qo'lyozma manbalardan ko'ra boshqacharoq bo'lib, uni o'rganshidan avval bu haqda qisqacha ma'lumotga ega bo'lib olish unda keltirilgan ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish uchun albatta zaruriydir.

"Buxoro tarixi"ning bosh so'zida aytiganidek, uni dastavval Buxoroning Narshax qishlog'idan bo'lgan Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy 943-B"944 yillarda arab tilida yozgan. Hozirda Narshaxiyning nomi O'rta Osiyoning VIII-B"XII asrlar tarixiga oid deyarli barcha ilmiy tadqiqot ishlarida tilga olinadi-yu, ammo uning hayotiga oid biror to'liq ma'lumot keltirilmaydi. Bunga sabab, uning o'z asarida ham va unga yaqin davrlarda yashagan boshqa mualliflar asarlarida ham shunday ma'lumotlarning keltirilmaganligidir. Faqat Sam'oniyning "Kitob ul-ansab" asarida uning to'la nomi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Sharik ekanligi va u Buxoro ahlidan bo'lib, 286 (899) yili tug'ilgan va 348 (959-B" 960) yili vafot etganligi eslatiladi[2]. "Buxoro tarixishing esa arab tilidagi asl nusxasi bizgacha yetib kelgan emas, to'g'rirog'i, hali shu vaqtgacha uning mavjudligi haqida biror ma'lumot yo'q.

Gap shundaki, asarning bizgacha yetib kelgan nusxasining bosh so'zida aytishicha, 1128 yiln asli hozirgi Quva shaharidan bo'lgan Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Quboviy Narshaxiyning kitobini "ko'pchilik kishilar arab tilida yozilgan kitobni o'qishga rag'bat ko'rgazmaganliklari" sababli o'z do'stlarining iltimosiga binoan arabchadan fors tiliga tarjima qilgan. U "arab tilidagi nusxada so'zlangan keraksiz va buning ustiga o'qiganda (kishi) tabiatida malollik orttiradigan narsalar"ni tarjimaga kiritmay qisqartirib yuborgan. Undan yarim asr o'tgandan keyin asar yana qaytdan tahrirga uchragan: 1178-B"1179 yillar mobaynida Muhammad ibn Zufar ibn Umar fors tilidagi tarjimani ikkinchi marta qisqartirib bayon qilgan. Ammo asarni o'qir ekanmiz, biz unda, ba'zan, mazkur 1178-1179 yildan keyingi to 1220 yilgacha bo'lib o'tgan tarixiy voqealar haqida ham, qisqa-qisqa ma'lumotlar uchratamiz. Bu hol shuni ko'rsatadiki, Muhammad ibn Zufardan keyin ham bir yoki bir necha bizga noma'lum kishilar asarni tahrir qilganlar. Ular ham asarni qisqartirganlar deyishga asos bo'lmasa-da, lekin qo'shimchalar kiritganliklari voqealar mazmunidan aniq anglashilib turibdi[3].

"Buxoro" tarixi" ning biz tanishishga tuyassar bo'la olganimiz barcha qo'lyozma nusxalari, ular orasidagi ba'zi farqlardan qat'i nazar, ana shu 1220 yilgacha davom ettirilgan matnni o'z ichiga oladi. Narshaxiyning hamda uning asarini bevosita qayta ishlab arabchadan fors tiliga tarjima qilgan Abu Nasr Ahmad va bu tarjimani qisqartirib bayon etgan Muhammad ibn Zufarlarning asl nusxalari esa hozirgacha ham manbashunoslik fani uchun noma'lumligicha qolib kelmoqda. Lekin bizgacha yetib kelgan asar nusxasining mazmuniga qaraganda, shuni aytish mumkinki, tarjimon Abu Nasr Ahmad ham, qisqartiruvchi muharrir Muhammad Ibn Zufar ham o'z ishlariga oddiy tarjima yoki tahrir tarzida qaragan emaslar. Asarning ko'p yerlarida uning muallifi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'farga hamda tarjimon Abu Nasr Ahmadga ilova qilib so'zlangan jumlalar shuni ko'rsatadiki, tarjimon Abd Nasr Ahmad ham, qisqartiruvchi muharrir Muhammad ibn Zufar ham o'z ishlariga mustaqil bir tus bergenlar[4].

Tarjimon Abu Nasr Ahmad Narshaxiyning arab tilidagi nusxasida mavjud bo'lgan ba'zi mavzularni tashlab ketish bilan bir qatorda asarga katta tarixiy qimmatga ega bo'lgan ko'pgina ma'lumotlarni qo'shgan va bunda u o'z davridan ilgarigi voqealarini yoritish uchun boshqa tarixiy manbalardan foydalangan. Bu manbalardan biri Abu Nasr Ahmadning o'zi ko'rsatib o'tgani Abu-l-Hasan Abdurahmon (ibn) Muhammad Nishopuriyning "Xazoin ul-ulum" nomli asaridir. Bu asarning bizning davrimizgacha yetib kelgan-kelmaganligi hozircha ma'lum emas. Ammo undan keltirilgan "Buxoro tarixi"dagi ayrim satrlarning o'zi ham Abu-l-Hasan Abdurahmonning kitobi naqadar muhim bir tarixiy manba bo'lganligini ko'rsatadi. "Xazoin ul-ulum"dan ma'lumotlar keltirilishi haqiqatan ham Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad tomonidan bajarilganligiga esa qisqartiruvchi muharrir Muhammad ibn Zufalning o'z nomidan keltirib: "Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr... shunday deydi. Abulhasan Nshioipuriy "Xazoin ul-ulum"da aytishicha..." degan so'zlar shubhasiz dalildir.

Ana shu mazmundagi ko'p jumlalar yana shuni ko'rsatadiki, Narshaxiyning asariga qo'shimchalar kiritgan kishi asosai tarjimon Abu Nasr Ahmad bo'lib, Muhammad ibn Zufarning ishi, qat'iy qilib ayta olmasak ham, fors tilidagi tarjimani "qisqartirib bayon qilish"dan iborat bo'lgan.

Tarjimon Abu Nasr Ahmad va undan keyingi muharrirlar asar matniga anchagina o'zgartishlar kiritgan bo'lsalar ham, lekin Narshaxiy nomini musannif-muallif sifatida saqlab qolganlar: masalan, asardagi: "Bu kitobning musannifi aytadi" degan so'zlar buni yaqqol isbotlay oladi. Lekin, shunga qaramay, asardagi bir qancha ma'lumotlar Narshaxiy o'z kitobini yozib tugallagandan (944) keyingi tarjimonga yaqin (1128) davrlarga oid ekanligiga ko'ra, biz bu ma'lumotlar muallifi deb Abu Nasr Ahmadni yoki undan keyin kitobni qisqartirib tahrir qilgan Muhammad ibn Zufar va boshqa hozircha nomlari aniqlanmagan shaxslarni tanishimiz lozimligini taqozo etadi.

Narshaxiy aslida o'z asariga qanday nom bergenligi ma'lum emas. Shu sababli asar qo'lyozma nusxalarda va hozirgi zamon ilmiy-tarixiy adabiyotida ham "Tarixi Narshaxiy" ("Narshaxiy tarixi"), "Tarixi Buxoro" ("Buxoro tarixi"). "Tahqiq ul-viloyat" ("Viloyat haqiqatini aniqlash"), "Axbori Buxoro" ("Buxoro haqida xabarlar") [5] kabi har xil nomlar bilan yuritilib kelgan. Bu nomlardan keyingi uchtasi asar mazmuni bo'yicha to'g'ri bo'lib, ularidan eng anig'i - "Tarixi Buxoro" hozirda tarixiy adabiyotda qat'iy o'rashib qoldi. "Tarixi Narshaxiy" deb atalishi esa yuqorida eslatib o'tganimizdek, asarning bizgacha yetib kelgan nusxasi Narshaxiydan boshqa kishilarning ham qo'shimcha va tahrirlari, qisqartirishlariga uchraganligi tufayli tobora kamroq ishlatilib kelmoqda. Shunga binoan, ushbu nashrda ham asarning nomi "Buxoro tarixi" deb qabul qilindi.

"Buxoro tarixi"ni bosh manba sifatida o'rganib, undagi qimmatli ma'lumotlarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish ishlari ko'p vaqtlardan beri davom etib kelmoqda. Buxoroning VII-B"XII asrlardagi tarixidan bahs etuvchi hozirgi zamon yirik ilmiy tadqiqot ishlarining hammasida ham "Buxoro tarixi"dan olingan ma'lumotlarni uchratamiz desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Shu bilan barobar asarning bir yoki bir qancha qo'lyozma nusxalari asosida tayyorlangan matni ham bir necha bor - 1892 yili Ch.

Shefer tomonidan Parijda, 1904 yili Mullo Sulton tomonidan Buxoroda, 1939 yili Mudarris Rizaviy tomonidan Tehronda nashr qilingan. Shuningdek, "Buxoro tarixini"ning N. Likoshin tomonidan bajarilgan izohli ruscha tarjimas" 1897 yili Toshkentda va R. Frayning izohlar ilova etilgan inglizcha tarjimasi 1954 yili Kembrijda bosilib chiqdi.

* * *

"Buxoro tarixi"ning keng o'quvchilar ommasi diqqatiga tavsiya etilayotgan ushbu o'zbekcha tarjimasi A. Rasulev tomonidan bundan bir necha yil burun O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida asarning Parij va Buxoro nashrлari hamda mazkur institutning qo'lyozymalar fondida saqlanayotgan 5388Б"11 raqamli 1235 (1819Б"1820) yili ko'chirilgan qo'lyozma nusxasi asosida bajarilgan edi. So'ngroq, ushbu satrlar muallifi tomonidan tarjimani tahrir qilib, nashrga tayyorlash asnosida bosma va qo'lyozma nusxalar soni yana ko'paytirilib, tarjima qaytadan ko'rib chiqildi va ba'zi tekstologik izohlar tuzildi. Chunonchi, bu ishga "Buxoro tarixi" ning Tehronda Mudarris Rizaviy tomonidan nashr qilingan fors tilidagi qiyosiy nashri va SSSR Fanlar akademiyasi Osiyo xalqlari institutining Leningrad bo'limdi saqlanayotgan 1008 (1599Б"1600) yilda ko'chirilgan 675 raqamli hamda Tojikiston SSR Fanlar akademiyasining Sharq qo'lyozmalari fondidagi 1060 (1650) yilda ko'chirilgan 513/11 raqamli qo'lyozma nusxalar jalb qilindi. Bu qo'lyozma va bosma nusxalarini bir-biriga taqqoslash natijasida Tehron nashrini asos qilib olish muvofiq topildi. Chunki garchi bu nusxa ham ayrim kamchiliklardan xoli bo'lmasa-da, umuman olganda boshqa qo'lyozma va bosma nusxalarini nazarda tutib nashrga tayyorlanganligi bilan e'tiborga sazovordir. Bu bosma nusxaning kamchiliklarini tekshirib borish uchun esa asosan Parij bosmasi, Buxoro bosmasi, Leningrad qo'lyozmasi va Dushanba (Tojikiston SSR) qo'lyozmasi matnlardan foydalanildi. Zarurat tug'ilgan ayrim hollarda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining XIX asrda ko'chirilgan 2212/1 va 4355/111 raqamli qo'lyozmalari ham jalb qilindi[6].

Jug'rofiy va shaxsiy nomlarga berilgan qisqacha izohlar D. Yu. Yusupova tomonidan bajarilgan.

Ma'lumki, "Buxoro tarixi"ni dastlab yozgan Muhammad ibn Ja'far ham, so'ng asarni qisqartirib va qo'shimchalar qo'shib arabchadan fors-tojik tiliga tarjima qilgan Ahmad ibn Muhammad va bu tarjimani qisqartirib bayon qilgan Muhammad ibn Zufarlar ham X-XP asrlar sharoitida, o'z davrlarida mavjud bo'lgan iqtisodiy, ma'naviy hayot ta'sirida ish olib borganlar. Shuning uchun ham "Buxoro tarixi" X-XP asrlar ijtimoiy muhiti taqozosicha islom diniga hamda o'sha davrda hukmron bo'lgan tuzumga qarshi harakatlar (masalan, Muqanna qo'zg'ononi) ni qoralash pozitsiyasidan turib yozilgan. Biroq shunga qaramay, asarda katta tarixiy qimmatga ega bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan va ularni ilmiy ob'ektiv ravishda tahlil qilish tarix fani uchun foydadan holi emas. Bu hol "Buxoro tarixi" ma'lumotlari O'rta Osiyonining VII-XII asrlar tarixidan bahs etuvchi ilmiy-tarixiy asarlarning aksaridish ko'p vaqtlardan beri foydalanib kelinayotganligi bilan shak-shubhasiz isbotlangan. Bu qimmatli va noyob asarning ushbu o'zbekcha nashri ham tarixchi-tadqiqotchilar, keng o'quvchilar ommasi diqqatiga bosh manba hamda X-XII asrlar tarixiy adabiyotidan namuna sifatida taqdim ztiladi.

I. Bismillohir Rohmanir Rohim

Shukr va maqtovlar jahonni yaratuvchi, yashirin (narsalar)ni ham biluvchi jonivorlarga rizq beruvchi va yero osmonni tutib turuvchi ulug' tang'rige bo'lsin! Uning sha'ni ulg'aysin!

(Xudoning) marhamati va salomlari odamlarning sarasi, payg'ambarlarning so'nggisi Muhammad mustafoga,- xudo unga rahmat va salomini yo'llasin,- uning xonadoni, yor-do'stlari va tobellariga bo'lsin! Ularning barchasidan ollo rozi bo'lsin!

Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Quboviy[7] shunday deydi: "Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy Buxoro (shahari), uning xususiyat va fazilatlari. shaharning o'zida va qishloqlarida mavjud bo'lgan qulay sharoitli va foyda yetkazuvchi narsalar, shaharga aloqador bo'lgan narsalar haqida hamda payg'ambar,- alloh unga o'z rahmat va salomini yo'llasin,- uning suhabatdoshlari, tobelari va din olimlari,- ularning barchasidan alloh rozi bo'lsin,- tomonidan Buxoroning fazilati borasida aytilgan hadislar[8] haqida bir kitob yozgan va uni marhum Amiri hamid Abu Muhammad Nuh ibn Nasr nbn Ahmad ibn Ismoil as-Somoni[9] nomiga bag'ishlagai. Bu kitob arab tilida, go'zal iboralar bilan uch yuz o'tiz ikkinchi yil oylarida (4 sentabr 943Б"23 avgust 944) yozilgan edi. (Ammo) ko'pchilik kishilar arab tilida yozilgan kitobni o'qishga rag'bat ko'rgazmaganliklari sababli, do'stlarim mendan u kitobni fors tiliga tarjima qilishni iltimos qildilar. Men iltimosni qabul qildim va besh yuz yigirma ikkinchi yilning jumod al-avval oyida (may, 1128) kitrnbni fors tiliga tarjima qildim. Biroq, arab tilidagi nusxada keraksiz va buning ustiga o'qiganda (kishi) tabiatiga malollik orttiradigan narsalar (haqida ham) so'zlangan ekan. U narsalarning bayoni (tarjimaga) kiritilmadi".

Besh yuz yetmish to'rtinchchi yil oylarida (19 iyun' 1178Б"7 iyun' 1179) esa bandalarning kamtarini Muhammad ibn Zufar ibn Umar bu tarjimann jahon sadrlariniig sadri, xoja imom, eng ulug', eng izzatli, din va shariatning dalili, islom dini va musulmonlar qilichi, butun olam peshvolari shamshiri, shariat sultoni, xalifalik tayanchi, ikki haram imomi, kun chiqish va botish muftisi, ikki tomoni obro'lik, maqtovlar va faxrlar egasi Abdulaziz ibn as-sadr al-imom al-hamid Burhonuddin Abdulazizing[10],- xudo uning ota-bobolari ruhlarini pok etsin va bolalariga izzat va baland martaba bilan barakatli umr bersin,- oliy majlis uchun qisqartirib bayon qildi.

II. Buxoroda Qozilik Qilgan Kishilar Haqida

Sebavayh ibn Abdulaziz al-Buxoriy an-Nahviy[11] shular jumlasidandir. "Men Abdulloh Muborakdan eshitdimki, Б"deydi Muhammad ibn A'yan, Б"Sebavayh Buxoroda qozilik qilganida (xalqning) ikki dirhamiga ham adolatsizlik qilmadi"; so'ng u yana: "Ikki dirham ko'plik qiladi, u tariqcha ham javr o'tkazmadi", - deydi.

Yana Muxallad ibn Umar ham yillar davomida, toki shahid bo'lguniga qadar qozilik qildi. Abu Daym Hozim Sadusiy (ham qozi bo'ldi) va unga xalifadan qozilik farmoni keldi. G'anjor deb mashhur bo'lgan rahmatli Iso ibn Muso at-Taymiya qozilikni bergen edilar, u qabul qilmadi. Sulton unga agar qozilik qilmasang biror kishini tanlagin, biz o'shangacha beraylik degan edi, buni ham qabul qilmadi. Sulton qozilikka loyiq kishilar nomini uning oldida bir-bir aytinlar deb buyurdi; shunday qildilar, ammo uning oldida kimning nomini atamasinlar, u "loyiq emas" deya berdi va, nihoyat, Hasan ibn Usmon Hamadoniya nomini tilga olganlarida sukut qildi. Uning sukuti roziligidir dedilar-da, qozilikni Hasan ibn Usmon Hamadoniya berdilar. Buning zamonida Xuroson shaharlarida ilmda va taqvodorlikda unga tenglashadigan hech bir kishini ko'rsata olmaganlar.

Yana Omir ibn Umar ibn Imron qozi bo'ldi. Ishoq ibn Ibrohim ibn al-Xitiy ham qozilik qildi. Bu kishi qozilikdan bo'shatilganidan keyin ikki yuz sakkizinchchi yili (16 may 823Б"3 may 824) Tusda vafot topdi.

Yana Sa'id ibn Xalaf al-Balxiyni ikki yuz o'n uchinchi yil jumod al-avval oyining oxirida (16 avgust 828) qozilikka taninladilar.

Bu kishi qozilkn shunday olib bordiki, xudoyi taoloning yaratgan bandalarigaadolat, insof va shafqat qilish borasida uni misol qilib ko'rsatar edilar. U yaxshi qonun-qoidalar o'rnatdi. Jumladan, toki kuchlik kishi zaif kishiga zulm o'tkazmasin uchun bu to'g'onlarni[12] qurdirib Buxoro suviniadolat va insof yuzasidan taqsim qilishni u kishi asoslagan.

Yana rahmatli Abdulmajid ibn Ibrohim an-Narshaxiy (qozi bo'ldi). Bu kishini xushxulq-taqvodor bandalar jumlasidan hisoblar edilar. Yana Sulton Ahmad ibn Ismoil as-Somoniyning[13] davrida (rahmatli) Ahmad ibn Ibrohim al-Barkadiy qozilik qildi. U ham zohid[14] ham faqih[15] edi. Yana (qozilardan biri) Abu Zar Muhammad ibn Yusuf al-Buxoriy bo'lib, u rahmatli Imom Shofeiyning[16] suhbatdoshlari jumlasidan hamda olim va zohid edi; uni (barcha) Buxoro olimlari orasida yuqori qo'yar edilar. U kishini yashirnn pora berish va boshqa har xil yo'llar bilan sinab ko'rdilar, ammo u biron narsa bilan ham o'zini bulg'atmadni, balki kundan-kunga undanadolat va insof ravshanroq sodir bo'ldi. U keksaygan paytida qozilikdan bo'shati lishini iltimos qildi va hajga ketib, haj marosimini ado etdi; keyin bir muddat Iroqda turib, payg'ambarning,- xudo unga o'z rahmat va salomini yo'llasin,- hadisini o'rganish talabida shogirdlik qildi. So'ng qaytib Buxoroga kelgach, to umrining oxirigacha uzlatda yashashni ixtiyor etdi; xudo uni rahmag qilsin.

"Muxtasar Kofiy"ning muallifi marhum Abu-l-Fazl iby Muhammad ibn Ahmad al-Marvaziy as-Sulamiy[17] ko'p yillar davomida Buxoroda qozilik qildi va zarracha ham o'ziga ayb yuqtirmadi; u barchaga (barobar)adolat va insof yuzasidan ish ko'rар hamda uning davrida olimlik va zohidlikda butun dunyoda ham unga teng keladigan kishi yo'q edi. Shundan keyin u sultonga vazir bo'ldi va shahid bo'lib o'ldi.

Bu kitobning musannifi aytadi: Agar Buxoro olimlarining hammasini zikr qilsak, bir nechta daftarni tashkil etadi. Biz bayon etib o'tganlarning hammasi payg'ambarning,- xudo unga rahmat va salomini yo'llasin,- (hadisidagi) "mening ummatim (ichidan chiqqan) olimlar Baniy Isroi payg'ambarlari kabidirlar" degan (kishi)lari jumlasidandirlar.

Fasl. Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy bu faslni o'z kitobida keltirmagan. Ammo Abu-l-Hasan Abdurahmon (ibn) Muhammad an-Nishopuriy "Xazoin ul-ulum" kitobida[18] shundan keltirgan: hozirda Buxoro (o'rashgan) bu mavze, (ilgari) botqoqlik bo'lib, uning ba'zi yerlarini to'qayzor, daraxtzor va ko'kalamzorlar tashkil etgan, ayrim joylari esa shunday bo'lganki, biron hayvon ham oyoq qo'yishga joy topa olmagan. Buning' gababi shuki, Samarqand tomonidagi viloyatlarda tog'larda qor *rib, suvi (oqib kelib) o'sha joyga yig'ilib yotar edi.

Samarqand tomonida bir katta daryo borki, uni "Rudi Mosaf"БТ" "Mosaf daryosi"[19] deb ataydilar. Bu daryoga ko'p suv yig'ilgan, u bir talay yerlarni yuvib-o'pirib, ko'p loyqalarni surib kelgan va, natijada, bu botqoqliklar to'lib qolgan. Suv ko'p oqib kela berdi, loyqalarni to Bitik[20] va Farabgacha[21] surib keltira berdi. So'ng suv (toshib kelishi) to'xtadi, Buxoro o'rashgan joy (asta-sekin) to'lib tekis yerga aylandi va, shunday qilib, u katta daryo So'g'd va bu (loyqalar bilan) to'lgan mavze Buxoro bo'lnb qoldi; har tomonidan odamlar yig'ilib, u joy obod bo'ldi. Odamlar Turkiston tomonidan kelar edilar. Bu viloyatda suv va daraxtlar, ov qilinadigan (jonivorlar) ko'p bo'lganidan kishilarga bu viloyat xush kelib, shu yerga joylashdilar. Avval ular chodir va o'tvlarda turar edilar, so'ng vaqg o'tishi bilan odamlar yig'ilishib imoratlar qurdilar. Xalq ko'paygach, bir kishini saylab amir qildilar: uning nomi Abruy[22] edi. Hali Buxoro shahri vujudga kelmagan, lekin qishloqlardach ba'zilari paydo bo'lgan edi.

Nur[23], Xarqonrud[24], Vardona[25], Tarovcha,[26] Safna va Isovonalr[27] o'sha qishloqlar jumlasidandir. Podshoh turadigan katta qishloq Baykand (Poykand)[28]edj. Shahar "Qal'ayi Dabusiy"[29]- "Dabusiy qal'asi" bo'lib, shahar deb shuni atar edilar. Bir qancha muddat o'tgandan keyin Abruy (hukmdorlikda) ulg'ayib, shu viloyat (xalqi)ga zulm qilishga tutundi; xalq ortiq chiday olmadni, dehqonlar[30] va boylar bu viloyatdan qochdilar hamda Turkiston va Taroz[31] (yaqinida) bir shahar bino qilib uni Hamuket deb atadilar, chunki Buxorodan qochib ketgan toifaning raisi bo'lmissi bir katta dehqonning nomi Hamuk edi; "Hamuk" deb, Buxoro tilida gavhara aytildi, "ket" esa - shahar, ya'ni Hamuket "Hamuk - gavharning shahari" demakdir. Buxoro tilida katta odamni "hamuk", ya'ni falonchi gavhar deydilar.

So'ngra Buxoroda qolgan kishilar o'zlarining (qochib ketgan) sarkardalariga odam yuborib, Abruyning jabr-zulmidan qutqrishni so'radilar. Shunda sarkardalar va dehqonlar turklar podshohining oldiga bordilar,- u podshohning nomi Qarojurin turk bo'lib, ulug'ligi sababli unga Biyog'u deb laqab bergan edilars B"va Biyog'udan arz-dodlariga yetishii iltimos qildilar. Biyog'u Sheri Kishvar nomli o'z o'g'lini ko'p lashkar bilan yubordi. Sheri Qishvar Buxoroga kelgach, Baykanda Abruyni tutib band qildi. Uning farmoni bilan bir katta qopni qovoq ariga to'lg'izib Abruyni shu qopga soldilar va u qop ichida o'ldi. Sherya Kishvarga bu viloyat yoqib qolib, otasiga xat yubordi va undaa bu viloyatni talab qilib, Buxoroda turishi uchun ruxsat berishini iltimos qildi.

Biyog'udan: "u viloyatni senga bag'ishladim", degan javob kelgach, Sheri Kishvar Hamuketga odam yuborib, Buxorodan qochib ketgan kishilarni xotin va bola-chaqalari bilaya Buxoroga oldirib keldi va o'sha vaqtdayoq yana.: "Hamuketdach kelgan har bir kishi (amirning) yaqin kishilaridin bo'ladi" degan buyruq bo'ldi. Buning sababi, kimki boy va katta dehqon bo'lgan bo'lsa Buxorodan qochib ketgan, kambag'al va bechoralar esa Buxoroda qolgan edilar. Qochib ketgan kishilar qaytib kelgach, chorasisiz (Buxoroda) qolgan (kambag'al)lar ularga xizmatkor bo'ldilar.

Buxoroga qaytib kelgan guruh orasida bir katta dehqon bor edi, u qadimiyy dehqonzoda va ko'proq daromadli yerlar uniki bo'lganligidan uni "Buxorxudot" der edilar va (Buxoroda qolganlarning) ko'plari uning kadivarlar[32] va xizmatkorlari edilar. Sheri Qishvar Buxoro shahristonini[33] qurdi hamda Mamostin,[34] Saqmatin[35] Samtin va Farab qishloqlarini bino qildi. U yigirma yil podshoh bo'lib turdi. Undan keyin bo'lgan boshqa podshoh Iskajkat, Sharg' va Romtin qishloqlarini bino qildi, so'ngra Faraxshiy qishlog'iga asos soldi. Xitoy podshohining qizini kelin qilib Buxoroga olib kelganlarida uning jihozlar orasida Xitoydan bir butxona ham olib keldilar va uni Romtinga o'rnatdilar.

Amir ul-mu'minni Abu Bakr Siddiqning,- xudo undan rozi bo'lsin,- xalifaligi davrida[36] Buxoroda sof kumushdan tanga pul zarb qildilar, bundan ilgari Buxoroda tanga pul yo'q edi.

Muoviyaning davrida Qutayba ibn Muslim tomonidan Buxoro fath qilindi va Tag'shoda Qutayba ibn Muslim tomonidaya podshoh bo'lib, o'ttiz ikki yil hukmronlik qildi. Abu Muslim uni Xuroson amiri bo'lgan Nasr (ibn) Sayyor davrida[37] Samarqandda o'ldirdi.

U, to o'ldirilgunigacha, Qutaybadan keyin o'n yil hukmronlik qilgan edi. (Shundan keyin) uni xudo rahmat qilgur Abu Muslim o'liddi. Undan so'ng uning birodari Sukon ibn Tag'shoda yetti yil podshohlik qildi va xalifaning farmoni bilan Faraxshiy (Varaxsha) qasrida o'liddi, to'polon ko'tarildi; u ramazon oyida o'z ko'shkida oldiga qur'on qo'yib o'qib o'tirgan edi, uni shu holatda o'liddilar va shu ko'shkka ko'mdilar. Sukon ibn Tag'shodadan keyin birodari Bunyot ibn Tag'shoda yetti yil hukmronlik qildi. U xalifaning farmoni bilan Faraxshiy qasrida o'liddi; buning sababi keyin so'zlanadi.

Shundan keyin Buxoro toki xudo rahmat qilgur amir Ismoil Somoni davrigacha[38] Tag'shodaning farzandlari, xizmatchilari va nabiralari qo'lida bo'ldi. So'ng podshohlik Buxorxudot bolalarining qo'lidan ketdi. Bu haqda quyida aytildi.

III. Buxoroga Podshoh Bulgan Xotin Va Undan Keyin Podshoh Bo'lgan Uning Farzandlari Haqida

Muhammad ibn Ja'far (an-Narshaxiy) aytadi: Bidun Buxorxudot[39] o'lgan vaqtida undan bir emadigan o'g'il bola qoldi; uing nomi Tag'shoda edi. Bolaning onasi bo'lgan xotin taxtga o'tirdi va o'n besh yil hukmronlik qildi[40], Uning davrida arablar Buxoroga kela boshladilar; har gal kelganlarida xotin ular bilan suluq tuzar va mol[41] berar edi. Aytishlaricha, uning davrida undan ko'ra donoroq bironqa ham kishi bo'lqagan; u donolik bilan hukmronlik qilar va xalq unga itoatda edi. Uning odati shunday ediki, u har kuni otga minib Buxoro hisori darvozasidan tashqari chiqar va "Alaffurushlar darvozasi" deb atalgan Registon darvozasiga kelib taxtga o'tirar, uning oldida esa g'ulomlar, xoja sarolar, ya'ni bichilgan qullar[42] va ulug' kishilar turar edilar. U qishloq aholisi uchun shunday qoida o'rnatgan ediki, har kuni dehqonlar va malikzodalaridan ikki yuz nafar yigit zarrin kamar bog'lab, qilichlarini osib xizmatga hozir bo'lib, uzoqroqda turishar, xotin tashqariga chiqqach, hammalari uni olqishlashar va ikki safga tizilishar edi; xotin esa podshohlik ishlari bilan mashg'ul bo'lar, yaxshilikka da'vat qilib yomonlikdan qaytarar, istagan kishisiga sarpo kiygizib, istagan kishisiga jazo berar edi. Shu tarzda ertalabdan to tushgacha o'trib, so'ng hisorga qaytib kirar, dasturxonlar chiqarib hamma xizmatkorlariga taom berar edi. Kechga yaqin ham xotin shu yo'sunda tashqari chiqib taxtga o'tirar, (haligi) dehqonlar va malikzodalar ikki saf bo'lib uning xizmatida turishar edi; quyosh botgach, xotin taxtdan turib otga minar va qasrga qarab, yo'l olar, yigitlar esa o'z vatanlariga - qishloqqa qaytar edilar. Ertasi kuni boshqa jamoa kelib shu sifatda xizmatda bo'lar va niyoyat, navbat yana o'sha (avvalgi) jamoaga kelib yetar edi. Shu tarzda har bir jamoa bir yilda to'rt marotaba (xizmatga) kelishi lozim edi.

Bu xotin o'lganida uning o'g'li Tag'shoda podshohlikka munosib keladigan darajada katta bo'lib qolgan hamda har knm bu mamlakatni egallashni tama qilayotgan edi. Bir vazir Turkistondan kelgan edi: nomi Vardonxudot: Vardona yerlari unga tegishli edi. Qutaybaga u bilan ko'p urush qilishga to'g'ri kelgan edi. Shu Vardonxudot o'ldi va Qutayba Buxoroni oldi. Qutayba Vardonxudotni bir necha marta bu viloyatdan quvib tashqari chiqardi va u qochib Turkistonga ketdi. Qutayba Buxoroni yana Tag'shodaga topshirdi va uni podshohlikka o'tkazdi; mamlakatni (tamagarlardan) tozalab Tag'shodaga topshirdi va uning barcha dashmanlarining qo'lini qisqartirdi. Tag'shoda Qutaybaning qo'lida imon keltirib musulmon bo'lgan edi. U Qutayba tirikligida va undan keyin Nasr (ibn) Sayyor davrida Buxoro mulkini so'rabb turdi; jami o'ttiz ikki yil davomida Buxoro uning qo'lida bo'ldi. Tag'shoda islom diniga kirgandan keyin undan bir o'g'il dunyoga keldi. Tag'shoda Qutayba bilan bo'lgan do'stligi hurmatiga o'g'lini Qutayba deb atadi.

Tag'shoda o'lgandan keyin uning o'g'li Qutayba taxtga o'tirdi, bir oz vaqt musulmonlikda turdida, so'ngira marhum Abu Muslim davrida dindan qaytdi. Abu Muslim bundan xabardor bo'lib uni o'ldirdi, uning birodarini ham (tarafdar) odamlari bilan qo'shib halok etdi.

Undan keyin Bunyot ibn Tag'shoda Buxoroga podshoh bo'ldi. U otasi islom dinida ekanligida tug'ilgan edi. Bir qancha vaqt musulmon bo'lib turdi. Muqanna paydo bo'lib "Oqliyimliklar" qo'zg'oloni Buxoro qishloqlariga tarqalgach, Bunyot ularga moyil bo'lib yordam berdi va natijada "Oq kiyimliklar"ning qo'llari uzayib, ular g'alaba qozondilar. Aloqa (xat-xabar) ishlari boshlig'i[43] bu haqda xalifaga xabar yubordi, xalifa Mahdiy edi[44]. Mahdiy Muqanna va "Oq kiyimliklar" ishlaridan xotirjam bo'lganidan keyin (Buxoroga) otliq askarlar yubordi. Bunyot Faraxshiy qasrida majlis (tuzib) sharob ichar va darchadan qarab o'tirar edi. U uzoqdan shoshilinch bilan kelayotgan otliqlarni ko'rdi va ular xalifa tomonidan ekanliklarini farosat bilan anglab, qarshi chora ko'rishga kirishar-kirishmas otliqlar yetib keldilar va hech bir so'z aytmasdan qilichlarini qindan sug'urib uning boshini kesdilar. Bu voqeа bir yuz oltmish oltinchi yilda (15 avgust 782БТ"4 avgust 783) bo'lgan edi. Uning barcha odamlari qochib ketdi, (xalifa yuborgan) otliqlar ham qaytdi.

Shunday qilib, Qutayba ibn Tag'shoda dindan qaytganligi sababli Abu Muslim uni, birodarini va xonadon ahlini o'ldirdi hamda Qutaybaning daromadli va g'allakorlik yerlarini uning birodari Bunyot ibn Tag'shodaga berdi; amir Ismoil Somoni davrigacha (bu yerlar) Bunyotning qo'lida bo'ldi. Bunyot (ham) dindan qaytib o'ldirilganidan keynn esa bu mol-mulk Buxorxudot farzandlarining qo'lida turdi. Bu mamlakat qo'lidan ketgan oxirgi kishi Abu Ishoq Ibrohim ibn Xolid ibn Bunyot bo'ldi.

Ibrohim[45] Buxoroda turar va mamlakat uning qo'lida edi. U har yili o'zining birodari Nasrga[46] Amir ul-mo'minin Muqtadirga[47] yetkazsin uchun Movarounnahrdan olinadigan hosil v'l g'allalardan yuborib turar edi. Amir Ismoil Somoni bu daromadli va g'allakorlik yerlarni uning qo'lidan chiqarli. Bunichg sababi, o'sha vaqtida soqchilar boshlig'i bo'lib turgan Ahmad ibn Muhammad Lays bir kuni amir (Ismoil Somoni)dan: "Ey amir! Shu qadar ko'p g'alla bitadigan serhosil yaxshi yerlar Abu Ishoqqa kimdan qolgan?"БТ"deb so'radi. Amir Ismoil Somoni unga javoban: "Bu daromadli yerlar ular (Buxorxudotlar)ning mulki emas, sultonlik mulkidir", - deli. Ahmad ibn Muhammad Lays yana: "Ularning mulkiyu, ammo ularning otasi dindan qaytgani sababli xalifa ularning qo'llaridan chiqarib bayt ul-mol mulkiga[48] aylantirgan va yana xizmat haqi (sifatida) va ta'minot o'tkaznshlari uchun ularga berib qo'yan edi. Abu Ishoq esa xizmatni keragicha ado etmaydi va u yerlarni o'z mulki deb biladi, - dedi. Ular shunday so'zlashib turganlarida, Abu Ishoq Ibrohim kirib keldi. Amir Ismoil Somoni undan: "Ey Abu Ishoq! Bu daromadli yerlardan sen har yili qancha g'alla hosili olasan?"БТ" deb so'radi. Abu Ishoq: "Ko'p mashaqqat va urinishlardan keyin bir yilda yigirma ming dirham hosil bo'ladi, - deb javob berdi. Amir Ismoil Ahmad ibn Muhammad Laysga: "Bu mavzeni sen olgin. Abu-l-Hasan orizga[49] ayt, u har yili Abu Ishoqqa yigirma ming dirham berib tursin, - deb buyruq berdi. Ana shu sababdan u daromadli yerlar Abu Ishoqning qo'lidan ketdi va qaytib (hech) uning qo'liga kirmadi. Abu Ishoq uch yuz biringchi yili (7 avgust 913-26 iyul' 914) dunyodan o'tdi, uning avlodlari Safna va Sevanj qishlog'ida qoldilar.

IV. Buxoro Va Unga Qushiladigan Joylar

Abu-l-Hasan Nishopuriy "Xazoin ul-ulum" kitobida keltirganki, Buxoro shahri, garchi oradan Jayhun daryosi o'tgan bo'lsa ham Xuroson shaharlaridan hisoblanadi.

Karmina Buxoro qishloqlari jumlasidan bo'lib, uning suvi Buxoro suvidan keladi; xiroji Buxoro xirojiga qo'shiladi. Uning o'ziga tegishli alohida bir qishloq ham bor; unda masjidi jome barpo etilgan. Karminada adib va shoirlar ko'p bo'lganlar. Masalda aytishicha, qadim vaqtarda Karminani "Bodyayn xurdak" ("Ko'zacha") deb ataganlar. Buxorodan to Karminagacha o'n to'rt farsangdir.

Nur katta joy. Unda masjidi jome bor; U ko'pgina rabotlarga ega. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun u yerga boradilar. Buxoro aholisi bu ishda ko'p mubolag'a qiladilar; Nur ziyoratiga borgan kishi haj qilgan (kishining) fazilatiga ega bo'ladi; u ziyoratdan qaytib kelganida tabarruk joydan kelganligi sababli shaharni havzoa band qilib bezatadilar. Bu Nurni boshqa viloyatlarda Nuri Buxoro deb ataydilar. Tobeinlardan[50] ko'p kishilar u yerga dafn etilganlar, xudo ularning hammalaridan to

qiyomatgacha rozi bo'lsin!

Yana Tavois[51]. Bu Buxoro viloyatlaridan bo'lib, (asl) nomi Arquddir[52]. Unda boy va zebu ziynatni sevuvchi kishilar yashaganlar. Zebu ziynatga berilganligidan har bir kishi ziynat uchun uyida bitta yoki ikkita tovus saqlagan. Arablar (bu yerga kelishdan) ilgari tovusni ko'rмаган ekanlar, bu yerda ko'p tovuslarni ko'rib, u qishloqni "Zot ut-tavois" вЂ "Tovuslar egasi" deb ataganlar, uning asl nomi esa unutilgan; undan keyinroq "zot" so'zini tashlab Tavois deb qo'yaga qolganlar. Unda masjidi jome bor, u katta bir shoristonga ega, qadimgi vaqtarda (har) kuz faslida u joyda o'n kun bozor bo'lari edi. U bozorda shunday rasm bor edi-ki, (boshqa bozorlardan surlib qolgan) har qanday nuqsonli qullar, chorva mollari va boshqa aybli qoldiq narsalar bo'lsha hammasi bu bozorda sotila berar va ularni qaytarib berishning hech iloj-imkonni bo'lmas edi; na sotuvchi va na oluvchining hech bir sharti qabul qilinmas edi. Har yili (shu o'n kunda) bu bozorga masalan, Farg'on, Choch[53] va boshqa joylardan kelgan savdogarlar va turli hojatmandlardan o'n mingdan ortiq kishi hozir bo'lishar va ko'p manfaat topib qaytar edilar. Shu sababli bu qishloqning aholisi boy kishilar edilar va boyliklari* dehqonchilik tufayli emas edi. Tavois Samarqandga boriladigan katta yo'l ustida bo'lib, undan Buxorogacha yetti farsangdir.

Iskajkat. U bir katta kuhandizga[54] ega. Uning aholisi boy kishilar bo'lganlar; boyliklari dehqonchilikdan bo'lman, chunki u qishloqning yerlari xarob bo'lib, yaxshi yerlari ming juftga[55] yetmagan. Uning hamma aholisi savdogarchilik bilan shug'ullangan. U joyda ko'p bo'z (to'qib) chiqarilar edi. Har payshanba kuni u yerda bozor bo'lardi. U kishloq sultonlikka tegishli mulklar jumlasidandir. Abu Ahmad al-Muvaffaq billoh[56] bu qishloqni muqotaa[57] sifatida Xurosonning amiri Muhammad ibn Tohirga[58] bergan edi (keyin) uni yana Sahl ibn Ahmad ad-Dog'uniy al-Buxoriyga sotdi va pulini oldi. Dog'uniy u joyga bir hammom qurdi va daryoning quyi tomon qirg'og'ida bir burchakka katta qasr bino qildi. U qasrnng qoldiqlari bizning zamonomizgacha saqlanib kelgan edi. Dog'uniy qasri deb ataganlar; uni daryo suvi vayron qildi. Sahl ibn Ahmad Dog'uniy uchun Iskajkat aholisi har yili o'n ming dirham soliq (to'lashi shart edi). Bu soliqni hamma xonadonlarga taqsim qilib to'lar edilar. Qeyinroq borib aholi ikki-uch ynl davomida soliqni to'lamadi va podshohga murojaat qilib undan yordam so'radi. Sahl ibn Ahmadning merosxo'rlari amir Ismoil Somoni davrida hujjat ko'rsatdilar, u hujjatni ko'rib, to'g'ri topdi. Lekin (ikki oradagi) xusumat uzoq davom etib shaharning ulug' kishilar qishloq aholisi bilan Dog'uniy merosxo'rlari orasiga tushib, bir yuz yetmish ming dirhamga suluq qildilar. Aholi qishloqni sotib olib (Dog'uniy merosxo'rlariga) soliq to'lashdan qutuldilar va u mablag'ni to'ladilar.

Bu qishloqda to Malik Shamsulmulk Nasr ibn Ibrohim Tamg'ochxonning[59] podshohlik davrigacha hech qachon masjidi jome bo'lman. Shu qishloq aholisidan bir ulug' kishi bor edi, uni Xonsolor der edilar, u hurmatli, xizmatkorlari ko'p bir kishi bo'lib. sultonning omillaridan[60] edi, shu kishi xolis o'z molidan juda yaxshi bir masjidi jome bino qildi, bunga ko'p pul sarf bo'ldi va bu masjidda juma nomozini o'qidi.

Ahmad ibn Muhammad Nasr shunday deydi: Sharg' (qishlog'i) xatibinnng menga bergen xabaricha, u masjidi jomedan bir martadan boshqa juma namozi o'qigan emaslar, (chunki) ana shu bir marta o'qishdan keyin Buxoro imomlari ruxsat bermay qo'yanlar va u masjidda juma namozini o'qishni to'g'ri topmaganlar. Bu juma masjidi toki Qadrxon Jabrail ibn Umar ibn To'g'rulxon Buxoroga amir bo'lga vaqtgacha[61] bekor qoldi. Bu amirning nomi To'g'rulbek bo'lib, laqabi Kulortegin edi. U masjidning yog'ochlarini Xonsolorning merosxo'rlaridan sotib olib, masjidni buzdi va yog'ochlarini Buxoro shahriga keltirib, "Jo'bayi baqqolon", (Boqqollik bozori") yaqinida madrasa bino qildi, u yog'ochlarni shu madrasaga ishlatdi va behisob pul sarfladi. U madrasani Kulortegin madrasasi deb ataydilar. Bu amir shu madrasaga dafn etilgan edi.

Sharg' qishlog'i Iskajkat ro'parasidadir, ikkovining orasida katta daryodan boshqa hech bir bog' va bo'sh yerlar yo'q. U daryoni Rudya Somjan deb ataganlar. Hozirda esa Sharg' daryosi, ba'zn kishilar bo'lsa, Haromkom deydi. Bu ikki qishloq o'rtasida dara ustida katta ko'prik bor edi. Sharg' qishlog'ida hech vaqt masjidi jome bo'lman. Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon davrida[62] uning farmoni bilan o'sha ko'prikn g'oyatda mahkam qilib g'ishtdan ishladilar va Arslonxonning xolis o'z puliga masjidi jome bino qildilar. Arslonxon musofirlar uchun Iskajkat tomoniga bir rabot qurishg'a buyurdi. Bu qishloqda katta byr kuhandiz bor, kattaligidan uni shaharga tenglashtirish mumkin.

Muhammad ibn Ja'far (an-Narshaxiy)ning aytishicha, (bu joy aholisining) qadimgi vaqtarda bir bozori bo'lib, har yili qish o'rtasida o'n kun davom etar, (kishilar) uzoq viloyatlardan kelib savdo qilar edilar. Ko'proq u joydan shinni bilan tayyorlangan mag'izli holva chiqar edi, yana u joydan ko'proq chiqadigan narsa qintori[63] va cho'p (yog'och)lar, tuzlangan baliq, yangi baliq, qo'y va qorako'l terilaridan tikilgan po'stinlardan iborat edi; bu yerda ko'p savdo bo'lari edi. Ammo bugun bizning davrimizda har juma kuni bozor bo'lib, shahar va qishloqlardan savdogarlar u joyga boradilar. U qishloqdan chiqadigan va bu kunlarda savdogarlar boshqa viloyatlarga olib boradigan narsa mis[64] va bo'zdir.

Muhammad ibn Ja'far (an-Narshaxiy)ning xabar berishicha, rahmatli amir Ismoil Somoni bu qishloqni barcha yer-suvalri va dovdaraxtlari bilan sotib olib, hammasini Buxoro shahrining ichkarisida Samarqand darvozasida bino etgan rabotga vaqf qilgan. Hozir u rabot ham, vaqf ham qolgan emas. Bu Sharg' va Iskajkat Buxoroning eng yaxshi qishloqlari bo'lga. Xudo ularni balolardan saqlasin!

Zandana. Bu qishloq katta qal'aga, ko'pgina bozor joylarga masjidi jomega ega. Bu yerda har juma kuni namoz o'qiydilar va bozor qiladilar. Bu qishloqda (to'qib) chiqariladigan narsa - bo'zni "zandaniychi", ya'ni "Zandana qishlog'idan chiqadigan" deb ataydilar. Bu yerda u ham yaxshi, ham ko'p bo'ladi. Shu xil bo'zdan Buxoroning ko'p qishloqlarida to'qiydilar va buni ham "zandaniychi" deb ataydilar. Chunki u avvalo shu qishloqda to'qib chiqarilgan. Shu xil bo'zdan Iroq, Fors, Kermen, Hindiston va boshqalar kabi hamma viloyatlarga olib boradilar. Barcha ulug'lar va podshohlar undan kiyim qiladilar va ipakli kiyimlik bahosida sotib oladilar. Xudo bu qishloqni hamisha yashnatsin!

Vardona. Bu katta bir qishloq bo'lib, kuhandizga, katta va kustahkam hisorga ega. U qadim vaqtardan podshohlarning turarjoylari bo'lga, (lekin) hozirda unda podshoh o'tiradigan qarorgoh yo'q. Vardona Buxoro shahridan qadimroq (barpo bo'lga) uni Shohpur Malik[65] bino qilgan. U Turkistonning chegarasida joylashgan. U joyda har haftada bir kun bozor bo'lib savdogarlar ko'p kelar edilar. U yerdan chiqadigan narsa ham yaxshi xil "zandaniychi" bo'lga.

Afshina. Katta shoristonga va mustahkam hisorga egadir. Bir qancha qishloqlar unga mansubdir. U yerda har haftada bir kun bozor bo'ladi. Bu qishloqning ekin yerlari va biyobonlari madrasa talabalariga vaqf qilingan. Qutayba ibn Muslim u joyda masjidi jome bino qilgan. Muhammad ibn Vose ham bir masjid qurdirgan. Bu yer duo qabul bo'ladi joy. Odamlar shahardan u joyga boradilar va uni tabarruk deb hisoblaydilar.

Barkad. Bu qadimiy va katta bir qishloq; bir katta kuhandizga ega. Bu qishloqni "Barkadi alaviyon" вЂ "Ali avlodnning Barkadi" deb ataydilar. Bunga sabab shuki, amir Ismoni Somoni bu qishloqni sotib olgan va olti bo'lakka ajratib, undan ikki bo'lagini Ali

va Ja'far avlodiga[66], ikki bo'lagini darvishlarga va ikki bo'lagini o'z merosxo'rlariga vaqf qilgan. Romtin (Romitan). Bu katta bir kuhandizga ega va mustahkam bir qishloq bo'lib, Buxorodan qadimiyroqdir. Ba'zi kitoblarda bu qishloqni Buxoro deb ataganlar. Bu qishloq qadim vaqtarda podshohlarning turarjoylari bo'lgan, (keyinroq esa) Buxoro shahari bino bo'lgandan keyin, podshohlar qish faslidagina bu qishloqda turadigan bo'lganlar. (Bu yerlar) islom davlatiga o'tganda ham shunday bo'lib turgan. Marhum Abu Muslim Buxoroga kelganida shu qishloqda turgan. Bu qishloqni Afrosiyob bino qilgan.

Afrosiyob har vaqt bu viloyatga kelganida shu qishloqdan boshqa joyda turmagan. Forsylarning kitoblarida aytishicha, Afrosiyob ikki ming yil yashagan. U jodugar bo'lib, Nuh podshohning bolalaridandir. U o'zining Siyovush nomli kuyovini o'dirgan. Siyovushning Kayxusrav nomli o'g'li bo'lib, u otasining qonini talab qilib ko'p lashkar bilan bu viloyatga kelganida Afrosiyob shu Romtin qishlog'i hisor qilib turgan. Kayfsrav o'z lashkari bilan ikki yil shu hisor atrofini o'rav turdi va uning ro'barasiga bir qishloq bino qilib, u qishloqni Romush deb atadi. Uni yaxshiligidan Romush deganlar. Bu qishloq hozirgacha obodondir. Qayxusrav Romush qishlog'ida otashparastlar ibodatxonasini qurdi; otashparastlarning aytishlaricha, bu ibodatxona Buxorodagi otashparastlar ibodatxonalarining eng qadimiysidir. Kayxusrav ikki yildan keyin Afrosiyobni tutib o'ldirdi.

Afrosiyobning go'ri Buxoroda Ma'bad darvozasida rahmatli Xoja imom Abu Hafs Qabir[67] tepaligiga tutashgan katta tepali ustidadir. Buxoro aholisi Siyovushning o'ldirilishi to'g'risyda ajoyib ashulalar to'qiganlar; kuchilar bu qo'shiqlarni "Kini Siyovush" "Siyovush jangi" deb ataydilar. Muhammad ibn Ja'far (an-Narshaxiy) o'sha vaqtadan buyon uch ming yil o'tgan (deydi). Yana xudo bilimdonroqdir.

Varaxsha. Bir nusxa (kitob) da Varaxsha o'rniida Rajfandun deb yozganlar. Katta qishloqlar jumlasidan bo'lib, Buxoro singari edi; u Buxoro shahridan qadimiyroqdir, u podshohlar turadigan joy bo'lib, mustahkam hisorga ega bo'lgan, chunki padshohlar (u hisorni) bir necha marta mustahkmlaganlar. Uniag Buxoro shahrining devori singari devori ham bo'lgan. Rajfandun yoki Varaxshaning o'n ikkita arig'i bor. Bu qishloq Buxoro devorining ichkarisida joylashgan. Unda obod bir qasr bo'lgan, shundayki, go'zallikda uni namuna qilib ko'rsatar edilar. Unya Buxorxudot bino qilgan bo'lib, qurilganiga ming yildan ortiqroq vaqt o'tgan. Bu qasr ko'p yillardan beri vayron va qarovsiz qolib ketgan edi Xunukxudot[68] uni qaytadan tuzatdi: yana vayron bo'lgan edi Bunyot ibn Tag'shoda ibn Buxorxudot islomiyat davrida yangidan qurib, o'zi uchun turarjoy qilib oldi va nihoyat, u shu joyda o'ldirildi.

Rahmatli amir Ismoil Somoni o'sha qishloq aholisini chaqirib: "Men yigirma ming diram (pul) va yog'och beraman, tuzatin! (xarajati)ni o'z ustimga olaman, uning ba'zi qismi hali o'z joyida, sizlar bu qasrni masjidi jome qilib olinglar", - dedi. Qishloq aholisi buni xohlamaadilar va masjidi jome bizning qishloqqa to'g'ri kelmaydi va joiz ham emas, dedilar. Bu qasr amir Ahmad ibn Nuhibi Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil as-Somoni davrigacha[69] o'z joyida mavjud edi. Bu amir u qasrning yog'ochlarini shaharga olib kelib, Buxoro hisori darvozasidagi o'z saroyini qurishga kirishdi.

Bu qishloqda har o'n besh kunda bir kun bozor bo'ladi, yilning oxirida esa yigirma kun bozor qilib, yigirma birinchi kuni navro'z - yangi yil bayramini o'tkazadilar. Buni "Navro'zi kishovarzon" "Dehqonlar navro'zi" deydilar. Buxoro dehqonlari (yil kunlari) hisobini o'sha kundan boshlaydilar va bunga e'tibor beradilar. Otashparastlarning navro'zi undan besh kun keyin keladi.

Baykand. Buni shaharlar jumlasidan deb hisoblaydilar. Baykand aholisi, biror kishining Baykandni qishloq deb atashiga rozilik bergen emaslar. Agar biror baykandlnk Bag'dodga borsa va undan "sen qayerdansan?" deb so'rasalar u Baykanddanman degan, Buxorodanman degan emas. Baykandda katta masjidi jome va oliv imoratlar bor. To ikki yuz qirqinchchi yilgacha (2 iyun 854B'T 21 may 855) Baykand darvozasi oldida ko'p rabotlar bo'lgan. Muhammad ibn Ja'far (an-Narshaxiy) o'z kitobida keltirishicha. Baykandda Buxoro qishloqlari sonicha, mingdan ortiq rabot bo'lgan. Buning sababi shuki, Baykand katta va yaxshi joy bo'lib, har bir qishloqning aholisi u yerda bir rabot qurib unga bir to'da kishilarni joylab qo'yan va ularning nafaqalarini qishloqdan yuborib turgan. Qish fasilda kofirlar (yig'ilib) hujum qiladigan vaqt bo'lganida har bir qishloqdan u joyga ko'p xalq to'planib g'azot qilganlar. (Shunda) har bir qavm o'z rabotiga kelib tushgan.

Baykand aholisi hammasi savdogar bo'lgan. Ular Xitoy bilan va dengiz (orqali boriladigan) mamlakatlar bilan savdo qilganlar va juda boy bo'lganlar. Qutayba ibn Muslim Baykand juda mustahkam bo'lganligi sababli uni olishda ko'p qiyinchilnklar ko'rdi. Uni jezdan qurilgan shahriston der edilar. U Buxoro shahridan qadimiyroq. Bu viloyatda bo'lgan har bir podshoh, o'zi uchun Baykandni turarjoy qilar edi. Farabdan Baykandgacha o'n ikki farsang masofa biyobon bo'lib, bu biyobon qumlik (cho'l)dir. Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon o'z davrida Baykandni (qaytadan) qurishga buyurdi. Odamlar u yerga yig'ilib yaxshi imoratlar qildilar, xoqon (Arslonxon) o'zi uchun juda hajamatli saroy qurdirdi.

Haromkom suvi Baykandga keladi. Baykandda qamishzorlar va katta-katta suv xalqobları tutashadi; bularni "Borgini farox" "Keng havz" deydilar va Qaroko'l deb ham ataydilar. Ishonchli knshilardan eshitganmanki, u (ko'l)ning kengligi yigirma farsangdir. "Masolik va mamolik" kitobida aytishicha, uni "Buhayrayi Somjan" "Somjan ko'li" deb ataydilar, Buxoro suvinining ortiqchasi ham o'sha joyga yig'iladi. Unda suv jonivorlari bo'ladilar; butun Xurosonda bu yerdagidek miqdorda qush va baliq tutilmaydi.

Haromkomning suvi Baykand imoratlari (yaqini)ga goh yetib kelishi, goho esa yetib kelmasligi tufayli, suv imoratlargacha yetib kelsin uchun Arslonxon alohida ariq qazishga buyurdi. Baykand tog' tepasida joylashgan bo'lib, lekin tog' baland emas edi. Xoqon tog'dan ariq qazishga buyurdi. Tosh shunday qattiq ediki, unda hech bir darz yo'q edi. Bu ishda juda hayronlikda qoldilar, Toshlarni yumshatish uchun juda ko'p xarvor[70] yog' va sirka sarf bo'lsa, ham bir farsang masofadan ortiq qaziyolmadilar. Ko'p kishilar halok bo'ldi; ko'p qiyinchilik ko'rib, ko'p mablag' sarf qilgandan keyin, (ariqni) qazimay qoldirdilar, Baykandning (arablar tomonidan) fath qilingani qissasi xudo xohlasa o'z o'rniada aytildi.

Farab. Bu shaharlar jumlasidan bo'lib, alohida joylarga ega, Jayhun daryosi labidan to Farabgacha bir farsang, suv toshgan vaqtarda esa yarim farsang keladi. Goho shunday ham bo'ladiki, Jayhunning suvi (toshib) Farabgacha borib yetadi. Farabda katta masjidi jome bor, uning devorlari va tomi pishiq g'ishtdan bo'lib, unga sira yog'och ishlatilmagan. Farabning bir amiri bor ediki, u biror (zaruriy) hodisa yuzasidan ham Buxoroga kelishni lozim topmas edi. (U yerda) bir qozi bor ediki, u Shaddod[71] kabi zolimona hukmlar yurgizar edi.

Buxoro qishloqlarning soni ko'p. Bu (aytib o'tilgan) bir nechtasi mashhurroq va qadimiyroq bo'lgani uchun ular haqida to'xtab o'tdi.

V. Buxoroda Bo'lgan "Bayt Ut-Tiroz" "To'qimachilik Korxonasi" Ning Bayoni. U Hanuz Uz Joyida Turipti Buxoroda - hisor bilan shahriston o'tasida, masjidi jome yaqinida bir korxona bor edi; unda paloslar, darpardalar, yazdiy kiyimliklar, yostiq jildlari, funduqiy[72] joynamozlar va ust kiyimlarni xalifa uchun to'qir edilar; bitta darpardaga (butun) Buxoro 6 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

xiroji sarf bo'lardi. Bag'doddan har yili alohida bir omil kelib, Buxoro xirojining evaziga shu kiyimlilardan olib ketar edi. Bir vaqt kelib bu korxona bekor qoldi va bu hunar bilan shug'ullanuvchi kishilar tarqalib ketdilar.

Buxoro shahrida shunday ishga tayin qilingan ustalar bo'lar edilar: viloyatlardan savdogarlar kelib, odamlar zandaniyichini olib ketganlaridek, u kiyimlilardan Shom va Misr, Rum shaharlariga olib ketar edilar. Xurosonning hech bir shaharida bunday (matoni) to'qiqy olmas edilar. Shunisi qiziqki, bu hunar egalaridan ba'zilari Xurosonga bordilar va bu ish uchun kerakli asboblarni shaylab shu kiyimlikdan to'qidilar, lekin Buxorodagidek sifatli bo'lib chiqmadi. Bu kiyimlikka ega bo'limgan birorta ham podshoh, amir, rais yoki boshqa mansab egasi yo'q edi. Uning qizil, oq va yashil ranglisi bo'lar edi. Bugun hamma viloyatlarda u kiyimlidan ko'ra zandaniyichi mashhurroq.

VI. "Bozori Mox" Ning Bayoni

Buxoroda bir bozor bor ediki, uni "Bozori Mox ro'z" der edyalar. U yerda yiliga har gal bir kundan ikki marta bozor qilar va har bir bozor bo'lgan kuni butlar sotar edilar. Har bozor kuni ellik ming diramdan ortiq savdo bo'lar edi. Muhammad ibn Ja'far (an-Narshaxiy) o'z kitobida shunday deydi: "Bu bozor bizning vaqlarda (ham) bor edi; men nega bunday odat rasm qilingan deb juda ajablanar edim; Buxoroning keksalari va shayxlaridan: "buning sababi nima" deb so'radi. Ular: "Qadim vaqlarda Buxoro aholisi butparast bo'lganlar va bu bozor rasm bo'lib, o'sha davrlardan boshlab bu yerda but sotganlar va (bozor) hozirda ham o'sha (qadimgidek) qolib kelmoqda", - deb javob berdilar. Abu-l-Hasan Nishopuriyning "Xazoin ul-ulum" kitobida aytishicha, qadimgi vaqlarda Buxoroda bir podshoh bo'lib, uning nomi Mox edi. U ana shu bozorni qurishga buyurdi; uning farmoni bilan duradgorlar va naqqoshlar u yildan bu yilgacha but yo'nib, belgilangan kunda shu bozorga keltirib sotishar va xalq uni sotib olar ekan. Har qachon u but yo'qolsa yoki sinsa, yoki eskisa, shu bozor kuni boshqasini sotib olar va eskisini tashlar ekanlar.

Hozir Mox masjidi o'nashgan yerda katta ariq bo'yida bir serdaraxt tekislik joy bo'lib, shu daraxtlar soyasida bozor bo'lar adi. U podshoh, xalq but sotib olishga qiziqsin uchun, shu bozorga kelib hozir Mox masjidi o'nashgan yerda taxtda o'tirar, har kim o'zi uchun but sotib olar va uyiga olib ketar edi. Bu joy yana otashparastlar ibodatxonasi (ham) bo'ldi; bozor kuni odamlar bu yerga yig'ilganlarida hammalari ibodatxonaga kirib olovga topinar edilar. Bu ibodatxona to'islomiyat davrigacha bor edi, musulmonlar quvvatlanib ketgach, mazkur (Mox) masjidii xuddi shu joyga bino qildilar. Hozir u Buxoroning mo'tabar masjidlaridandir.

VII. Buxoroning Turli Nomlari Bayoni

Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr Buxoro ko'p ismlarga ega deydi va o'z kitobida Numijkat[73] degan ismni keltiradi. Yana boshqa bir joyda men uni Bumiskat deb keltirilganini ko'rdir. Boshqa bir joyda arab tilida "Madinat us-sufriya", ya'ni "Mis shahar" va yana boshqa bir joyda arab tilida "Madinat ut-tujor", ya'ni "Savdogarlar shahri" deb yozilgan. Buxoro degan nom u nomlarning hammasidan mashhurroqdir. Xuroson shaharlaridan birontasi ham bunchalik ko'p nomga ega emas. Bir hadisda Buxoro nomi Foxira bo'lib, kelgan. Xoja imom, zohid, voiz Muhammad ibn Ali Nujva bodiy rahmatli Salmoni Forsiyidan[74] bir hadis rivoyat qilgan Salmonning aytishicha payg'ambar, B.T "xudo unga o'z rahmat va salomini yo'llasin, - shunday degan: Jabroil, B.T" unga xudoning rahmatlari bo'lsin - aytganki, kun chiqish tomonda bir joy bor, uni Xuroson deydilar, uning uchta shaharini qiyomat kuni yoqut va marjon bilan ziynatlab keltiradilar; ulardan nur chiqib turadi; u shaharlarning tevaragida farishtalar ko'p bo'lib, ular tasbih, xamid va takbir aytadilar, kelinni kuyov uyiga olib borgandek u shaharlarni e'zoz va ikrom bilan mahshargohga olib keladilar. Bu shaharlarning har birida yetmish mingdan bayroq, har bir bayroq tagida yetmish mingtadan shahid (yotgan) bo'ladi va har bir shahidning shafoati bilan forscha so'zlovchi va xudoni bir deb biluvchi yetmish ming kishi azobdan qutuladi. Qiyomat kuni u shaharlarning har tarafi: o'ng va so'li, oldi va orqasi o'n kunlik yo'l bo'lib, bularning hammasida shahidlar turadi. Hazrat payg'ambar, - xudo unga rahmat va salomini yo'llasin, - Ey Jabrail! U shaharlarning nomlarini menga ayt, deb so'radi; Jabroil, - unga xudoning salomi bo'lsin, B.T "shaharlarning birini arab tilida Qosimiy forschada, Yashkard deydilar; ikkinchisini arabchada Samaron, forschada Samarqand deydilar; uchinchisini arabchada Foxira, forschada Buxoro deydilar, - deb javob berdi.

Payg'ambar, - xudo unga o'z salomi va rahmatini yo'llasin, - so'radi: Ey Jabrail! Nega Foxira deb ataydilar? Jabrail: shunnng uchunki, qiyomat kuni Buxoro shahari o'zida shahidlarning ko'pligi bilan faxr qiladi, deb javob berdi. Payg'ambar, - xudo unga o'z salom va rahmatini yo'llasin, - xitob qilib: Ey xudo! Foxiraga barakat bergin, uning xalqlari dillarini taqvo bilan pok etgin, ishlarini pokiza qilgin va ularni mening ummatimga marhamatli qilgin!--dedi. Ana shu ma'nini tufayli buxoroliklarning rahmdilliklariga, ularning e'tiqodlilik za pokliklariga kun chiqish va kun botish guvohlik beradi.

VIII. Buxoro Arqining Bino Etilishi Haqida

Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr buning ajoyabotlari haqida to'xtab, shunday deydi: Abu-l-Hasan Nishopuriyning "Xazoin ul-ulum"da aytishicha, Buxoro kuhandizining, ya'ni Buxoro arki hisorining bino etilishiga mana shu (voqe) sabab bo'lgan: Siyovush ibn Kaykovus o'z otasidan qochib Jayhun daryosidan o'tib Afrosiyobning oldiga keldi. Afrosiyob uni yaxshi qabul etdi va o'z qizini unga xotinlikka berib, aytishlaricha, barcha mulkini ham unga topshirdi. Bu viloyat o'ziga vaqtincha berib qo'yilgan joy ekanligi tufayli, Siyovush bu yerda o'zidan bir yodgorlik qoldirishni istadi. Shunday qilib, u Buxoro hisorini bino qildi va ko'proq vaqt o'sha joyda turar edi. (Kimplardir) u bilan Afrosiyob o'tasida yomon gap yurgizdi va (natijada) Afrosiyob uni o'liddi hamda ana shu hisorda sharqiy darvozadan kiraverishingda "Darvozayi g'uriyon" deb atalgan somonfurushlar darvozasining ichkarisiga dafn etdilar. Shu sababli Buxoro otashparastlari o'sha joyni aziz tutadilar va unga atab har bir erkak kishi har yili navro'z kuni quyosh chiqishidan oldin o'sha joyda bittadan xo'roz so'yadi. Buxoro aholisining Siyovushning o'ldirilishiga bag'ishlab aytgan marsiyalari bo'lib, u barcha viloyatlarga mashhurdir. Kuychilar unga moslab kuy tuzganlar va qo'shiq qilib aytadilar. Qo'shiqchilar uni "otashparastlar yig'isi" deydilar. Bu gaplar bo'lganiga hozir uch ming yildan ortiqroq vaqt o'tdi.

Shunday qilib, mana shu rivoyatga ko'ra bu hisorni Siyovush bino qilgan, ba'zilari esa Afrosiyob bino qilgan deganlar. (So'ng) bu hisor buzilib ketib, ko'p yillar vayronligicha qoldi. Biz ayтиб o'tgan xotinning eri, Tag'shodanining otasi bo'lgan Bidun Buxorxudot taxtga o'tirganidan keyin, odam yuborib bu hisorni tuzattirdi, undagi qasrni ham u tuzattirdi va o'z nomini temirga yozdirib qasrning eshidiga mahkam o'rnattirdi. Shu xat bitilgan temir tarjimonning zamonigacha o'sha qasr eshidiga mavjud edi. Lekin Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, Hisorni vayron qilganlarida u eshikni ham buzib yuborganlar. Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, Muhammad ibn Ja'far va Abu-l-Hasan Nishopuriy bunday deganlar: Bidun Buxorxudot u qasrni bino qilganida buzilib ketdi, qaytadan bino qilgan edi, yana buzildi. U necha marta bino qilmasin yana vayron bo'laverdi. Hukamolarni yig'ib ulardan maslahat so'radir. Ular bu qasrni osmondag'i yetti qarоqchi yulduzlar shaklida yettita tosh ustun ustiga qurishga qaror qildilar; shu shaklda (qurilgandan keyin) qasr buzilmadi. Yana bir ajoyibi shuki, bu qasr bino qilingandan

beri bunda hayot kechirgan hech bir podshoh mag'lubiyatga uchragan emas, aksincha hamisha g'alaba qozongan. Yana bir ajoyibi, bu qasri bino qilganlaridan beri na kofirlar davrida va na islomiyat davrida - biror podshoh ham uning ichida o'limgan; podshohning ajali yetgan vaqtida biror sabab yuz berib u qasrdan tashqariga chiqqan va boshqa bir joyda vafot topgan B'T"bu qasr bino qilinganidan to vayron bo'lgunicha shunday bo'lib kelgan.

Bu hisorning ikkita darvozasi bor, biri sharq tomonda, biri g'arb tomonda; sharq tomondagisini "Dari g'uriyon", g'arb tomondagisini "Dari Registon" deydi, tarjimonning davrida keyingisini "Dari alaffurushon" deb ataganlar. Hisorning o'ttasida bu darvozadan to u darvozagacha to'g'ri yo'l bo'lgan. Bu hisor podshohlar, amirlar va askar boshliqlarining turarjoylari bo'lib, zindon, podshohlik devonlari va podshohlar turadigan qasr qadimdan shu yerda bo'lgan. Haram saroyi va xazina (ham) shu hisorda bo'lgan. Tarjimonning davrida bu hisor buzilib ketdi. Bundan bir necha yil ilgari Arslonxon uni yangilashga buyurdi va o'ziga turarjoy qilib oldi hamda hisorni (ma'lum) shartlarga muvofiq idora qilib tursin uchun, ulug' bir amirni kutvol[75] qilib tayinladi. Bu hisor xalq ko'zida zo'r e'tiborga ega edi.

Besh yuz o'ttiz to'rtinchchi yil oyalaridan birida (28 avgust 1139 - 16 avgust 1140) Xorazmshoh[76] Buxoroga kelganida amir Zangi Ali xalifa hamda Sulton Sanjarning[77] farmoni bilan, Buxoroning volysi edi. Xorazmshoh uni qo'lga olib o'ldirdi va hisorni vayron qildi. Hisor ikki yildan ortiqroq shu vayronligicha qoldi. Besh yuz o'ttiz oltinchi yili (6 avgust 1141 B'T"26 iyul' 1142) Go'rxon[78] tomonidan Buxoroga voliy qilib tayinlangan Alptegiya o'sha yiliyoq hisorni obodon qilishga buyurdi va uni o'zi uchun turarjoy qilib oldi. Hisor ilgarigidan ham yaxshiroq bo'ldi. Besh yuz o'ttiz sakkizinchchi yili ramazon oyida (8 mart - 6 aprel' 1144) g'uz askarlari[79] Buxoroga yetib keldi. Aynuddavla, Qarochabek vz Shahob vazirlar hisorga qamaldilar, ko'p jang va qiyinchiliklardan keyin g'uz askarlari hisorni olib, Shahob vazirni o'ldirdilar va hisorni vayron qildilar; hisor shu vayronligicha qoldi. Besh yuz oltmishinchchi yili (18 noyabr' 1164 - 6 noyabr' 1165) Buxoro shahrining aylanasiga devor qurmoqchi bo'ldilar; devorning tagini pishiq g'ishtdan ishlash zarur bo'ldi. Hisorning tagi va minoralari pishiq g'ishtdan edi, uni buzib olib Buxoro shahrining devoriga ishlatdilar. Hisor bir yo'la vayron bo'ldi va u qasrdan hech bir imorat va nishon qolmadidi.

Olti yuz to'rtynchi yili (28 iyul' 1207 B'T"15 iyul' 1208) Xorazmshoh Muhammad ibn Sulton Takash Buxoroni olib, hisorni qaytadan tikladi; xitoyliklar yengildilar[80]. Olti yuz o'n oltinchi yili (19 mart 1219 B'T"7 mart 1220) esa tatar lashkari keldi, ularning amiri Chingizxon edi. Ular qal'aning darvozasida o'n ikki kun jang qilib, uni oldilar va vayron qildilar.

IX. Podshohlarning Buxoroda Bulgan Manzillari Haqida

Buxoro hisorning g'arbiy darvozasidan to Ma'bad darvozasigacha bo'lgan masofa Registon deb ataladi. Mana shu Registonda qadim johiliyyat davrlaridan beri podshohlarning saroylari bo'lgan. Somoniylar davrida[81] Amiri sa'id Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil as-Somoniy[82] Registonga bir saroy (qurishni) buyurdi; g'oyatda go'zal bir saroy qurdilar; (Amir) bunga ko'p Mol sarfladi; u o'z saroyi darvozasi oldida amaldorlari uchun saroy qurishga buyurdi, uni ham qurdilar, shundayki, har bir amaldorning podshoh saroyi darvozasi oldida qurilgan o'z saroyida alohida devoni bor edi; masalan: vazir devoni, moliya (kirim-chiqim) ishlari devoni, davlat hujjatlarini boshqarish ishlari devoni, soqchilar boshlig'i devoni, xat-xabarlar mutasaddisi devoni, saroy ish boshqaruvchisi devoni, davlat xos mulklari devoni, muhtasib devoni, vaqflar devoni, qozilik ishlari devoni. (Amir) mana shu tartibda devonlar qurishga buyurdi va ularni qurdilar.

Abdulmalik ibn Nuh nbn Nasr ibn Ahmad ibn Ismoilning davrida[83] uning vaziri va "Kitobi Yaminiy"ning muallifi xudo rahmat qilgur Ahmad ibn Hasan al-Utbiy[84] uning go'ri Darvozayi Mansur mahallasida, xon hammomining yonidadir, madrasa ro'parasiga juda yaxshi bir masjid bino qildi va shu masjid tufayli o'sha mavzu kamol topdi. U dono amir otdan yiqilib o'lgach, qullar kechasi saroyga kirib, uni talashga kirishdilar. Amirning yaqin kishilarini va kanizlari o'ttasida janjal chiqib, saroyga o't qo'yib yubordilar; saroy butkul yonib ketdi va undagi tilla va kumushdan (ishlangan) hamma go'zal narsalar yaroqsiz bo'ldi. Shunday (yong'in) bo'ldiki, u binolardan biror nishon ham qolmadidi.

Uch yuz elliginchi yil shavvol oyida (13 noyabr' - 11 dekabr' 961) Amiri sadid Mansur ibn Nuh[85] Jo'yil miliyon degan joyda taxtga o'tirgach, uning farmoni bilan u saroyii yangidan qurib nobud va zoye bo'lgan narsalarni avvalgidan ham yaxshiroq qilib vujudga keltirdilar. Shunda Amiri sadid saroyda joylashdi. (Biroq) hali bir yil ham o'tgani yo'q ediki, bir bayram kechasi o'tkazilib, qadimiy odatga muvofiq katta gulxan yoqdilar, bir pora olov uchib saroyning shipi alanga oldi va saroy yana butunlay kuyib ketdi. Amiri sadid kechasi Jo'yil miliyonga ketdi va vaziriga shu kechadayoq hamma xazina va dafinalarni olib chiqishga buyurdi.

(Vazir) bu narsalarni ishonchli kishilar orqali Jo'yil miliyonga yubordi. Tong otgach, bitta tilla kosadan boshqa hech bir narsa yo'qolmaganini aniqladilar. Amiri sadidning vaziri xolis o'z puliga og'irligi yetti yuz misqol[86] keladigan bir kosa buyurtirdi va uni xazinaga yubordi. Usha vaqtadan beri bu mavzu yana registon - "bo'sh maydon"ga aylanib vayron bo'lib qoldi.

Keyin podshohlar saroylari Jo'yil miliyonda bo'lgan. Jo'yil miliyonning jannatni eslatuvchi go'zal maqomidan ko'ra yaxshiroq biror joy va manzil Buxoroda yo'q edi. Chunki uning hamma joyi saroylar, bog'lar, gulzorlar va bo'stonlar bilan qoplangan. Doimiy oqib turuvchi suvlar (bilak ta'minlangan). Uning chamanzorlari bir-birlariga tutashib kettan va ularning oralaridan ariqlar o'tib chamanzorlar va gulzorlar tomon ming tarafga qarab oqar edi. Oqib turgan suvlarni tomosha qilgan har bir kishi, bu suv qayerdan kelayapti-yu, qayerga ketayapti deb hayratda qolar edi. O'z zamonining nodir ustodlari va me'morlarni ana shunday tarh chizgan edilar. Bir baxtli (shoir) bunday degan.

Bayt:

Hayot suvi bu chamanga keldiyu, zor-zor yig'lab ketdi,
Bu gulshanni tashlab ketish shart ekanligidan nolalar qilib ketdi.

Yana Registonning darvozasidan to Dashtakkacha (bo'lgan) hama na yer toshdan ishlanib naqshlangan, bir tartibda (qurilgan) baland tand uylar, turli suratlar ishlangan mehmonxonalar, chiroylli chorborg'lар va yaxshi sarhovuzlar bilan band edi. Sada qayrag'ochlar shunday bir tarzda chodir shaklini olgan ediki, sarhovuz labidagi o'tiradigan joyga sharq tomonidan ham, g'arb tomonidan ham zarracha quyosh tushmas edi. Bu chorborg'larda nashvati, bodom, yong'oq, gilos, jilon jiyda va anbar bo'yli jannatda bo'ladijan har bir meva g'oyatda yaxshi va go'zal tarzda(o'tqazilgan) edi.

X. Juyi Muliyonning Bayoni Va Uning Tavsifi

Jo'yil miliyon yerlari qadim vaqtarda Tag'shodaning mulka bo'lib, u o'z farzand va kuyovlarining har biriga taqsim qilib bergen

edi. Marhum amir Ismoil Somoni bu yerlarn xalifa al-Musta'in ibn al-Mu'tasimning[87] lashkarboshisi bo'lgan Hasan ibn Muhammad ibn Tolutdan sotib oldi. Amir Ismoil Jo'yini muliyonda saroylar va bog'lar barpo qilib, uning ko'proq qismini mavoliylarga[88] vaqf qildi. U hozirgacha ham vaqf. Amir Ismoil doimo o'z mavoliylariga g'amxo'rlik ko'rgizar edi. Bir kuni amir Ismoil Buxoro hisoridan Jo'yini muliyonga qarab turganida uning yonida otasining mavlosi Simo-ul-kabir - "Ulug' siymo" turgan edi. Amir Ismoil uni do'st tatar va yaxshi ko'rар edi, unga qarab: "Bir vaqtı ketsa-da, xudoysi taolo biror sabab tug'dirib, bu yerlarni sizlar uchun sotib olsam va menga umr bersa-da, bu yerlar sizlarniki bo'lganini ko'rsam, chunki bu yerlar Buxoroning barcha yerlaridan qiyamatliroq, yaxshiroq va xush havoliroqdir" dedi. Xudoyi taolo nasib etib amir Ismoil u yerlarning hammasini sotib olib, mavoliylarga berdi va niyoyat, u yerlar Jo'yini mavoliyon deb ataldi, ko'pchilik xalq esa uni Jo'yini muliyon, deydilar.

Buxoro hisoriga bir tekislik yer tutashgan bo'lib, uni "Dashtak" deydilar. Bu yerlarning hammasi qamishzor edi. Marhum amir Ismoil bu joyni ham Hasan ibn Muhammad ibn Tolutdan un ming diramga sotib oldi va birinchi yildayoq qamishning pulidan o'n ming diram hosil undi. Amir Ismoil bu joyni masjidi jomega vaqf qildi. Amir Ismoildan keyin uning farzandlaridan kimki amir bo'lsa u go'zalligi, toza va xushhavoligi tufayli Jo'yini muliyonda o'zi uchun bog' va ko'shklar bino qildi.

Darvozayi Navda shahar darvozasiga tutash bir mavze borki, uni "Koraki Alaviyon" - "Ali avlod ekinzori" deydilar. Amir Mansur ibn Nuh bu joyga g'oyat go'zal bir ko'shk qurdi; go'zallikda uni misol qilib gapirar edilar; u uch yuz ellik oltinchi yili (17 dekabr' 966БТ"6 dekabr' 967) (qurilgan) edi. Koraki alaviyonning bu yerlari to Nasrxon nbn Tamg'ochxon[89] davrigacha sultonlik mulki bo'lgan edi. Nasr xon bu yerlarni shaharga yaqin bo'lganligi uchun faqihlarning dehqonchilik qilishlari osonroq bo'lsin deb. ilm ahllariga berdi va o'zi buning evaziga uzoqroq yerlardan oldi.

Jo'yini muliyon va Koraki Alaviyon somoniylar hukmronlign davrining oxirigacha obod edi. Mamlakat somoniylar qo'lidan ketgach, u saroylar xarob bo'ldi hamda toki Shamsulmulk Nasr ibn Ibrohpm Tamg'ochxon davrigacha Buxoroda faqat hisordan boshqa (podshohlar uchun) biror muayyan qarorgoh bo'lmadi. Shamsulmulk Shamsobodni bino qildi.

XI. Shamsobodning Bino Etilishi Haqida

Malik Shamsulmulk darvozayi Ibrohim oldidan ko'p daromadli yerlarni sotib olib, darvozagacha qariyb yarim farsang keladigap joyda go'zal bog'lar barpo etdi, imoratlariga ko'p mablag' va xazinalar sarf qildi va u joyga Shamsobod deb nom berdi hamda Shamsobodga tutash qilib podshohlikka xos otlar uchun bir o'tloq joy barpo etdi va uni g'o'ruq (qo'ruq) deb atadi va uzunligi bir mil miqdorida mustahkam devor bilan o'rab, ichiga bir qasr va bir kaptarxona qurdi. Bu g'o'ruq ichida bug'u, kiyik, tulki va ayiq kabi yovvoyi jonivorlarni (ham) saqlar va ularning hammasi o'rgatilgan edi. G'o'ruq baland devorlar bilan o'ralgan bo'lib, jonivorlar qocha olmas edilar.

Malik Shamsulmulk dunyodan o'tgach, uning birodari Xizrxon[90] taxtga o'tirdi va ana shu Shamsobodga ko'p imoratlar qurdirdi. Ular g'oyatda go'zal edi. U ham dunyodan o'tgach, uning o'g'li Ahmadxon podshoh bo'ldi[91]. U Shamsobodga qaramay qo'ydi va niyoyat, Shamsobod xarobalikka yuz o'girdi.

Malikshoh Xurosandan Buxoroga (yurish qilib) kelganida[92] ko'p joylarni vayron qildi hamda (Buxorodan) Samarqand tomon ketayotganida Ahmadxonni asir qilib Xurosonga olib ketdi va yana Movarounnahrga qaytarib yubordi. Ahmadxon (qaytib kelgannda) Shamsobod tamom vayron bo'lgan edi. U o'ziga Jo'yborda saroy qurishga buyurdi, saroyni qurdilar. Saroy ichiga bog', oqar suvlar va uning takomili uchun zarur bo'lgan barcha narsalarini joyiga keltirdilar. Bu saroy o'ttiz yilgacha Buxoro hukmronlarining qarorgohi bo'lib turdi.

Arslonxon taxtga o'tirgach, har vaqt Buxoroga kelganida shu saroyda bo'lar edi. Keyinroq u saroyni buzdirib hisorga olib kelishni lozim topib, shunga buyruq berdi va u joy xarob bo'lib qoldi.

Bir necha yildan keyin Arslonxonning farmoni bilan Bu Lays ko'chasidagi Darvoza mahallasida saroy va uning ichida podshohlikka xos hammom qurildi. Yana saroy darvozasi oldiga misli ko'rilmagan boshqa bir hammom ham solindi. U saroy ko'p yillar davomida Buxoro podshohining qarorgohi bo'lib turdi. Keyinroq esa Arslonxonning farmoni bilan u saroyni faqihlar uchun madrasa qilib berdilar, saroy darvozasi oldidagi hammom va birmuncha qishloqlarni u madrasaga vaqf qildilar. O'zi uchun xos saroyni esa Arslonxon Sa'dobod darvozasi oldida qurishga buyurdi; uni ham qurdilar.

XII. Kashkashon (Deb Atalgan) Guruhning Bayoni

Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy o'z kitobida keltirganki, Qutayba ibn Muslim Buxoroga kirib uni olgach, Buxoro aholisiga o'z uylari va yerlarning yarmini arablarga berishni buyurdi. Buxoroda bir qavm bor ediki, uni Kashkashon der erdilar; ular hurmatli, qadr-qiyatli va e'tiborli odamlar bo'lib, Buxoro aholisi o'rtasida zo'r obro'ga ega edilar; ular dehqonlardan bo'lmay, chetdan kelgan kishilar bo'lib aslzoda, savdogar va boy odamlar edilar. Qutayba uylar va asbob-anjomlarni taqsim qilib berishga qistay bergach, ular o'z uy-joylari va asbob-anjomlarini butunlay arablarga qoldirib, o'zlarini uchun shahar tashqarisida yetti yuzta ko'shk bino qildilar. U vaqtarda shaharning kattaligi (hozirgi) shahristoncha kelar edi. (Kashkashonlardan) har bir o'z ko'shkinining atrofiga xizmatkorlari va o'ziga qarashli odamlari uchun uylar qurdi va har bir kishi o'z ko'shkinining oldiga bog' va tekis maydon barpo qildi va ular ana shu ko'shklarga ko'chib keldilar. U ko'shklar hozirda vayron bo'lib, ko'proq qismi shaharga qo'shilib ketgan; u joyda faqat ikki-uchta ko'shk saqlanib qolgan va ularni "Ko'shki mug'on" deydilar. Chunki u joyda otashparast (mug')lar turganlar. Bu viloyatda otashparastlarning ibodatxonalarini ko'p bo'lgan va mug'lar ko'shklari darvozalarining oldida go'zal va orombaxsh bog'larini bo'lib, ularning ekin yerlari juda qimmatbaho bo'lgan.

Muhammad ibn Ja'far shunday yozgan: "Biz Amiri hamid davrida eshitishimizcha, Ko'shki mug'on yerlarning qimmatbaho ekanligiga sabab shuki, podshohlar Buxoroda joylashganlar va ularning xizmatchilari va yaqin kishilarini u yerlarni sotib olishga qiziqqanlar, natijada bu yerlarning har bir jufti hatto to'rt ming diramgacha yetgan. Bu gap Amiri (hamid)ning qulog'iqa yetgan-da u: "Mening bilishimcha, podshohlar Buxoroda turarjoy qilib olishlaridan ilgari bu yerlarning bahosi yana ham ortiqroq bo'lgan, agar birov bir jufti gov yer sotib olmoqchi bo'lsa, yil bo'yini qidirib (unday yerni) topa olmas edi, agarda, topa olsa har bir juftni o'n ikki ming xolis kumush diramga sotib olishi lozim edi. Hozir bir juft yerning narxi to'rt ming xolis diram bo'lsa, narx arzonlashib qopti, xalqda kumush (pul) kam qolgan bo'lsa kerak", - degan.

Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr esa: "Bizning davrimizda bu Ko'shki mug'on yerlari shunday (arzon) bo'ldiki, uni tekinga bersalar ham, hech kim olishni istamaydi. Sotib olingani ham (hukm-dorlarning) xalqqa qilgan zulm va shafqatsizligi sababli (ekilmay yotadi) va tekinga qolib ketadi", - deydi.

XIII. Buxoro Va Uning Atrof Yerlaridagi Anhorlar

Birinchisi Karmina anhorn; bu katta anhor. Ikkinchisi Shopurkom angori. Buxoroning avom xalqi buni Shofurkom deyishadi. Hikoyatda keltirishlaricha, soso niylar sulolasidan bo'lgan Kisroning[93] farzandlaridan biri o'z otasiga achchiq qilib, bu viloyatga kelgan; uning nomi Shopur edi. "Pur" eron tilida "o'g'il" demakdir. U Buxoroga kelganida Buxorxudot uni yaxshi qabul qildi. Shopur ov qilishni yaxshi ko'rар edi. Bir kuni ovga chiqib u (Shopurkom) tomoniga borib qoldi. U vaqtarda o'sha yerda hech bir qishloq va obod joy bo'lmay, yayloq va ov qilinadigan joy bo'lgan. Bu yer Shopurga yoqib qolib, uni obod qilish uchun ulush yo'sinida o'ziga berilishini Buxorxudotdan so'ragan. Buxorxudot bu mavzeni Shopurga berdi va Shopur u yerda katta anhor qazitib, uni o'z nomi bilan, ya'ni "Shopurkom" deb atadi va bu anhor (bo'ylab) qishloqlar va qasr bino qildi. Bu tevarakni "Obaviya qishloqlari" deydilar. Shopur yana Vardona qishlog'ini bino qildi va qasr qurib, uni o'zi uchun turarjoy qilib oldi. (Shunday qilib) u yerda katta bir mulk paydo bo'lди va Shopurning vafotidan keyin qishloqlar uning avlodiga meros bo'lib qoldi. Qutayba ibn Muslim Buxoroga kelgai vaqtida Shopur avlodidan Vardonxudot hukmron edi va u ulug' podshoh bo'lib, Vardona qishlog'ida turar hamda Tag'shoda Buxorxudot bilan nizolashar edi. Qutaybaga Vardonxudot bilan ko'p janglar qilishga to'g'ri keldi va oxiri Vardonxudot o'lib, Qutayba Buxoro mulkini Tag'shodaga berdi. Bu qissa Baykand va Buxoroning fath etilishi bobida aytildi.

Uchinchi anhorni Harqonat ul-Ulyo, to'rtinchisini Harqonrud, beshinchisini Ovxfatfar, bu g'oyat keng va katta anhordir, - oltinchisi Somjan, yettinchisini Baykonrud va sakkizinchisini Farovzi Ulyo deydilar; bu (sakkizinchi) anhor bo'ylab ko'p qishloqlar joylashgan. To'qqizinchisini Faroviz is-Suflo yoki Komi Daymus ham deydnlar, o'ninchisini Arvon, o'n birinchisini Kayfur, o'n ikkinchisini Rudi Zar deydilar. Bu shaharni (sug'oruvchi) anhordir. Biz aytib o'tgan anhorlarning hammasi sersuv bo'lib, ular (yoqasi bo'ylab) ko'p qishloqlar o'nashgan. Aytishlaricha, hamma anhorlarni xalq qazigan, ammo Ovxfatfar anhorinng qazilishida u yerning xalqi zahmat chekmagan, uni suvning o'zi o'yib qazigan. Hozir buxoroliklar uni Rudi Nafar deydilar.

XIV. Buxoro Va Unga Tobe Joylarning Xiroji

Somoniyalar va ular qo'l ostidagi amirlar dazrida Buxoroning xiroji Karminaniki bilan qo'shilib bir gal bir million bir yuz Oltmis sakkiz ming besh yuz oltmis olti diramu besh yarim donakni tashkil etgan. Undan keyin xiroj har jihatdan kamaygan, ba'zi yerlar suv tagida qolib ketib, podshoh u mavzedan xiroj olishni to'xtatgan; suv olib ketgan joydan (ham) xiroj olmay qo'ygan; yelarning ba'zisi alaviylar va faqihlar qo'liga o'tib sulton bulardan ham xiroj olmagan. Ba'zi yerlar masalan. Baykand va boshqa ko'p qishloqlar, sultonning mulkiga o'tib xiroj daftaridan o'chirilgan va Karminaning xiroji Buxoro xirojjidan ajratilib (alohida olingan).

XV. Buxoroning Kishilar "Kanpirak Devor" Deb Ataydigan Devori Haqida[94]

Ahmad ibn Muhammad (ibn) Nasr aytadiki, Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy bu faslni shu (quyidagi) tartibda bayon qilmagan, lekin so'z orasida ba'zi gaplarni aytib o'tgan. Ammo Abu-l-Hasan Nishopuriy "Xazoin ul-ulum"da batartib keltirganki, xalfalik Amir ul-mu'minin Mahdiyya, ya'ni Horun ar-Rashidning otasiga yetgach, abbosiyya xalifalarining hech biri undan ko'ra porsoroq bo'lman, u butun Xuroson amirligini bir yuz oltmis oltinchi yili (15 avgust 782BТ"4 avgust 783) Abu-l-Abbos al-Fazl ibn Sulaymon Tusiyga[95] berdi. Bu (amir) Marvga kelib shu yerda o'nashdi.

Shundan keyin (Buxoroning) ko'zga ko'ringan kishilar, jamoalar sardorlari va ulug'lari uning oldiga bordilar va So'g'dning barcha sardorlari ham Xuroson amiriga salom berish uchun Marvga keldilar. Xuroson amiri ulardan o'z viloyatlarining ahvoli haqida so'radi. Buxoroliklar aytdilarki: "Biz turk kofirlaridan ranj tortmoqdamiz, ular har vaqt to'satdan kelib qishloqlarni talaydilar; hozir ular yana kelib Somdun qishlog'ini galadilar va musulmonlarni asir qilib olib ketdilar". Abu-l-Abbos Tusiy so'radi: "O'zingizda biror chora bormiki, men (uni amalga oshirishga) buyursam!" Shu yerda hozir bo'lgan So'g'd maliki Yazid ibn G'o'rak javob berib: "Xuroson amirining umri uzun bo'lsin! Qadim johiliyyat davrlarida turklar So'g'dni talar ekanlalar. So'g'dda bir xotin kishi podshoh ekan, u So'g'dning atrofiga devor ko'tartirgan va So'g'd viloyati turklardan omon topgap", - dedi. Shunda Abu-l-Abbos Tusny uning o'zi tomonidan Buxoro amiri bo'lib turgan Muhtadiy ibn Hammod ibn amir az-Zuhliya Buxoro atrofiga devor oldirishni buyurdi va turklarning qo'llari Buxoro viloyatiga yetmasin uchun, xuddi Samarqanddagiga o'xshash Buxoroning ham hamma qishloqlari devor ichkarisida bo'lsin, dedi. Muhtadiy ibn Hammod shunday devorni urishga, har bir farsang (masofada) bir darvoza qurishga va har yarim mil (masofa)da bittadan mustahkam minora ko'tarishga buyurdi. Buxoroning qozisi bo'lgan marhum Sa'd ibn Xalaf al-Buxoriy bu ishga mutasaddiy bo'ldi. Niroyat devor ikki yuz o'n beshinchchi yili (28 fevral' 830BТ"17 fevral' 831) Muhammad ibn Yahyo ibn Abdulloh ibn Mansur ibn Haljad ibn Varaqning davrida qurilib bitdi. Bundan keyin amir bo'lgan har bir kishi devorni tuzattirib, saqlab turar va shu sababli Buxoro aholisiga ko'p xarajat tushar, har yili ko'p pul sarflashga va juda ko'p hashar tashkil qilishga to'g'ri kelar edi. Oxiri rahmatli amir Ismoil Somoni yaxloni (bu qiyinchilikni tortishdan) ozod qildi va devor ham xarob bo'ldi, Amir: "To men tirik ekanman, Buxoro viloyatining devori men bo'laman", - dedi va ustiga olgan bu vazifani to'la bajardi; u doimo janglarda o'zi qatnashdi va Buxoro viloyati ustidan dushmanlarning zafar topishlariga yo'l qo'yadi.

XVI. Buxoro Shahrining Devori

Buxoro xalqi Xuroson amiri Muhammad ibn Abdulloh ibn Talxa at-Tohirin tomonidan Buxoro amiri bo'lib turgan Ahmad ibn Xoliddan: "Shahrimiz atrofida devor bo'lishi kerak, toki biz kechasi darvozalarni berkitib, o'g'rilari va yo'lkesarlardan tinch bo'laylik", - deb iltimos qildilar. Shundan keyin u devor urish" ga buyurdi va juda yaxshi mahkam devor urib, minoralar qurdilar, darvozalar o'natdilar. Bu ish ikki yuz o'ttiz beshinchchi yila (26 iyul' 849BТ"14 iyul' 850) tamom bo'ldi; har qachonki biror lashkar Buxoroga qasd qilsa devorni qaytadan tuzatishar edi" Arslonxon o'z (hukmronligi) davrida eski devorning oldiga bosh" qa (yangi) devor (ham) urishga buyurdi va ikkala devor bir-biriga yopshiiб mustahkam bo'ldi. (Lekin keyinroq) bu devor ham buzilib ketdi.

Besh yuz oltmishinchchi yili (18 noyabr' 1164BТ"6 noyabr' 1165) odil va bilimdon hoqon, dunyo va dinning suyanchig'i Mas'ud Qilich Tamg'ochxoning[96], - xudo uning yotgan yerini nurlantirsin, - buyrug'i bilan Buxoro shahrn eski devorining tashqarisidan devor urdilar; u ham vayron bo'ldi. Olti yuz to'rtinchchi yili (28 iyul' 1207BТ"15 iyul' 1208) Xorazmshoh Muhamad ibn Sulton Takash Buxoroni oldi va yana sirtdan devor urishga buyurdi; ikkala devorni yangiladilar. Olti yuz o'n oltinchi yili (19 mart 1219BТ"7 mart 1220) tatar lashkari kelib Buxoroni oldi va u devorlar yana vayron bo'ldi.

XVII. Buxoroda Dirham Va Kumush (Tanga) Zarb Qilinishi

Buxoroda siym - kumush (tanga)ni dastlab ishlatgan kishi Kono Buxorxudot nomli podshoh edi. U Buxoroda o'ttiz yil podshoh bo'lib turdi. Buxoroda savdo bo'z va bug'doy vositasi bilan bo'lar edi. Boshqa viloyatlarda kumush (tanga) zarb qilganliklari haqida podshohga xabar bergan edilar, u ham Buxoroda sof kumushdan tanga zarb qilib, unga o'zinnng toj kiyib turgandagi suratini ishlashga buyurdi. Bu voqeа Amir ul-mu'minin Abu Bakr Siddiqning, - undan xudo rozi bo'lsin, - xalifalik davrida[97] bo'lib (bu kumush tanga) Horun ar-Rashid davrigacha[98] davom etdi. Buning davrida esa bir yuz sakson beshinchи yil ramazon oyida (13 sentabr' 801) G'itrif ibn Ato Xurosonga amir bo'ldi. G'itrif Horun ar-Rashidning onasi bo'lgan Xayzuron nomli (xotinning) birodari edi. Xayzuron Atoning qizi bo'lib: Yamandagi Jurash deb atalgan shahardan edi. U asir tushib qolib Tabaristonga va u yerdan Mahdiyning huzuriga keltirilgan edi. Mahdiy bu xotindan ikki o'g'il ko'rди; birinchisi Muso al-Hodiy[99] ikkinchi Horun ar-Rashiddir. Xayzuronning obro'si ulug'langanda) keyin G'itrif (Yamandan) uning oldiga kelib, shu yerda qoldi. Horun ar-Rashid Xurosonni G'itrifga berdi.

U vaqtida "Buxoro aholisi qo'lida Xorazm kumush (tangasi) muomalada bo'lib, odamlar u kumush (tanga)ni ko'ngilsizlik bilan oлar edilar. Buxoroning (o'zida quylgan) u kumush (tanga) esa odamlar qo'lidan chiqib ketgan edi. G'itrif ibn Ato Xurosonga kelganida Buxoroning kattalari va ko'zga ko'rинган kishilari uning oldiga bordilar va undan: "Shahrimizda kumush (tanga) qolmadi, Xuroson amiri buyursalar, toki bizga kumush (tanga) zarb qilib bersinlar va uni o'sha qadimgi Buxoro kumush (tangasi) zarb qilingan qolipa quysinlar va u kumush (tanga) shunday bo'lsinki, hech kim uni bizning qo'limizdan chiqarib olmasin, shahrimizdan tashqariga olib ketolmasdi va biz o'z o'rtamizda o'sha kumush (tanga) bilan muomala qilaylik", - deb talab, qildilar. U vaqtida kumush kam edi; shahar aholisini yig'ib bu haqda ulardan maslahat so'radilar va olti xil narsa - tilla, kumush, teri, qalay, temir va mislardan kumush (tanga) zarb qilishga qaror qildilar. Shu (qarorni) amalga oshirdilar va o'sha ilgarigi qolipni G'itrif nomi bilan, ya'ni "Siymi g'itriify" "G'itrif kumush (tangasi)" deb qo'ydilar; avom xalq uni "g'idriify" deb atar edi. Qadimgi kumush (tanga) sof kumushdan edi. Bu aralash qilib quylgan kumush (tanga) qora rangli bo'lib chiqdi va Buxoro aholisi uni olmay qo'ydi. Sulton ularga g'azab qilgach, majburan oladigan bo'ldilar. Olti g'idriify bir dirham sof kumushga barobar, deb baho qo'ydilar. Sulton (ham) uni shu qiymatda oldi va nihoyat, u kumush (tanga) rivoj topib ketdi va shu sababdan (xalq uchun) Buxoro xirojini (to'lash) og'ir bo'ldi, chunki Buxoro xiroji ilgari ikki yuz ming kumush diramdan bir oz kamroq edi, g'idriify tangasi quyilib, oltitasi bir diram sof kumush bahosida yurgach, sulton (buxoroliklarmi) shu g'idriify bilan xiroj to'lashga buyurdi, shunda g'idriify kamayib ketib, bir g'idriifiyning bir dirami bir diram (sof) kumush bahosida yura boshladi. Sulton esa (xirojni) kumush bilan olishni istamay, g'idriify talab qildi. (Natijada) ikki yuz ming diram kumushdan kamroq bo'lgan Buxoro xiroji birdaniga 1.068.567 diram g'idriifyga borib yetdi.

Muhammad ibn Ja'farning aytishicha, bir yili ikki yuz yigirma diram toza kumush sakson besh diram g'idriifyga (barobar) bo'lgan. Ahmad ibn Nasr: "Biz bu kitobni tarjima qilayotganimiz besh yuz yigirma ikkinchi yili (6 yanvar' - 24 dekabr' 1128) yuz diram sof kumush yetmish diram g'idriify bahosida bo'lib, bir misql qizil oltin yetti yarim diram g'idriify (bahosi)ga teng bo'ladi", - deydi. Muhammad ibn Ja'farning aytishicha, bu g'idriifyni Buxoro shaharida Ko'shki Mohak (degan joy)da zarb qilganlar. G'idriify kumush (tangasida) boshqa tarkiblardan ko'ra kumush ko'proq. Aytishlaricha, bir g'idriifiyning har bir diramida bir habba tilla bo'lib, har bir o'n diramida yarim diramdan tortib to'rt yarim donagacha[100]tila bo'lgan. Somoniylar sulolasidan (podshoh bo'lgan) har bir kishi va somoniylar sulolasidan keyingi boshqa podshohlar Buxoroda ko'p mayda pullar zarb qilganlar. Buning biror ajablanarli joyi bo'limganligi uchun, u haqda gapirilmadi.

XVIII. Buxoro Fath Etilishining Boshlanishi

Muhammad ibn Ja'farning bayon qilishicha, Ubaydulloh ibn Ziyod Muoviya[101] tomonidan Xurosonga yuborilib, u Jayhun daryosidan o'tib Buxoroga kelgan vaqtida Buxoro podshohi, o'g'li Tag'shoda kichik yoshli bo'lgani tufayli, bir xotin kishi edi. Ubaydulloh ibn Ziyod Baykand va Romtinni olib ko'p kishilarni asir qildi. To'rt ming buxorolik asirni shaxsan o'ziga oldi. Bu voqeа ellik uchinchi yilning oxiri va ellik to'rtinchи yilning boshida (noyabr'-dekabr' 673) bo'lgan edi. U Buxoro shahriga yetgach, askarlarini saf qilib, palakmonlarni shaharga to'g'rilab qo'ydi. Xotin turklarga odam yuborib ulardan yordam so'radi hamda Ubaydulloh ibn Ziyodga ham odam yuborib yetti kun muhlat talab qildi va: "Men sening itoatingdaman", - deb, ko'p hadyalar yubordi. Shu yetti kunda turklardan yordam kelmagach, Ubaydulloh ibn Ziyodga qaytadan odam yuborib, yana yetti kun muhlat so'radi. (Nihoyat) turk lashkari yetib keldi va boshqalar ham yig'ilishib lashkar ko'paydi; ko'p urushlar qildilar va oxiri kofirlar yengilib qochdilar, musulmonlar ularning orqalaridan borib ko'plarini o'ldirdilar. Xotin qal'aga kirdi, u (yig'ilib kelgan) lashkarlar o'z viloyatlariga qaytdilar. Musulmonlar qurol, kiyim-kechak, tilla va kumushdan ishlangan narsalar va asirlardan ibrat ko'p o'lja qo'lga kirtdilar. Ular xotinning bir moy etigini ham paypog'i bilan topib oldilar. Etik va paypoq tilla (ishlatilib tikilgan va) qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan edi, baho qilganlarida ikki yuz ming dirham turdi.

Ubaydulloh ibn Ziyodning farmoni bilan daraxtlarni kesdilar, qishloqlarni vayron qildilar; shahar ham xatarda edi; xotin odam yuborib omon tiladi, bir million dirham barobariga sulu tuzildi. (Xotin) mol yubordi. Ubaydulloh ibn Ziyod molnn olib qaytdi va mazkur to'rt ming buxorolik asirlarni ham o'zi bilan olib ketdi. U ellik oltinchi yili (25 noyabr' 675B' 13 noyabr' 676) Xuroson amirligidan tushirilganidan keyin Sa'id ibn Usmon Xuroson amiri bo'ldi va Jayhun daryosidan o'tib Buxoroga keldi. Xotin unga odam yuborib: "Ubaydulloh ibn Ziyod bilan tuzgan sulhimda barqarorman", - dedi va moldan bir ozini yubordi. Nogoh shu asnoda So'g'd, Kesh (Shahrisabz) va Naxshab (Qarshi) lashkarlari yetib keldilar. Ularning soni bir yuz yigirma ming edi. Xotin sulu tuzganligi va mol yuborganligiga pushaymonlik bildirdi. Sa'id: "Men ham shunday fikrdaman", - dedi-da, molni qaytarib yuborib: "Bizing oramizda sulh yo'q", - dedi. Shundan keyin lashkarlar yig'ilishib bir-birlariga qarama-qarshi turib saf tortdilar. Xudoyi taolo kofirlar diliga vahima solib, ularning hamma lashkarlari urushsiz orqaga qaytdilar. Xotin yolg'iz qolib yana odam yubordi va (Sa'iddan) sulh so'radi, mol (miqdorini) ko'paytirib hammasini yubordi. Sa'id: "Men endi So'g'd va Samarqandga boraman, sen mening yo'llimdasan, (qaytishimda) mening yo'llimi to'smasliging va meni ranjitmasliging uchun sen tomonidan biror garov bo'lishi lozim", - dedi. Xotin malikzodalar va Buxoro dehqonlardan sakson kishini garov qilib Sa'idga berdi. Sa'id Buxoro darvozasidan qaytib ketdi va shu ketganicha ketmoqda.

Hikoyatda keltirishlaricha, xotin o'z erining xizmatkorlaridan biriga oshiq edi; odamlar uning o'g'li Tag'shoda o'sha kishidan bo'lgan va xotin bu bolani o'z eridan bo'lgan deb ko'rsatadi, ammo bu bola Buxorxudotdan emas deb gapirar edilar. Uning lashkarlaridan bir guruhi esa: "Biz uning mamlakatini beshak podshohzoda bo'lgan boshqa bir xudotzodaga beramiz", - der edilar; xotin ularning bu qasdlaridan ogoh bo'lib, ularni o'zidan daf qilish uchun tadbir qidirar edi. Sa'id bilan sulh tuzilib, Sa'id undan garov talab qilgach, xotin hiyla qildi va haligi maqsadni mo'ljallagan o'sha guruhi garovga berib, ulardan xalos bo'ldi va Sa'iddan ham qutuldi.

Yana Sa'id haqida hikoyat qiladilarki, u xotin bilan sulu tuzganida: "Menga salom berish uchun huzurimga chiqishing kerak", degan; xotin uning aytganidek salomga chiqqan, u yana: "Mening sarkardalarim oldiga (ham) salomga chiqishing kerak", - degan. Xotin uning sarkardalaridan har biri uchun ham salomga chiqqan. Sa'idning lashkar boshliqlaridan biri Abdulloh Hozim edi, u o'zining chodiri ichida katta gulxan yoqishga buyurdi va o'zi (olov yonida) turdi. (Chodir ichi) juda issiq edi, Abdulloh rangi qizil kishi bo'lib, olovning issig'idan ko'zlari ham qizarib ketgan edi va kallasi kattaligidan uni Bayg'oriya deb masalda keltirar edilar; vahshatli bir kishi edi. U qurollangan holda qilich yalich ochlab turdi va uning oldiga kirgan xotin qo'rqib tez qochib chiqdi va aytdi:

Ey g'ulom, seni xudo ajab go'zal qilib bezantiripti,
Yomon ko'z (sendan) uzoq bo'lsin, senga yaqinlashmasin!

Hikoyat: Sulaymon Laysiy aytadiki, Sa'id xotin bilan sulu tuzilgandan keyin Buxoroda kasal bo'lib qoldi; xotin uni ko'rgani kirdi; uning tillaga to'la bir hamyonni bor edi, u qo'lini hamyonga solib, undan ikkita narsa chiqardi-da: "Buning bittasini o'zim uchun saqlayman, mabodo kasal bo'lib qolsam yeymen, mana bu ikkinchisini senga beraman, uni yesang sog'ayasan", - dedi. Sa'id: "Bu nima narsa ekanki, bu xotin shunchalik aziz va ulug' tutib menga berdi", - deb ajablanti va xotin chiqib ketgach qarasa, u narsa eskirib ketgan bir dona xurmo ekan. Shunda u odamlariga buyurdi: ular beshta tuyaga yangi xurmodan ortib xotinning oldiga eltdilar. Xotin qoplarni ochib ko'p xurmoni ko'rdi; hamyonini ochib o'zining xurmosini chiqardi-da, u xurmolar bilan solishtirdi; qarasa ular o'zi saqlab yurgan xurmodek ekan; shunda u uzrga kelib: "Bizda bunday narsa ko'p bo'lmaydi, bu ikki dona xurmoni kasallik paytda nste'mol qilish uchun ko'p yillardan beri saqlab yurardim", - dedi. Rivoyat qilishlaricha, bu xotin yoqimli va go'zal ayol ekan va Sa'id unga oshiq bo'lib qolgan ekan. Buxoroliklarning bu haqda buxoro tilida qo'shiqlari bor.

Bir rivoyatda keltirishlaricha, Sa'id Buxoroga kelgan vaqtida rahmatli Qusam ibn Abbos ham Buxoroga kelgan ekan, Sa'yd uni hurmat qilib: "Bu o'ljalardan har kishiga bir hissa, senga esa ming hissa beraman",¹⁰² desa, Qusam,¹⁰³ "xudo undan rozi bo'lsin,¹⁰⁴" shariat buyurgan bir hissadan boshqa (hech narsa) olmayman",¹⁰⁵ degan. Shundan keyin rahmatli Qusam Marvga borgan va u yerda vafot etgan[102]. Ba'zilarning aytishlaricha, u Samarqandda vafot etgan. Yana xudo bilimdonroq. (Shunday qilib) Sa'id Buxoro ishlaridan forig' bo'lgach, Samarqand va So'g'dga borib ko'p janglar qildi va zafar uning tomonida bo'ldi. U vaqtida Samarqandda biror podshoh yo'q edi. Sa'id Samarqanddan o'ttiz ming kishini asir qilib, ko'p mol qo'lga tushirib (qaytdi). U Buxoroga yetib kelganida xotin odam yuborib: "Sog'-salomat qaytib kelding, endi garovni bizga qoldirib ket",¹⁰⁶ dedi. Sa'id esa "Hali sendan xotirjam bo'lganim yo'q, toki Jayhundan o'tgunimgacha garovlar men bilan bo'ladi", - dedi. Jayhundan o'tganida xotin yana odam yuborsa: "Marvga yetgunimcha qo'yatur",¹⁰⁷ dedi. Marvga yetganida esa "Nishopurga yetgunimcha qo'yatur", Nishopurga yetganida "Kufaga yetib olay", - dedi va undan Madinagacha olib ketdi.

Madinaga yetganidan keyin, Sa'id g'ulomlariga buyurib (u garovga berilgan odamlarning) qilich va kamarlarini yechtirdi va ularda bor bo'lgan kimxob kiyimlar, tilla va kumushlarnpng hammasini oldirdi. Kiyimlar evaziga ularga sholcha (kiyim)lar berib ekin ekish ishlariga band qilib qo'yidilar. Ular bundan juda xafa bo'lib: "Bu kishi bizga bermagan yana qanday xorlik qoldi? U bizni qil qilib olib og'ir ishlarni buyurmoqda, biz xorlik bilan o'lgandan ko'ra bir yo'la foydalish qilib o'laylik", - dedilar va Sa'idning saroyiga kirib zshiklarni mahkam berkildilar, Sa'idni o'liddilar va o'zlarini ham o'limga topshirdilar. Bu (voqe) Yazid ibn Muoviya[103] xalifalik qilib turgan vaqtida bo'lgan edi.

So'ngra Muslim ibn Ziyod ibn Abiyh[104] Xuroson amiri qilib tayinlandi va Xurosonga keldi. Bu yerda lashkar tuzib, Buxoroga bordi. Xotin bu lashkar va tayyorgarchiliklarni ko'rib, Buxoro lashkari ularga qarshi turolmasligini bildi-da, so'g'd podshohi Tarxunga odam yuborib: "Men senga xotun bo'lay. Buxoro sening shaharing, sen kelib bu mamlakatdan arablar qo'lini uzoqlashtirishing lozim", - dedi. Tarxun bir yuz yigirma ming kishi bilan keldi, Bidun ham Turkistondan ko'p lashkar bilan keldi. "To bu lashkar yetib kelgunicha xotin Muslim bilan sulu tuzib, unga darvszalarni va tashqarida bo'lgan ko'shk eshiklarini ham ochgan yedn. Bidun (Buxoroga) yetib keldi va Xarqonrudning u tomoniga tushdi. Muslimga: "Bidun yetib keldi va xotin unga bo'ysundi hamda shahar darvozalarini berkitdilar", - degan xabarni yetkazdilar. Muslim ibn Ziyod Muhallabning oldiga odam yuborib: "Muhallabga ayt, borib Bidun lashkarining qanday andozada ekanligini ko'rsin va ayg'oqchilik sharti nima bulsa uni joyiga keltirsin!"¹⁰⁸ dedi. Muhallab javob berib: "Hech kim bunday ishga mendek odamni yubormaydi; men hammaga taniqli kishiman; shunday bir kishini yuborginki, agar u salomat qaytib kelsa, senga to'g'ri xabar keltirsin va agar halok bo'lsa, lashkaringga nuqson yetmasin", dedi. Muslim esa: "Har nima bo'lsa ham sen borishing kerak!"¹⁰⁹ dedi. Muhallab: "Agar men borishim shart bo'lsa, lashkarning har bir to'dasidan bittadan kishini men bilan birga yubor va mening ketganimni hech kimga bildirma!"¹¹⁰ dedi. Muslim u aytganidek qildi va o'z amakisining o'g'lini (ham) u bilan birga yubordi; hammalari kechasi Muhallab bilan yo'lga chiqdilar va dushman lashkariga bildirmay kerakli ma'lumotlarni bilib oldilar. Tong otgach, Muslim ibn Ziyod ertabalki namozni o'qib bo'ldi-da, odamlarga qarab: "Men kecha Muhallabni ayg'oqchilik qilish uchun yubordim", - dedi. Bu xabar lashkar orasiga tarqaldi va buni eshitgan arablar: "Amir bizdan oldinroq o'lja olsin uchun Muhallabni yuboripti, agar jang bo'lganida edi u bilan birga bizni ham yuborar edi", - dedilar. Ulardan bir to'dasi tezda otlariga minib Muhallabning orqasidan to daryo labigacha bordilar. Muhallab ularni ko'rgach: "Sizlar kelib xato qilibsizlar; men yashirin turgan edim, sizlar esa oshkor kelayapsizlar, endi kofirlar hammamizni tutib oladilar", - dedi. Muhallab sanab qarasa musulmonlar to'qqiz yuz kishi ekan, u: "Azbaroyi xudo! Qilgan ishingizdan o'kinasiz", - dedi. Shu vaqt ular saf tortdilar va Bidun lashkarining ayg'oqchilarini ularni ko'rdiralar. Musulmonlar tezlik bilan karnay chalib hammalari birdan otlariga mindilar va saflarga tizildilar.

Turk podshohi ularga hujum qildi va arablarning tinkalari quridi. Muhallab: "Men shunday bo'lishini bilgan edim",¹¹¹ dedi, Ular: "Endi qanday tadbir qo'llash kerak?"¹¹² deb so'radilar, U "Ilgariroq yuringlar!"¹¹³ dedi. Ular esa orqaga chekindilar za Bidun ketlaridan yetib kelib musulmonlardan to'rt yuz kishini o'liddi, qolganlari lashkargohga qochib bordilar.

Ertasi kuni tong otgach, Bidun suvdan o'tib, Xo'tan amirining oldiga keldi, (chunki) ularning oraligi yarim farsang kelar ede (So'ng arablar bilan) jang boshlanib ketdi. Muhallab birnchi bo'lib urushga kirdi, qattiq urush bo'lib kofirlar yopirilib uni o'rta ga oldilar. Muhallab: "Menga yordam bering", - deb qichqirdi. Muslim parishon hol bo'lib: "Bu Muhallabning tovushk-ku!"¹¹⁴ dedi. Shu vaqtida Abdulloh (ibn) Xudon Muslimning oldida so'z qotmay jim turgan edi. Muslim undan: "Senga nima bo'ldi, biror so'z gapirmaysan?"¹¹⁵ deb so'radi. U: "Azbaroyi xudo! Agar halokat xavfli bo'lmasa Muhallab qichqirmaydi, endi otga minaman-da, o'z gardanimdag'i vazifani ado etaman, agar meni halokat qarshi olsa, unga ham tayyorman", - dedi. (Arablar) har gal qochishga tutunganlarida Muhallab qichqirar edi. Muslim: "Bir oz sabr qiling!"¹¹⁶ dedi. Shu orada Muslim dasturxon yozdirib non yeya

boshlagan edi, Abdulloh ibn Xudon: "Hozir non yeish vaqt emas, seni xudo to'yg'izsin! Halok bo'lay deyapsan-ku, xabaring yo'q, sen jang kishisi emasmisan?"¹⁰⁵dedi. Muslim: "Endi nima chora ko'ramiz?"¹⁰⁶deb so'rigan edi u: "Oqliqlarga ayt, piyoda bo'lib jang maydoniga yursinlar", - dedi. Shunday qildilar. Abdulloh (ibn) Xudon Muhallab tomonga yugurib ketdi. Muhallab qattiq qurshovda qolgan edi, (Abdulloh): "Orqangizga qarangiz!"¹⁰⁷deb qichqirdi, (musulmonlar) orqaga qarab yordamga kelayotgan kishilarni ko'rdilar, dillari quvvatlanib g'ayratga kirdilar va jangni kuchaytirib yubordilar. Shu orada Bidun o'ldirildi; musulmonlar takbir aytib yuborgan edilar, kofirlar birdan qocha boshladilar, musulmonlar ularning ketlaridan quvib borib o'lida berdilar va, niyoyat, ularni butunlay yengib, ko'p o'ljalar oldilar. O'ljalarni o'sha kuni taqsim qilgan edilar - har bir otliqqa ikki ming to'rt yuz diramdan tegdi. Xotin odam yuborib sulk talab qildi: Muslim u bilan sulk tuzib juda ko'p mol oldi. Xotin Muslimga: "Sendan iltimos qilamanki, menga Abdulloh Hozimni ko'rsatsang, uning suratini bir marta ko'rib behush bo'lib edim, menimcha u odam jinsidan bo'lmasa kerak", - dedi. Muslim Abdulloh Hozimni o'zi turgan mehmonxonaga chaqirib xotinga ko'rsatdi. Abdulloh ko'k rangli ipak kiyim kiygan va qizil salsa o'rangan edi. Xotin uni ko'rganida unga sajda qildi va ajablanganidan hadyalar yubordi. Muslim g'alaba qozonib va ko'p uljalar olib Xurosonga qaytib ketdi.

XIX. Qutayba Ibn Muslimning Hukmronligi Va Buxoroning Fath Qilinishi, Movarounnahrning Arab Va Ajam[105] O'rtasida Taqsimlanishi

Qutayba ibn Muslim Hajjoj[106] tomonidan Xuroson amiri qilib tayinlangach, Xurosonga kelib butun Xurosonni o'ziga bo'yundirdi va To'xoristonning[107] fath etilishi (ham) uning qo'lida tamomlandi. U sakson sakkizinchchi yili (12 dekabr' 706-10⁸ 30 noyabr' 707) Jayhun daryosidan o'tdi. Baykand aholisi bundan xabardor bo'lib, Baykandni juda mustahkam hisor bilan o'radiator. Qadimgi vaqtarda Baykandni shoriston deganlar va mustahkamligidan, uni "jez shahar" deb ham ataganlar. Qutayba juda qattiq janglar qildi; musulmonlar ellik kungacha (hisorni olish uchun) chora topolmay zahmat chekdilar va (oxiri) hiyla ishlatdilar. Bir guruh (askarlar) devor tagidan minora va hisorning ichkarisi tomon lahm qazib, oxtonadan chiqdilar, (so'ng) devorni kavlab rahna ochdilar; musulmonlar hanuz ham hisorga kelaolmayotgan edilar, (endi) rahna orqali ichkari kirdilar.

Qutayba: "Har kim shu rahnadan ichkari kirsa unga xuni bahosida (mukofot) beraman, agar u o'ldirilsa (mukofotni) uning farzandlariga beraman",¹⁰⁹deb qichqirdi. (Shundan keyin) har kim ichkari kirishga qiziqdidi va (niyoyat) Hisorni oldilar. Baykand aholisi omon tiladi. Qutayba sulk tuzib mol oldi va Varqo ibn Nasr Bohiliyni ularga amir qildi-da, o'zi Buxoroga qarab yurdi.

Qutayba Xunbunga[108] yetib kelganida unga: "Hisorning kishilar qo'zg'olon qilib amirni o'ldirdi",¹¹⁰degan xabarni yetkazdilar.

Qutayba lashkariga: "Boringlar, Baykandni talon-toroj qilinglar. Ularning qonlarini (to'kishni) va mollarini (olishni) halol qildim",¹¹¹deb buyruq berdi. (Qo'zg'olon) sababi shu edi; baykandlik bir kishining sohibjamol ikkita qizi bor edi; Varqo ibn Nasr ikkalasini ham o'ziga oldi, shunda u kishi: "Baykand katta shahar, nima uchun: sen butun shahardan faqat mening ikkita qizimni olasan?",¹¹²dedi. Varqo javob bermadi, u kishi sakrab turib Varqoning kindigiga pichoq urdi, lekin bundan bir ish chiqmadi - Varqo o'lmay qoldi. Bu xabar Qutaybaga yetgach, u qaytib Baykandga keldi va u yerda kimki urushga yaroqli bo'lsa hammasini o'ldirdi, qolganlarini asir qilib oldi, shunday qilib, Baykandda hech kim qolmadni va Baykand xarob bo'ldi, Baykand aholisi savdogarlar bo'lib, ko'plari Chin mamlakati viloyatlariga va boshqa joylarga savdo qilish uchun ketgan edilar, ular qaytib kelganlaridan keyii bolalari, xotinlari va o'z yaqin kishilarini talab qilib, arablardan sotib oldilar hamda Baykandni yana obod qildilar. Aytishlaricha, Baykanddan boshqa butkul vayron bo'lib bo'shab qolgan, so'ng yana o'z aholisi qo'li bilan tezda obod bo'lgan hech bir shahar yo'q.

Hikoyat. Rivoyat qilishlaricha, Qutayba Baykandni fath qilganida bir butxonada og'irligi to'rt yuz diram keladigan bitta kumush but topgan. U yana bir qancha kumush jomlar topib olgan va ularning hammasini jamlab torozida tortganida bir yuz ellik ming misqol chiqqan. U har biri kabutar tuxumidek keladigan ikkita marvarid ham topib olgan. Qutayba: "Bu qadar katta marvaridlarni qayerdan keltirdingiz?",¹¹³deb so'raganida: "Ikkita qush og'zida olib kelib mana shu butxonaga tashlagan", - deb javob berganlar. Keyin Qutayba bu qimmatbaho narsalarni yig'ib haligi ikkita marvarid bilan birgalikda Hajjoja yubordi va unga Baykandning fath etilganligi haqida xat yozib, u ikki dona marvarid qissasini ham qayd qilib o'tdi. Hajjoj una shunday javob yozdi: "Xatda aytganlaring menga ma'lum bo'ldi; u ikki dona katta marvarid donalaridan va ularni qushlar olib kelganligidan men juda ajablandim, ammo shunday qimmatli narsani qo'nga kirgizib, uni bizga yuborib ko'rsatgan saxovating undan ham ajoyibroq tuyuldi; xudo senga barakat bersin!"

Shundan keyin Baykand ko'p yillar xarob bo'lib qoldi. Qutayba Baykand ishidan forig' bo'lgach, Xunbunga qarab jo'nadi va ko'p janglar qilib Xunbunni, Torobni hamda ko'pgina mayda qishloqlarni oldi va Vardonaga ketdi. U yerda Vardonxudot nomli bir podshoh bor edi, u bilan ko'p urushdi va oxiri Vardonxudot o'lib, Qutayba ko'p qishloqlarni oldi.

Buxoro qishloqlaridan Torob[109], Xunbun va Romtin oralig'ida ko'p lashkar to'planib Qutaybani o'rab oldilar. So'g'd podshohi Tarxun ko'p lashkari bilan, Xunukxudot ko'p askari bilan, Vardonxudot o'z askari bilan keldilar; Xitoy podshohining jiyani malik Ko'rmag'onunni yollagan edilar u ham Qutaybaga qarshi jangda (So'g'd podshohiga) yordam berish uchun qirq ming lashkar bilan keldi. Lashkarlar jam bo'ldilar. Qutaybaning ishi og'irlashdi. Qutayba va uning yoronlari qurolsiz edilar. Qutayba: "Bundan buyon (askarlar) qurollarini o'zlaridan uzoqlashtirmasining, askarlarni (lashkargohdan) tarqatmasining",¹¹⁴deb buyruq berdi. Shu sababli qurol-yarog' qimmatlashib ketdi; masalan, bitta nayza ellik diram, bitta qalqon ellik yoki oltmish diram, bitta sovut yetti yuz diram bo'ldi.

Hayyon Nabatiy[110] Qutaybaga qarab: "Agar xudoysi taolo mening sababchiligidan bilan bu baloni sendan qaytarsa nima deysan?",¹¹⁵deb so'radi. Qutayba javob berib: "Men o'zim ham shuvday yo'l axtarmoqdaman", - dedi. Hayyon Nabatiy Qutaybaga "Menga ertagacha muhlat ber", - dedi. Ertasi tong otnanida Hayyon Nabatiy So'g'd malikining oldiga odam yuborib "Mening senga aytadigan bir nasihatim bor, biz ikkalamiz bir joyda uchrashishimiz kerak", - dedi. Tarxun: "Durust" qay vaqtida uchrashamiz?",¹¹⁶deb so'radi. Hayyon: "Lashkar urushga mashg'ul bo'lib, jang qizigan vaqtida", - dedi. Shunday qildilar. Urush qizigan paytda Hayyon Nabatiy Tarxun bilan uchrashib: "Mulk qo'lingdan ketipti-yu, sening xabaring yo'q", - dedi. Tarxun: "Qanday qilib?", - deb so'radi. Hayyon unga: "Biz (arablar) havo issiq vaqtadagina bu yerda tura olamiz, endi havo sovub qoldi va bizning va bizning vaqtimiz yetdi. Toki biz bu yerda ekanmiz bu turklar biz bilan urush qiladilar, bu yerdan ketganimizdan keyin esa sen bilan urush qiladilar, chunki So'g'd viloyati yaxshi joy, yaxshiliqda unga o'xshash joy dunyoda yo'q, qayqdagi ular So'g'dni senga qoldirib, Turkistonga ketadilar. Ular mamlakatingni oladilar, sen esa qiyinchilikda qolasan", - dedi. Tarxush "Men qanday chora qo'llayman?",¹¹⁷deb so'radi. Hayyon: "Chorang shuki, Qutayba bilan sulk tuzib biror narsa berasan, turklarga esa ahvolni shunday ko'rsatasanki, go'yo Hajjojdan biz (arablar)ga Kesh va Naxshab yo'lli bilan ko'p lashkar yordamga kelayotgan bo'ladi. O'zing esa: "Men o'z viloyatimga qaytib ketaman", - deysan; shunda turklar ham qaytadilar. Sen biz bilan sulk qilib shartnomasi

tuzganidan keyin biz senga yomonlik istamaymiz va seni ranjitmaymiz, sen u qiyinchilikdan qutulasan",- dedi. Tarxun: "Menga yaxshi maslahat berding, men shunday qilaman, shu kechayoq qaytaman",- dedi. Kechasi bo'lgach, Tarxun Qutayba oldiga odam yubordi, u bilan sulk tuzib mol va ikki ming diram yubordi. Uning lashkari karnay chalib qaytishga boshladi. Dehqonlar va amirlar: "Nima bo'ldi?"**Т**"deb so'radilar. Tarxun: "Zinhor hushyor bo'ling! Hajjoj Kesh va Naxshab tomonidan ko'p lashkar yuboripti, ular orqamizdan kelib, bizni o'rtaqa oladilar, men o'z viloyatimga qaytaman",- deb javob berdi. Ko'rmag'onun turk odam yuborib bu holdan xabar so'ragan edi, unga ham xabar qildilar, u ham karnay chaldirib qaytishga tushdi va (askarlari) yo'l-yo'lakay viloyatni talab keta berdilar. Xudoyi taolo u baloki musulmonlar boshidan daf qildi. Qutayba to'rt oydan beri u yoqda qolib ketib, shu muddat ichida Qutayba za uning yoronlari haqida Hajjoja biror xabar yetmagan va Hajjojning dili bu tomon bilan mashg'ul edi; masjidlarda qur'on o'qib, xatmlar qilar va duolar o'qir edilar. Qutayba va uning yoronlari yana Buxoroga bordilar; bu uning Buxoroga to'rtinchi marta kelishi edi. U jang qilar, mol olar, ayrim viloyatlarni talar, ba'zi kishilarni o'ldirar, ba'zilarni asir hamda qul qilib olib shu tarzda to Marvgacha borar va yana Buxoro viloyatiga qaytib kelar edi. Xudoyi taolo Buxoroni hamma ofat va balolardan saqlasin!

XX. Buxoroning Fath Etilishi Va U Yerda Islom Dinining Tarqalishi

Muhammad ibn Ja'farning aytishicha, Tag'shodaning onasi bo'l mish xotinning eri Buxorxudot o'lganida, uning o'g'li podshodzoda (Tag'shoda) kichik yoshli bo'lib, shu xotin podshohlik qilib turdi. Uning zikri Ubaydulloh ibn Ziyod va Sa'id ibn Usmon ibn Affon,- xudo ularning ikkalasidan rozi bo'lsin,- haqlarida so'zlanganda bayon qilindi. Islom lashkari har safar Buxoroga kelganida yozda g'azot qilar, qishda esa qaytib ketar edi. U xotin (Buxoroga arablardan) har kim kelsa u bilan ozgiva urush qilar, so'ngra sulh tuzar edi. Uning o'g'li kichik bo'lganidan qarindoshlarining har biri bu mamlakatni egallash tamaida edi. (Ilgari) Buxorxudot Buxoroni jang qilib olgan edi.

Buxoro aholisi har safar (islom lashkari kelganida) musulmon bo'lar, arablar qaytib ketganida esa ular yana dindan qaytar edilar. Qutayba ibn Muslim ularni uch marta musulmon qilgan, ular esa yana dindan qaytib kofir bo'lgan edilar. Bu to'rtinchi marta (kelganida) Qutayba jang qilib Buxoro shahrini oldi, ko'p qiyinchiliklardan keyin (bu yerda) islom dinini yuzaga chiqardi va har turli yo'llar bilan ularga qiyinchiliklar tug'dirib, dillariga musulmonchilikni o'rnatdirdi. Ular esa islom dinini yuzaki qabul etib, haqiqatda butparastlik qilar edilar. Qutayba arablar buxoroliklar bilan birga yashab ularnint xatti-harakatlaridan xabardor bo'lib tursalar, ular zaruratdan musulmon bo'ladi, degan maqsadda Buxoro aholisiga o'z uylarining yarmini arablarga berishga undab buyruq chiqarishni to'g'ri topdi va shu yo'l bilan u musulmonchilikni o'rnatdi hamda shariat hukmlarini bajarishga ularni majbur etdi. Qutayba masjidlar bino qildi, kofirlik va otashparastlik asarlarini yo'qotdi. U ko'p jiddu-jahd qilib, har kimdanki shariat hukmlarini bajarishda kamchilik sodir bo'lsa uni jazolar edi. U masjidi jome bino qildi va odamlarga juma namozini o'qishga buyruq berdi, toki xudoyi taolo bu yaxshi ish savobini Buxoro aholisi uchun oxirat zaxirasi qilsin!

XXI. Masjidi Jomening Bino Etilishi

Qutayba ibn Muslim to'qson to'rtinchi yili (7 oktabr' 712**Т**" 25 noyabr' 713) Buxoro hisorining ichida masjidi jome bino qildi. U joy (ilgari) butxona edi. Qutayba Buxoro aholisiga har juma kuni u yerga yig'ilishga buyurdi; chunonchi, u har juma kuni jarchi qo'yib: "Juma namoziga hozir bo'lgan har bir kishiga ikki diram beraman",- deb chaqirtirar edi. Buxoroliklar dastlab islom dnnini qabul etgan paytlarida arabchani o'rgana olmaganlaridan namozda qur'oni fors tilida o'qir edilar. Ruku'ga borish vaqtida ularning orqalarida bir kishi turib, "Bknitonkint".- deb sajda qilmochi bo'lganlarida: "Nkuniyonkuni",- deb qichqirar edi.

Muhammad ibn Ja'far o'z kitobida mana shunday deydi: "Buxoro masjidi-jomeini ko'rdim, unga suratlik eshiklar o'rnatilgan bo'lib, suratning yuzi taroshlangan va boshqa joylari o'z holicha qoldirilgan edi. *Men (buning sababini) o'z ustozimdan so'radim. U aytdi: "Men bu eshik va boshqalar (haqida) eshiklarni dastlab o'rnatgan va ko'p umr ko'rgan bir duradgor kishidan so'raganimda, u aytgan ediki, buxoroliklar til uchida musulmonlikka iqror bo'lib, yashirin ravishda butga cho'qinar edilar. Shahardan tashqarida yetti yuzta ko'shk bo'lib, ularda boyalar turar edilar va ular itoatsizroq bo'lganliklaridan masjidi jomega ko'p kishilar hozir bo'lmas edi, haligi ikki tangani olish uchun kambag'allargina borishga qiziqar, ammo boyalar esa qiziqmas edilar. Bir juma kuni musulmonlar ko'shklarning eshiklariga borib ularni juma namoziga chaqira berib zeriktirdilar, shunda boyalar ko'shk tomidan turib musulmonlarni tosh bilan urdilar, (ikki orada) urush bo'lib, musulmonlarning qo'llari baland keldi va ular boyalar qasrlarining eshiklarini ko'chirib (Buxoroga) keltirdilar. U eshiklarga har kim o'zi (cho'qinadigan) butning suratini ishlatgan edi. Masjidi jome kengaytirilgan vaqtida u eshiklarni masjidi jomega ishlatdilar va eshiklar xunuk bo'lib ketmasin uchun suratning yuzinigina qirib tashlab, boshqa joylarini o'z holicha qoldirib qurdilar". Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr bunday deydi: "Hozir o'sha eshiklardan bittasi saqlanib qolgan va tomlardan masjidi jome eshigiga tushib kelaberishingda Xuroson amirining saroyiga bormoqchi bo'lganiningda, birinchi eshikni qoldirsang, ikkinchisi o'sha eshiklardan (saqlanib) qolganidir. Unda hali ham taroshlanganlik asari ko'rinish turibdi.

Hisor ichida bo'lgan masjidi jomeni Qutayba bino qilgan, odamlar unda namoz o'qir edilar. Musulmonlik keng tarqalib, odamlarning islom diniga bo'lgan rag'batlari kundan-kunga ortaborgach, ular bu, masjidga sig'may qoldilar. (Bu hol) Fazl ibn Yahyo ibn Xolid Barmakiy davrigacha davom etdi. U Horun ar-Rashid zamonda Xuroson amiri bo'ldi. Buxoro xalqi yig'ildilar va ittifloqlashib bir yuz ellik to'rtinchi yili (24 dekabr' 770**Т**" 32 dekabr' 771) hisorning (oqava suvlarini tushadigan) hovuzini qazidilar hamda hisor va shoriston o'rtasida masjidi jome bino qildilar! Hisor masjidi jomesida juma namozini o'qir edilar.'

Masjidi jome eskirgach va hisor masjidi jomesi bekor qolib xiroj devoniga aylangach, katta masjidni qurishda hech kim Fazl ibn Yahyo ibn Xolid Barmakiy kabi ko'p sa'y-harakat ko'rgazgan emas u bu ishga ko'p mol xarj qilgan. Undan, keyin to marhum amir Ismoil Somoni davrigacha har kim bu masjidni kengaytirib bordi. Amir Ismoil ko'p uylar sotib oldi va masjidi jomeni uchdan ikki hissasicha kengaytirdi. Amazon oyida masjidlarga shamdonlar qo'yishni dastlab buyurgan kishi shu Fazl ibn Yahyo ibn Xolid Barmakiy edi.

Hikoyat. Aytishlaricha, Amiri sa'id Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil davrida, (bir yili) ramazon oyida juma kuni xalq masjidi jomega to'lib turgan vaqtida masjid birdan bosib qolib, ko'p kishilar u yerda Halok bo'lgan, butun shaharda ta'ziya o'tkazilgan. Masjid tagida qolganlarning ba'zilarini chiqarib olganlarida ular hali nafas olib turar, ammo bir oz vaqtadan keyin jon berar edilar; ba'zilarining qo'l va oyoqlari siigan edi. Shahar (aholisidan) ko'p kishilar halok bo'lganidan bu hodisadan keyin Buxoro shahari (qariyb) bo'shab qoldi. Shahar kishilari (masjidni qayta qurishga) yana jiddu-jahd ko'rsatdilar sultonning yaqin kishilaridan har biri bunga yordam berdi; marhum Abu... qozi bu ishni boshqarib turdi, niroyat masjidi jome bir yil ichida qurilib bitdi. Keyingi yili esa u yana buzilib ketdi; qibla (tomonining) har ikki yoni yiqilib tushdi. Lekin u yerda odamlar yo'q edilar. Besh yil muddatda

(masjidni) yana qaytadan tuzatdilar. Abu Abdulloh al-Jayhoniy uch yuz oltinchi yili (14 iyul' 918Б"2 iyul' 919) xolis o'z pulidan minora barpo etdi. U o'sha vaqtida sultonning vaziri edi. Bu masjidi jome hisorga payvast edi. Toki Ibrohim Tamg'ochxon hukmronligining oxirigacha (shunday turdi); u taxtga o'tirdi. Tamg'ochxonning Shamsulmulk Nasr ibn Ibrohim nomli boshqa bir o'g'li bor edi, u Buxoroni olishga qasd qildi. Sayfas Buxoro hisorini mustahkamladi. Shamsulmulk Buxoro hisori darvozasida turib jang qilar edi. Masjidi jomening minorasidan turib hisorga o'q otar edilar va bundan hisor ahli qiyinchilik tortar edi. Shamsulmulk buyrug'i bilan hisordan olov otdilar, minoraning tepasi yog'ochdan ishlangan edi u kuydi va yonib turgan yog'ochlar masjidi jomega tushib u ham kuydi. Malik Shamsulmulk hisorni olib Buxoro mamlakatini qo'lga kiritgach, masjidi jomeni yana tuzatishga buyurdi hamda uning buyrug'iga ko'ra hisor bilan masjidi jome o'tasiga xandaq qazidilar va minora tepasini pishiq g'ishtdan ishladilar. Yana Shamsulmulk maqsurani va ichkarisida maqsura o'rashgan saroyni hisordan uzoqroqqa qurishga buyurdi. Xojalar va boylardan har kim yordam berdi va niyoyat, bu imoratlar qurilib bitdi.

Masjidi jomening bu kuyishi to'rt yuz oltmishinchi yilda (11 noyabr' 1067Б"30 oktabr' 1068) voqe bo'ldi, to'rt yuz oltmish birinchi yili (31 oktabr' 1068Б"19 oktabr' 1069) esa u qayta tuzatildi.

Muhammad ibn Abu Bakr bunday deydi: "Ishonchli kishilardan eshitishimcha, Buxoroda mavjud bo'lgan bu maqsura, minbar va mehroblarni podshoh Shamsulmulk buyrug'i bilan Samarqandda yasab va naqshlab Buxoroga olib kelganlar". Bu masjid to Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon davrigacha shu sifatda bo'lib keldi, so'ng Arslonxonning farmoni bilan masjidi jomenni unga, masalan, Shamsulmulk vaqtida bo'lganidek, biror halal yetmasin deb hisordan uzoqroqqa qurdilar, Arslonxon shornstondan ko'p uylarni sotib olib, masjidi jomening hisorga yaqinroq qismlarini (o'sha uylar o'rniqa) qurishga buyurdi va hisor oldidagi minorani (ham) buzdirib olib, uni shoristonga o'rnattdi. Bu kabi g'oyat darajada go'zal va yaxshi minora hech bir joyda bo'l'magan. Minora (qurilishi) oxiriga yetib, uning tepasi o'rnatilgan va endi bitay deb qolgan ediki, ko'z tegdi va minora qulab masjidi jome ustiga tushdi va masjidning uchdan bir qismi bosib qoldi, naqshlangan va duradgorlar (hunari ishlatilgan) yog'ochlarning hammasi sindi. Arslonxon ikkinchi marta minora ko'tarishga buyurdi va endi, u mustahkam bo'lsin uchun, zo'r harakat qilib qurdilar, tepasini pishiq g'ishtdan ishladilar. Arslonxon bularning hammasini xolis o'z puliga qurdirdi. Arslonxon qurishga buyurgan u masjidi jome besh yuz o'n beshinchi yilda (22 mart 1121Б"11 mart 1122) (qurilgan) edi.

Butun masjid (tarkibi)da beshta miyon saroy bo'lib, ulardan shaharga yaqin turgan ikitiasi minorasi bilan Arslonxon tomonidan, u katta saroy va maqsura esa podshoh Shamsulmulk tomonidan bino qilingan. Bular o'tasida qadimdan qolgan ikkita miyon saroy bo'lib, ulardan hisor yaqinidagisi marhum amir Ismoil Somoniyan qolgan; amir Ismoil Somoniuni ikki yuz to'qsoninchi yili (5 dekabr' 902Б"23 noyabr' 903) qurgan. Xuroson amiri saroyi tomonidagi boshqa birini esa payg'ambarning, - unga xudo rahmat va salomini yo'llasin - hijrat voqeasidan keyin uch yuz qirqinchi yilda (9 iyul' 951Б"28 may 952) Amiri hamid Nuh ibn Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil Somoni bino qilgan.

XXII. Iyd Namozgohi

Qutayba ibn Muslim shahar ichkarisidagi hisorning ichida masjidi jome bino qilgan vaqtida, odamlar "Registon" deb ataganlari bo'sh maydonni iyd namozi o'qiladigan joy qildi va musulmonlarni iyd namozini o'qish uchun o'sha yerga chiqardi. U kishilarga (iyd namoziga chiqdanda) qurollarini ham olib chiqishga buyurdi, chunki islam dini hali yangi bo'lib, musulmonlar kofirlardan xotirjam emas edilar. (Bu odat) hozirda ham sunnat bo'lib qolgan, kimki qurol taqishga qodir bo'lsa u (iyd namoziga) qurolini o'zi bilan olib chiqadi. Bu (maydonga kiraverishdagi) darvozani "Darvozayi Saroyi ma'bad", "Ibodatxona saroyi darvozasi" deyidilar. Bu joy Buxoro amirining "ma'bad ul-xayl-i в Б""askarlar ibodatxonasi" bo'lgan ekan.

Bu namozgohda ko'p yillar davomida iyd namozini o'qib kelganlar. Bu joyga sig'ishmay qolganlaridai keyin Amiri sadid Mansur ibn Nuh ibn Nasr[111] Samtin (qishlog'i) yo'lidagi devor aylantirilgan yerlar va yaxshi bog'larni sotib olib, u yerga ko'p mol sarflab iyd namozgohi qildi, chiroqli minbar va mehrob ishlatdi hamda (iyd namozida) takbir aytvuchi (mukabbir)lar takbir o'qib kishilarga eshittirsinlar deb minorachalar qurdirdi. Namozgohdan Buxoro hisori darvozasigacha yarim farsang masofa bo'lib, iyd namozida bu yer odamlar bilan to'lar edi. Ko'p yillar iyd namozini shu joyda o'qidilar; bu uch yuz oltmishinchi yilda (4 noyabr' 970Б"23 oktabr' 971) barpo bo'lib, toki Arslonxon davrigacha namozgoh bo'lib turdi. Arslonxon odamlar qiynalmasinlar va biror dushman shaharga qasd qilganida aholi shaharda yo'q vaqtga to'g'ri kelib qolmasin deb, shaharga yaqin joyda namozgoh qilishga buyurdi. Darvozayi Ibrohimda podshohlarning bir bog'lari bor edi, uni Shamsobod der edilar, bu bog' buzilib ketgan bo'lib, u yerda ekin ekar edilar. Turk hoqoni Arslonxonning farmoni bilan u yerning hammasini tartibga solib, tevaragiga baland devor urdilar, pishiq g'ishtdan minbar va mehrob qurdilar, takbir ayrib turuvchilar uchun minorachalar tikladilar. Bu (ish) payg'ambarning, - xudo unga va xonardoniga rahmat va salomini yo'llasin - hijratidan (keyingi) besh yuz o'n uchinchi yilda (14 aprel' 1119Б"1 aprel' 1120) bo'lgan edi.

XXIII. Buxoro Shahrining Arab Va Ajam Urtasida Taqsimlanishi

Muhammad ibn Ja'far Xotim al-faqihdan keltirib rivoyat qilishicha, Qutayba to'rtinchi marta kelib Buxoroni olganida u (quyidagi) shartlarga binoan sulu tuzdi; buxoroliklar har yili ikki yuz ming diram xalifaga, o'n ming diram Xuroson amiriga, uylar va ekin yerlarining yarmini musulmonlarga beradigan bo'ldilar. Yana shahardan tashqarida turuvchi buxoroliklar arablarning otlari uchun beda, (o'zlar uchun) o'tin va (boshqa) zarur narsalarni berib turadigan bo'ldilar.

Shahar ichida ko'shklar bor edi; ba'zi mahallalar qishloq singari tarqoq va bir-biridan uzoq edi. Shahristonning yettita darvozasi bo'lib, birinchi darvozani "Darvozayi bozor", "Bozor darvozasi" der edilar; u vaqlarda bundan boshqa hech bir darvoza oldida shaharga yaqin bozor yo'q edi. Hozir biz uni "Darvozayi attoron", "Attorlar darvozasi" deymiz. Qutayba shahristonni taqsim qilib, uning Darvozayi attorondan kirib kelaberishingizdag joyidan hisor darvozasigacha va undan to Darvozayi Nungacha bo'lgan joylarini arablarning rabi'a va muzar (qabilalari)ga, qolganini yamanliklarga bo'lib berdi. Shaharga kiraberishingda chap qo'l tomonidagi birinchi ko'chani "Ko'y i rindon", "Beboklar ko'chasi" deb ataydilar: uning orqasida otashparastlar kalisiyo (ibodatxona)si bo'lgan. Hozir u yerda bir masjid bor uni "Masjidi Bann Hanzala", "Hanzala avlodining masjidi" depdilar.

Shahar darvozasidan kirganingda o'ng qo'lda bir ko'cha bor, uni Vazir ibn Ayyub ibn Hasson ko'chasi deb ataydilar. Bu ko'chani yana "Kox", "Qasr" ko'chasi ham deyidilar. Bu Vazir ibn Ayyub Qutaybaning lashkar boshliqlaridan biri bo'lib uning otasi Ayyub Buxoro amiri bo'lgan edi. Buxoroda islam dini o'rnatilgandan keyin Qutayba ibn Muslim tomonidan Buxoroga dastlab amir bo'lgan kishi ana shu Ayyub edi. Buxoro amirlari hamisha shu Kox ko'chasi turganlar. Bu yerda Buxoro amirlari uchun alohida bir saroy bo'lgan. Xina nomlik bir dehqon bor edi, u islam dinini qabul etgach Ahmad deb ataldi, ana shu Kox ko'chasingining hammasi uniki bo'lib, shu ko'chada bu dehqonning bir qasri bo'lgan. Buxoro amirlari hamisha shu qasrda turar edilar. U (dehqon

o'lqandan) keyin qasr o'z egasi qo'lidan chiqdi. Bir yuz elliginchi yili (6 fevral' 767B'T"25 yanvar' 768) u dehqonning Kadraysi Xina nomli merosxo'rлari, o'sha vaqtidagi xalifa Abu Ja'far Davonaqiy[112] oldida, u qasrn o'zlariniki deb da'vo qildilar va hujjat ko'rsatdilar. (Hujjatda ko'rsatilgan joyning) bir taraf shahristonning Jo'bayi baqqolonga yopishgan devori, ikkinchi taraf shahristonning "Pista shikanon"B'T""Pista chaquvchilar" bozoriga payvast devori, uchinchi taraf esa Nui darvozasidan chiqqaningda shahristonning o'ttasiga borguninggacha bo'lgan to'g'ri yo'l edi. (Xullasi) Attorlar darvozasidan to Nur darvozasigacha hammasi bir mahallani tashkil etgan shahristonning to'rtadan bir qismi ushbu hujjatda qayd qilingan edi. Buxoro shahri ichidagi mingta do'kon, Buxoro suvi va islam dini qabul etilgandan keyin vujudga kelgan Farovizi Ulyo suvi (yoqasidagi) yetmish beshta xos qishloqni ham xalifa oldida da'vo qildilar va hujjatlar ko'rsatdilar; guvohlar guvohlik berdilar; xalifaning buyrug'i bilan hukmnoma muhrlatib Buxoroga olib keldilar va (mazkur mulklarning) hammasini qaytarib oldilar. Bundan keyin ularning bolalari (u mulklarni) bo'lib-bo'lib har kimga sotdilar va oxiri (mulklar) odamlar qo'lida tarqalib ketdi. Attorlar darvozasidan o'tganingdai keyin Baniy Sa'd darvozasi va Baniy Sa'd masjidi keladi. Hasan ibn Aloyi So'g'diy katta (boy) kishi bo'lib, shoristonda uning g'oyat darajada oliy bir ko'shki bor edi; unday ko'shk hech bir podshohda bo'lgan emas, Bu kishi Alo ko'chasini Darvozayi Aloda barpo qildi hamda mana shu (hozirgi) ihota qilingan joyni ham u barpo etgan edi, bu ihotali yerdan unga har oyda bir ming ikki yuz dinorlik hosil unar edi. Shoriston ichida (ham) uning daromadli joylari bor edi. Hikoyat. Xuroson amiri bo'l mish Hasan ibn Tohir[113] davrida, uning Hafs ibn Hoshim nomli bir vaziri bor ekan. U (aytnb o'ilgan) mulklarni o'sha egalaridan sotib olishni tama qilibdi, ular sotmabdilar va shu sababdan vazir ularni zindonga qamab, ko'p qiyapti. Vazir har haftada bir marta ularni o'z huzuriga chaqirib, mulklariga xaridorlik qilar, ular sotmagach, zindonga qaytarib yana ko'proq azoblashga buyurar ekan. Ul besh yil shu tarzda o'tibdi va ular ko'p azob-uqubat tortsalar ham, baribir, mulklarini sotmabdilar. Bir kuni Hafs ibn Hoshim ularni chiqirib: "Sizlar uzoq vaqtlardan beri azobda qolib kelmoqdasiz, oxir bundan nima maqsadga erishasiz?"B'T" depti. Hasan ibn Ala: "Uch maqsaddan biriga (erishamiz): "Yo sen o'lasan, yo tepangdag'i amiring o'ladi, yoki biz o'lamiz", - depti. Hafs ularni yana ziidonga qamab ko'proq azob berishga buyuribdi. Shu gapdan keyii bir oy o'tmasdanoq Xuroson amiri o'libdi va (xalq) qo'z'olon ko'tarib zindonni buzibdi. Hafs ibn Hoshim esa qochipti va unilg' saroyini talaptilar. Hafs shu qochqinlikda yurbanicha o'lipti, Hasan ibn Alo esa o'z birodarlar bilan Buxoroga qaytib kelipti.

Baniy Sa'd darvozasidan o'tganingdan keyin Baniy Asad darvozasi keladi. Buni johiliyyat zamoniida "Muhra darvozasi" der edilar. Bu darvozadan chiqib quyiga tushganingda Xuroson amirining saroyi bor. Yana bir darvoza bor: uni "Kandiz darvozasi" deydilar, chunki u darvozadan chiqqaningda hisorga duch kelasan. Hozir u mahalla vayron bo'lib ketgan, u mahallani Fag'sodara deydilar. Hozir go'risonlar o'sha tomonda, Ilgari arablaripng uylari o'sha darvoza tomonda bo'lgan. U darvoza (Buxoro) darzozalarining mahkamrog'i bo'lib, uzunligi oltmis qadam miqdorida katta kamari bor, u kamar tagida ko'pgina uylar joylashgan. Bu imoratlarni Suboshtegin nomli bir amir qurban. Uning go'ri ham shu mavzeda. Yana boshqa bir darvozab'T""Dari Haqrab'B'T" Haqrab darvozasi"dir, Marhum Xoja imom Abu Hafs Kabir Buxoriy[114] o'sha mahallada turar edi; u kishi Buxorodan Bag'dodga borib marhum Imom Muhammad Husayn Shayboniyga[115] shogird bo'lgan. Bu (Buxoro) viloyatida unga teng biror kishi bo'lgan emas. U Buxoroning mutaaxxirlari[116] jumlasidan bo'lib ham zohid, ham olim edi. Buxoro o'sha kishi tufayli "Qubbat ul-islam"B'T""Islom dinining gumbazi" deb atalgan. Buxoro aholisining ilmlni bo'lishiga, Buxoroda ilm keng tarqalishi va imomlar, ulamolarning hurmatli bo'lishlariga u kishi sabab bo'lgan. Uning o'g'li Abu Abdullohning[117] (ham) ilmi shu darajada ediki, (hojilar) karvoni Hajdan qaytib kelayotganida ularning ulamolari Xoja imom Abu Hafs oldiga kelib undan masala so'rар edilar. Shunda Abu Hafs "O'zing-ku Iroqdan kelyapsan, nima uchui Iroq olimlaridan so'ramading?"B'T"deb so'rар, u olim esa: "Bu masalada Iroq olimlari bilan munozara qildim, ular javob bera olmadilar va menga Buxoroga borganingda bu masalani Xoja imom Abu Hafs Buxoriydan yoki uning farzandlaridan so'ra!"B'T"dedilar, deb javob berar edi. Ana shundan keyin Abu Hafs u masalaga to'g'ri javob berar ekan.

Xoja imom Abu Hafs har bir kecha-kunduzda Qur'oni ikki marta xatm qilar va shu bilan birga, odamlarga ilm o'rgatar edn. U keksayib zaiflashgach, Qur'oni bir marta xatm qiladigan bo'ldi. Yana ham zaiflashib qolgach, to dunyodan o'tguniga qadar, bir kecha-kunduzda quronning yarmini o'qiydigan bo'ldi. Xudo uni o'zining rahmat va rizosiga g'arq etsin!

Hikoyat. Rivoyat qilishlaricha, Yahyo ibn Nasr shunday degan: "Men Xoja Abu Hafsnинг huzurida bo'ldim, u ertalabki namozini o'qib bo'lib, qibлага qarab o'tirar va bir narsa o'qir edi; kun chiqgach, orqasiga qaragan zdi u ilm o'rgatadigan qavm (shogirdlar) hali kelmagan ekan; o'nidan turib to'rt rakaat namoz o'qidi va mana shu to'rt rakaat namozda Qur'onidan baqara, oli imron, niso' va moida suralarini qiroat qilib salom bergainda hali ham jamoa hozir bo'limgan edi, u yana o'nidan turib o'n ikki rakaat namoz o'qidi va qur'onidan sura al-ra'dgacha qiroat qildi".

Muhammad ibn Tolut Hamaloniy "Fasl il-xitob" (nomli kitob) dan rivoyat qilishlaricha, Buxoroda Muhammad Tolut ismli bir amir bo'lgan. Bir kun u o'z vaziri Xashuyaga: "Xoja imom Abu Hafsnинг ziyoratiga borib uning suhbatiga yetishaylik", - degan. Bu Xashuya Buxoro Sarkardalaridan bo'lib, obro'lik edi, u amirga: "Abu Hafsnинг oldiga borishing yahshi emas, sen uning yaqiniga borganingda salobatidan hech bir so'z aytolmay qolasan", - desa, amir: "Har nima bo'lsa ham boraman", --degan va vaziri bilai birga Xoja imom Abu Hafs oldiga borgan; u kishi masjidda namoz o'qish bilan mashg'ul ekan, peshin namozini tugatib salom berganidan keyin vazir kirib "Amir kelgan edi, uning kirishiga ruxsat bormi?"B'T" deb so'rasa; "Bor", - degan. Abu Hafs qibлага qarab o'tirgan ekan, amir kirib unga salom berib o'tiripti-yu, hech bir so'z ayta olmasti. Marhum Xoja: "Nima ish bilan kelding?"B'T"depti. Shunda amir gapirmoqchi bo'lib har qancha urinsa ham gapira olmabdi. Amir Xashuyani ko'rganida u amirdan: "Xoja Abu Hafs qanday ekan?"B'T" deb so'rasa, amir: "Sen aytgandek ekan, uning oldida hech gap gapira olmay hayronlikka tushib qoldim, necha marta halifa huzuriga borib u bilan so'zlashganman, xalifaning haybati meni so'zlashishdan to'xtata olmagan edi, bu yerda esa u kishining salobatidan so'z ayta olmay qoldim", - degan.

Zohid va olim kishi bo'lgan Muhammad ibn Salom Baykandiydan rivoyat qilishlaricha, u quyidagilarni aytgan emish: "Tushimda payg'ambarini - unga xudoning rahmat va salomi bo'lsin - Buxoroda Xarqon bozorida ko'rdim, - Xarqon bozori Mug'lar ko'chasining boshidan to Dehqonlar ko'chasigacha bo'lgan joy, uni qadim vaqtarda Xarqon bozori der edilar, - payg'ambarini ko'rdimki, u xabarda keltirilgan o'sha tuyaga mingan va boshiga oq kuloh kiygan edi, uning oldida ko'p xalq turishib payg'ambarining B'T"unga xudoning salomi bo'lsin - kelganligiga xursandchilik qilishar va payg'ambarini - unga xudoning rahmati bo'lsin - qayerga tushiramiz?"B'T"der edilar, shunda uni marhum Xoja imom Abu Havfsning uyiga tushirdilar. Men Xoja Abu Havfsni ko'rdim, u payg'ambarining, - unga xudoning rahmat va salomi bo'lsin - huzurida o'tirib kitob o'qir edi. Payg'ambar, - unga xudoning salomi bo'lsin, - uch kun uning uyida bo'ldilar. Abu Hafs kitob o'qir, payg'ambar, - unga xudoning salomi bo'lsin, tinglar edi, shu uch kun ichida payg'ambar unga hech e'tiroz bildirmadi va (o'qiganlarining) hammasini to'g'ri topti".

Marhum Xoja Abu Hafsnинг saroyi, kishilar u joyni qanchalik tuzatib turganliklariga qaramay, bu kungacha saqlanib qolgan emas,

lekin undan (ayrim) nishonalargina boqiydir, savmaa - ibodat qilinadigan joy ham u uyda o'z o'rniда turibdi va duo qabul bo'ladijan joydir. Uning vafoti ikki yuz o'n yettinchi yilda (832) edi. Qabri Darvozayi navda, duo qabul bo'ladijan joy deb mashhur. U tepalikni Xoja imom Abu Hafs tepaligi deyidilar. U yerda masjidlar va ibodatxonalar bo'lib, hamisha mujovirlar[118] kelib turadilar. Xalq uning go'ri tuprog'ini tabarruk deb biladi. U joyni "Xaqrah darvozasi" deyilishiga sabab shuki, odamlar o'sha yerda, marhum Xoja Abu Hafs huzuriga kelib fatvo olar edilar va bu fatvoni haq deb bilar edilar va shu jihatdan ular Haqrahnii "haq" deb ataganlar[119].

Yettinchi darvozani "Darvozayi nav"**"B'T"**"Yangi darvoza" deyidilar, shu ma'nidaki, u shoriston darvozalarining eng oxirgisidir. Bu darvozadan ichkari kirganingda o'ng qo'l tomonda, Xoja Abu Hafs saroyining yaqinida qurayshiy larning masjidi bor; uni "Qurayshiyar masjidi" deyilishiga sabab shuki, Muqotil ibn Sulaymon al-Qurayshiy shu yerda bo'lgan. Bu Muqotil Hayyonning ustozidir, Hayyon esa Talhat ibn Hubayrat ash-Shayboniyning ustozidir.

Hayyon ulug' va qadrli kishi bo'lgan. U Xurosonga borgan va kofirlar Qutaybani Buxoro darvozasi oldida qurshab olgan vaqtida Qutayba bilan So'g'd maliki Tarxun o'rtasida sulk tuzgan. Keyin ana shu Hayyon Farg'onada askar shaylagan va bu askar Qutaybani o'ldirgan[120]. Havzi Hayyon uning nomiga qo'yilgan.

Qutaybaning qabri Farg'onada mashhur bo'lib, u "Raboti Sarhang" degan joyda, Koh deb ataladigan bir qishloqda o'rnatilgan. Viloyatlardan odamlar ziyorat uchun hamisha u yerga borib turadilar. Qutayba shahid etilganida u ellik besh yoshda edi. Xudo undan rozi bo'lsin.

XXIV. Somoniylar Va Ularning Nasabi Haqida

Asad ibn Abdulloh al-Qushayriy Xurosون amiri qilib tayinlangach, Xo'rosonga keldi va bir yuz oltmish oltinchi yilda (15 avgust 782**B'T**"4 avgust 783)[121] dunyodan o'tgunicha o'sha yerda bo'ldi. Aytishlaricha, u yaxshi ishlarni qiluvchi va bahodir kishi bo'lib, ko'ngli arablar ham yerli xalqlarning qadim ulug' oilalariga g'amxo'rlik qilishga va aslzodalarni do'st tutishga moyil edi. Somoniylarning bobosi bo'lmlish Somonxudot Balxdan qochib Marvga, uning oldiga kelganida u Somonxudotni izzatladi va himoya qildi, uning dashmanlariga qahr qilib Balxni unga qaytarib berdi[122]. Somonxudot uning qo'lida (islom dinini) qabul etdi. Uning Somonxudot deyilishiga sabab shuki, u bir qishloq barpo qilib, unga Somon deb nom berdi va Buxoro amirini Buxorxudot deb ataganlaridek uni ham shu qishloq nomi bilan (Somonxudot deb) atadilar. Somonxudotdan bir o'g'il tug'ilganida u Asad Qushayriyini do'st tutganidan o'g'liga Asad ismini berdi. Shu Asad Amiri moziy, (ya'ni) marhum amir Ismoil Somoniyning bobosidir. Ismoil Asadning o'g'li, Asad Somonxudotning o'g'li, Somonxudot esa Bahrom Cho'bin malikning avlodlaridandir. O'sha vaqtan boshlab somoniylar davlati kundan-kunga rivoj topib, nihoyat yetgan martabasigacha yetdi.

Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, Muhammad ibn Ja'far o'z kitobida Muhammad ibn Solih al-Laysiy va Abu-l-Hasan Maydoniydan[123] keltirib mana shunday rivoyat qilgan: Asad ibn Abdulloh al-Qushayriy zamonida bir kishi chiqib Buxoro aholisini (islom diniga) da'vat qilgan. Buxoroliklar bundan oldinroq zimmiy bo'lib, jizya to'lab turar edilar[124]. (Haligi kishining da'vatiga) bir jamoa odamlar ijobat etib musulmon bo'ldilar. Buxoro podshohi Tag'shoda edi. U o'zi yashirin ravishda kofir bo'lganligi uchun bundan g'azablandi va Xurosون amiri Asad ibn Abdullohga (quyidagicha) xat yozdi: "Buxoroda bir kishi paydo bo'lib, viloyatni betinch qilyapti va bir guruhni bizga qarshi ko'tardi; u guruh biz musulmon bo'ldik deb yolg'on aytadilar, ular tillaridagina musulmon bo'lganlar, dillarida esa o'zlarining o'sha ilgarigi e'tiqodlari bilan mashg'ullar, Shu bahona bilan ular viloyat va mamlakatni betinch qilmoqdalar va xiroj to'lamayaptilar". Shu sababli Asad ibn Abdulloh o'zining soliq yig'uvchisi Sharik ibn Harisga xat yozib unga: "O'sha odamlarni qo'lga olib Buxoro podshohiga topshir, toki u nimani xohlasa shuni qilsin", - deb buyurdi. Aytishlaricha, u guruh masjidda bo'lib hammalari baland ovoz bilan "Ashhadu an lo iloha illollohu va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rasuluhu", - deyishar va "vo Muhammado", "vo Ahmad" deb faryod qilishar ekanlar. Tag'shoda Buxorxudot ularning kallasini olar va ularga shafqat qilishni so'rashga hech kim botina olmas edi. Nihoyat ularga yuz kishining boshini oldirdi va dorga ostirdi, qolganlarinn esa Asad ibn Abdulloh nomidan asir qilib, uning oldiga Xurosonga yubordi. Bu jamoadan hech biri islom dinidan qaytmadi; kimki (tirik) qolgan bo'lsa, u islom dinida qoldi, Asad ibn Abdulloh bu jamoani islom dinidan qaytarmadi va Tag'shoda Buxorxudot o'lganidan keyin u jamoa Buxoroga qaytib keldi. Yana xudo bilimdonroq.

XXV. Nasr (Ibn Sayyor Zikri)[125] Va Tag'shodaning O'ldirilishi

Mana shu bir yuz oltmish oltinchi yili (15 avgust 782**B'T**"4 avgust 783) Asad ibn Abdulloh o'ldi va Hishom ibn Abdulmalik ibn, Marvon[126] Xurosonga amir qilib Nasr ibn Sayyorni tayinladi va unga Xurosон idora qilish uchun farmon yubordi. U Mavarounnahrga kelib turklar bilan g'azot qildi va Farg'onani fath etib ularni tarqatib yubordi, o'zi esa Samarqandga qaytdi. U Samarqandga yetib kelganida, Tag'shoda Buxorxudot uning oldiga bordi. Nasr (ibn Sayyor) uning qizini o'ziga so'ratanligi boisidan uni izzat-hurmat qilar edi. Tag'shoda Yuqori Xunbundagi "Koraki alaviyon"**"B'T"**"Ali avlodining ekinzori" deb atalgan yerlarni unga bergen edi.

Tag'shoda Nasr ibn Saybrning oldiga kelganida u o'z saroyining darvozasida o'tirgan edi. Shu vaqt ramazon oyi bo'lib, kun botish payti edi. Nasr ibn Sayyor Buxorxudot bilan so'zlashib turgan edi, Buxorodan ikkita dehqon keldi. Ular ikkovi ham Buxorxudotning qarindoshlaridan va buzurgzodalardan bo'lib, Nasr ibn Sayyor qo'lida islom dinini qabul etgan edilar. Ular Nasr ibn Sayyor huzurida Buxorxudot zulmidan shikoyat qilib: "Buxorxudot bizning qishloqlarimizni tortib oldi", - dedilar. Buxoro amiri Vosil ibn Amir ham shu yerda edi, uning zulmidan ham shikoyat qilib: "Bular ikkovi bir-birini qo'llab odamlarning mulklarini tortib olmoqdalar", - dedilar. (Shu vaqt) Tag'shoda Nasr (ibn) Sayyorga sekin-sekin (bir narsani) so'zlar edi, ular bundan: "Tag'shoda Nasr ibn Sayyordan bizni o'ldirishni iltimos qilyapti", - deb gumon qildilar va ikkalasi (bir) qarorga kelib, bir-birlariga: "Buxorxudot bizni o'ldirmoqchi ekan, biz (undan oldinroq) o'z ko'nglimizni bir quvontiraylik", **"B'T"**"dedilar. Tag'shoda Nasr (ibn) Sayyorga: "Ey amir! Bular ikkalasi sening qo'lingda islom dinini qabul etgan edilar-ku, nima, uchun ular bellariga xanjar bog'laganlar?"**"B'T"**" degan edi, Nasr ibn Sayyor ulardan: "Nima uchun belingizga xanjar bog'lab oldingiz?"**"B'T"**"deb so'radi, ular: "Buxorxudot bilan bizning oramizda adovat bor, biz o'zimizni undan xotirjam deb hisoblamaymiz", deb javob berishdi. Nasr (ibn) Sayyor Horun ibn Siyovushga buyurib ularning bellaridan xanjarlarini yechtirdi va g'azab bilan qaradi. U ikki dehqon nariroq turib ularni o'ldirish chorasini ko'rdir. Nasr ibn Sayyor namoz o'qimoqqa turib takbir tushirdi va imomlikka o'tib namoz o'qishga boshladи. Buxorxudot esa namoz o'qimay kursida o'tirar, chunki u haligacha yashirin ravishda kofir edi.

Nasr ibn Sayyor namozdan forig' bo'lgach, sarpardaga kirdi va Tag'shodani chaqirdi. Tag'shoda saroy darvozasiga kelganida oyog'i toyilib yiqlidi, (shu payt) u ikki dehqonning biri yugurib keldi-da, Buxorxudotning qorniga pichoq urib, qornini yordi. Ikkinchisi dehqon esa xanuz namoz o'qishni davom ettrayotgan Vosilning oldiga borib unnnq qorniga xanjar urdi; Vosil uni ko'rgai

zahotyoq tezda qilich urib, u dehqonning kallasini uzib tashladi va ularning har ikkalasi ham bir vaqtida o'ldilar. Buxorxudotga xanjar urgan dehqonni Nasr (ibn) Sayyorning farmoni bilan o'ldirdilar. Buxorxudotni esa darhol saropardaga oldilar. Nasr (ibn) Sayyor uni o'zining o'rniqa suyantirib o'tirg'izdi va tajribali tabib chaqirib uni davolashga buyurdi. (Shunda) Buxorxudot vasiyat qilar edi, bir soat vaqt o'tgach, jon berdi, uning xizmatkorlari kirdilar va go'shtini ajratib (tashlab) suyagini Buxoroga olib keldilar. U o'ttiz ikki yil podshoh bo'lib turdi. Nasr (ibn) Sayyor Vosil ibn Amirga janzoa o'qib o'z saropardasiga ko'mdirdi. Bishr ibn Tag'shodani Buxorxudotlikka o'tirg'izdi va Xolid ibn Junaydni Buxory amirligiga tayinladi. Yana xudo bilimdonroq.

XXVI. Sharik Ibn Shayx Al-Mahriy[127]

U arablardan bo'lib Buxoroda yashagan va jangovar kishi bo'lган. U shiy'a mazhabidan edi. U odamlarni Amirul-mu'minin Alining, b'B" xudo undan rozi bo'lsin,- avlodidan (birini) xalifa qilishga chaqirar va: "Biz marvoniyalar[128] qiyognog'idan endigina qutuldik, abbosiylar[129] zulmiga tutilishimiz kerak emas, payg'ambarning xalifasi payg'ambar avlodidan bo'lishi kerak", - der edi. Unpng atrofiga ko'p xalq yig'ildi. Buxoro amiri Abduljabbor nbn Shuayb edi, u Sharikka bay'at qildi. Xorazm amiri Abdumalik ibn Harsama hamda Barzam[130] amiri Muhallad ibn Husaynlar ham unga bay'at qilib ittifoqlik bildirdilar va hammallari Sharikning chaqirig'ini oshkora qilishga va kimki ularga qarshi kelsa urush qilishga qaror berdilar. Bu xabar Abu Muslimga[131] borib yetdi, u Ziyod ibn Solihni o'n ming kishi bilan Buxoroga yubordi va unga: "Amuga yetganingda o'sha yerda to'xtab, ayg'oqchilaringni yubor, ular isyonkor Sharik ahvoldidan xabar bersinlar, Buxoroga ehtiyyotlik bilan yurgin", - deb ta'kidladi. Marhum Abu Muslimning o'zi Marvdan chiqib Omuy yo'li bilan bir manzil yurib Kashmizda[132] lashkargoh qurdi va har tomonidan lashkarini yig'ib Ziyod ibn Solihga: "Men shu yerda turaman, agar senga (yana) lashkar kerak bo'lib qolsa xabar ber, men yuboraman", b'B" dedi.

Ziyod Buxoroga (yaqin) kelib lashkargoh qurdi. Sharik iba Shayx (ham) ko'p sonli lashkar bilan Buxoro darvozasida lashkargoh qurdi; butun Buxoro aholisi Abu Muslimga qarshi urushish uchun Sharikka ittifoqlik bildirdilar. O'ttiz yetti kun davomida urushdilar, Shayx o'g'li g'alaba qozonmagan hech bir kun bo'lmadi, Ziyod ibn Solih lashkaridan esa har kuni ko'p kishilar o'lar va asir tushar edi. Nihoyat Hayyoni Nabatiyning ustozи Sulaymon Qurayshiy besh yuz askar bilan shahar darvozasiga bordi. Hamza Hamadoniy Buxoro shaharidan unga qarshi chiqdi. Sulaymon to'rt yuz kishini pistirmaga yashirib qo'yib, o'zi yuz kishi bilan Hamza Hamadoniya qarshi urushga yurdi. Hamza uning askari shu miqdordan ortiq emas degan gumon bilan yaqin kelib jang boshlagan edi, u to'rt yuz kishi pistirmadan chiqib Hamza askarlarining ko'pini halok qildilar, qolganlari shaharga qochishdi. Qutayba ibn Tag'shoda Buxorxudot o'n ming odam bilan kelib sipoh alomatini oshkora qildi[133] va Ziyod ibn Solih bilan birgalikda (Sharikka qarshi) jangga kirishdi. Uning buyrug'i bilan ko'shklarning darvozalarini ochdilar. Buxoro shahrining darvozasida yetti yuzta ko'shk bor edi, uning farmoni bilan ko'shkdagilar ham sipoh alomatini oshkoro qildilar. Bu ko'shklardagi kishilar shahardagilardan ko'ra ko'p edi. Lekin shaharda yerli xalq bilan birga arablar turar, ko'shklarda esa arablardan biror kishi ham yo'q edi. Buxorxudot qishloq xalqiga va ko'shklarda turuvchilarga Sharik lashkariga darvozalarni berkitishni, ularga oziq-ovqat va yem-xashak bermaslikni, oziq-ovqat va yem-xashakni Ziyod lashkargohiga olib borishni buyurdi.

(Shunday qilib) har yo'l bilan Sharik lashkariga qiyinchilik tug'dirdilar va Sharik lashkari tanglikda qoldi: o'zlar och qoldilar, otlari (ham) yem-xashaksiz qolib urushga yaramadi. Ular tadbir ko'rishib, bizga shahardan oziq-ovqat va yem-xashak yetkizishar, shahardan boshqa lashkarlar ham chiqib bizga qo'shilar degan umid bilan shahar darvozasiga yaqinroq borishga, orqa tomonni shahargayu yuzni dushmanqa qaratishga qaror qildilar. Lekin yo'lda Ziyod va Buxorxudotning lashkargohi bo'lganligi tufayli kunduzi yurishga imkoniyat topmay, kechasi yo'lga chiqdilar. Shahardan bir farsang uzoqlikdagi masofaga yetganlarida Ziyod bundan xabardor bo'lib qarshi chiqdi va ularning yo'llarini to'sdi. Iffi lashkar qattiq jang qildilar; Ziyod va Buxorxudot lashkari mag'lubiyatga uchradi. Buxorxudot (Ziyodga): "Yaxshisi shuki, biz dushman lashkarining orqa qismiga hujum qilaylik; agar biz ularning oldilariga o'tsak ular (lashkarning) biror joyiga hujum qilib (yorib) o'tadilar va bizning ishimiz og'irlashadi. Agar biz orqadan hujum qilsak, ularning oldimgi qismlari o'zini shaharga olgan bo'ladi-yu, (lekin) tezlik bilan qaytib jangga kirishishga (majbur bo'ladi), bu esa biz uchun qo'l keladi", - dedi. Ana shu maslahatni amalga oshirib, Ziyod va Buxorxudot lashkarları orqada qoldilar hamda (dushman lashkarining) ba'zi qismlari oldinga qarab jo'nagan paytda orqa qismlariga hujum qilib urush boshladilar; lashkarlar yo'l-yo'lakay jang qilib Navkandaga yaqinlab yetdilar. Buxorxudot Ziyod ibn Solihga: "Bu qavm ochiqib qolgan, ular bu yil uzum va qovun ko'rganlari yo'q, yeganlari ham yo'q, ular Navkandaga yetganlarida o'z hollariga qo'yaylik, toki ular uzum, qovunga ovora bo'lib qolsinlar va oldingi qismlari shaharga yetib olsin, ana shunda biz ularga hujum qilamiz", - dedi. Sharik lashkari Navkandaga yetgach uzum, qovun va (boshqa) meva qidirib tarqalib ketdi; uning oldingi qismi esa shaharga yetgan edi. Shu vaqt Buxorxudot va Ziyod ularga hujum qilib ko'p kishini o'ldirdilar, qolganlari qochib ketishdi. Shu asnoda u jamoani (o'z mazhabiga) da'vat qilayotgan Sharik ibn Shayx otidan yiqildi va o'ldirildi.

Ziyod ibn Solih hozirda "Masjidi Mag'ok" deb ataladigan Mox darvozasiga - anhor labiga kelib tushdi va shaharga o't qo'yishga buyurdi; shahar uch kecha-kunduz davomida yondi. Ziyod: "Har kim shahardan chiqsa unga omonlik beriladi", - deb jar chaqirtirdi; ular shahardan chiqsinlar deb lashkarni shahardan uzoqroqqa qo'ygan edi. Sharikning o'g'li va uning lashkar boshliqlaridan biri shu kechasi shahar darvozasiga kelgan edilar, har ikkalasini ham tutib Ziyodning oldiga olib bordilar va unint farmoni bilan ikkovini dorga osdilar. Shundan keyin shahar xalqi qo'rqib qolib bu chaqiriqqa tashqari chiqmadilar.

Uch kundan keyin Ziyod shahar darvozasiga kelib Buxorxudotning Registondagi hisor darvozasida bo'lgan ko'shkiga tushdi va lashkariga shahar darvozasiga borishga buyurdi. Yana urush boshlanib, jang qilishar va shunday takbir aytar edilarki, undan yer larzaga kelar edi. Jang qattiq bo'ldi. Tanilgan mashhur kishilardan bir qanchasi shahardan chiqdilar. Attorlar darvozasida urush bo'ldi va shahar aholisidan ko'p kishi o'ldirildi. Ziyodning buyrug'i bilan shahar aholisidan kimniki tutsalor shahar darvozasida dorga osa berdilar va nihoyat shaharni oldilar.

Buxoro ishidan xotirjam bo'lgach, Ziyod Samarqandga ketdi. U yerda ko'p urushlar qildi va yana Xuroson tomonga qaytib ketdi. Yana xudo bilimdonroq.

XXVII. Muqannaning Xuruji Va Uning Tobelari Oq Qiyimliqlar

Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, Muhammad ibn Ja'far bu faslni o'z kitobida keltirgan-u, lekin to'la bayon etgan emas. "Axbori Muqanna" (nomli kitob)ning muallifi Ibrohim va Muhammad ibn Jarir at-Tabariylarnipg aytishlaricha[134], Muqanna Marv atrofi aholisidan, Koza deb atalgan qishloqdan bo'lib, nomi Hoshim ibn Hakim edi. U ilgari kudunggarlik qilar edi, keyin esa ilm o'rganishga mashg'ul bo'ldi va har xil ilmlarni: ko'zbo'yamachilik, sehr va tilsim ilmlarini o'rgandi.

Ko'zbo'yamachilikni yaxshi bilib olib, payg'ambarlik da'vosini ham qildi va uni Mahdiy ibn Mansur[135] hijratning bir yuz

oltmish yettinchi yilda (5 avgust 783B'T"23 iyul' 784) o'ldirdi. Muqanna ko'zbo'yamachilikni o'rgangan va g'oyatda ziyrak bo'lib qadimgi (olimlar) ilmlariga oid ko'p kitoblarni o'qigan va jodugarlikda ustoz bo'lgan edi. Uning otasining nomi Hakim bo'lib, u Abu Ja'far Davonaqiy davridagi[136] Xuroson amiri lashkarboshilaridan biri edi, U Badxdan chiqqan edi.

Hoshim ibn Hakimni Muqanna deyishlariga sabab shu ediki, u juda xunuk, boshi kal va bir ko'zi ko'r bo'lganidan hamisha boshi va yuziga ko'k parda tutib yurar edi. Shu Muqanna Abbasiyalar da'vatchisi Abu Muslim zamonida Xuroson lashkarboshilaridan biri bo'lib, Abduljabbor Azdiya[137] vazir bo'ldi va payg'ambarlik da'vosini qildi va bir qancha vaqt shu da'voda turdi. Abu Ja'far Davonaqiy odam yuborib uni Marvdan Bag'dodga oldirib keldi va bir necha yil davomida zindonda tutdi. Shundan keyin u zindondan qutulib yana Marvg'a qaytib keldi va odamlarni yig'ib: "Mening kim ekanimni bilasizmi?"B'T"deb so'radi. Odamlar: "Sen Hoshim ibn Hakimsan", - dedilar. U: "Yanglishdingiz, men sizning va butun olamning xudosiman", - og'ziga tuproq.- va yana: "O'zimnn qanday nom bilan atashni istasam atayberaman", - dedi hamda; Men xalqqa o'zimni Odam (ato) suratida, keyin Nuh suratida, keyin Ibrohim suratida, keyin Muso suratida, so'ng Iso suratnda, keyin Muhammad mustafo,- xudo unga rahmat va salomini yo'llasib,T"suratida, keyin Abu Muslim suratida ko'rsatgan zotman, endi esa mana o'zingiz ko'rib turgan suratdaman", - dedi, Odamlar: "Boshqalar payg'ambarlik da'vosini qilgan edilar, sen esa xudolik da'vosini qilayapsan", - dedilar. Muqanna: "Ular nafsoniy edilar, men esa ruhoniymen va ularning (badanlari) ichida edim, menda shunday qudrat borki, o'zimni qanday suratda ko'rsatishni istasam shunday suratda ko'rsata beraman", - dedi.

Muqanna har bir viloyatga noma yozib, o'zining doiy (tashviqotchi) lariga berdi. Nomaga mana shularni yozdi: "Rahmli va mehribon tangri nomi bilan, sayyidlar sayyidi Hoshim ibn Hakimdan falonchi o'g'li falonchiga, hamd xudoga bo'lsin, undan boshqa xudo yo'q. U Odamniig ham, Nux, Ibrohim, Iso, Muso, Muhammad va Abu Muslimlarning ham xudosidir. So'ngra (so'z shuki), qudrat. egalik, izzat va hujjat Muqannanikidir; menga imon keltiring va bilingki, podshohlik menga xos,- unga la'natlar bo'lsin,- azizlik va xudolik meniki, mendan boshqa xudo yo'q,- og'ziga tuproq T"kimki menga imon keltirsa, jannat o'shaniki, kimki menga imon keltirmasa do'zax uniki".

U hali Marvda turgan vaqtidayoq har yerga doiyalarini yubordi va ko'p xalqni yo'ldan ozdirdi. Marvda arabladan Abdulloh ibn Amin nomli bir kishi bor edi, u Muqannaga imon keltirdi va qizini unga xotinlikka berdi. Ana shu Abdulloh Jayhundan o'tib Naxshab va Kesh[138] shaharlariga keldi va har yerda xalqni la'nat Muqanna diniga chaqirib, ko'p kishini yo'ldan ozdirdi. (Bundaylar) Kesh shaharida va uning qishloqlarida ko'proq edi. Dastlab Muqanna diniga kirgan va uning dinini yuzaga chiqargan qishloq Keshning Subax nomli qishlog'i bo'lib, qishloq aholisining ulug' kishisi Umar Subaxiy edi. Ular qo'z'olon ko'tardilar. Ularning amiri arablardan bo'lib, porso bir kishi edi, uni o'ldirdilar. So'g'dning ko'pchilik qishloqlari Muqanna diniga kirdi, Buxoro qishloqlaridan ko'p kishilar kofir bo'lib, kofirlikni oshkor qildilar. Niroyat bu fitna ulg'ayib ketdi va musulmonlar uchun qattiq balo bo'ldi; (muqannachilar) karvonlarni urib qishloqlarni talar va ko'p vayrongarchiliklar qilar edilar.

Muqannaning Movarounnahrga borish sababi bunday edi: Muqanna voqeasi xabari Xurosonga yoyilgach, Xuroson amiri bo'lgan Humayd ibn Qahtaba uni tutishga buyurdi. Muqanna esa o'z qishlog'idan qochib, berkinib yurar edi. Oxiri Muqannaga Movarounnahr viloyatida ko'p xalq uning diniga kirgani va shu dinnning tarqalgani ma'lum bo'ldi va u Jayhundan o'tishga qasd qildi. Xuroson amiri: "Jayhun daryosi labida uni soqchilar poylab tursinlar", - deb buyurgan edi; Muqanna Jayhun daryosidan o'tmoqchi bo'lsa uni tutib olish uchun yuzta otlis askar Jayhun qirg'og'ida yuqori va quyi tomon hamisha yurib turdilar. Muqanna o'ttiz olti kishi bilan Jayhun daryosi labiga kelib sol tayyorlab Jayhundan o'tdi va Kesh viloyatiga bordi. U viloyat Muqannaga bo'ysundi va xalq unga rag'bat qildi. (Shu viloyatdag'i) Som tog'i tepasida g'oyatda mustahkam bir hisor bo'lib, unda oqar suv, daraxtlar va ekin yerlar bor edi. Bu hisor (ichida) undan ham mustahkamroq yana bir hisor bor edi. Muqanna uni tuzatishga buyurdi va uni tuzatdilar. Muqanna u yerga ko'p mol va behisob oziq-ovqat yig'di. Soqchilar tayinladi. Oq kiyimliklar ko'payishib ketdilar va musulmonlar ularga qarshi tadbir qo'llashdan ojiz qoldilar. Bu ovoza Bag'dodga borib yetdi; o'sha vaqtida Mahdiy xalifa edi, u juda qayg'urib, Muqannaga qarshi kurashish uchun ko'p lashkar yubordi va oxiri bu fitnani daf qilish maqsadida o'zi ham Nishopurga keldi. Mahdiy islom dini xarob bo'lib Muqanna dini butun dunyoga tarqalishi xavfidan qo'rqrar edi.

Muqanna turklarni chaqirdi hamda musulmonlarning qoni va molini ular uchun halol qilib (hukm chiqardi). Turkistondan tllonchilik tamasida ko'p lashkar keldi. Ular viloyatlarni talar, musulmonlarning xotin va bolalarini asir qilib olar, o'ldirar edilar. Ular dastlab Buxoroda paydo bo'ldilar.

Muqannaning hammaslaklari bo'lgan oq kiyimliklardan bir guruhi Numijkat deb atalgan bir qishloqqa bordilar va kechasi masjidga kirib muazzzinni o'n besh kishi bilan birgalikda o'ldirdilar; butun qishloq aholisini ham o'ldirdilar. Bu voqeasidagi bir yilda (31 oktabr' 775B'T"18 oktabr' 776) sodir bo'ldi. (Bu vaqtda) Buxoro amiri Husayn ibn Maoz edi.

Muqanna toifasining kattalaridan buxorolik Hakim (ibn) Ahmad nomli bir kishi bo'lib, u bilan birga yana uchta lashkarboshi bor edi. Ulardan birining nomi Xashviy, ikkinchisini Bog'i bo'lib, bu ikkovi Fuzayl ko'shkidan edilar. Uchinchisining nomi - Girdak; u G'ijduvon qishlog'idan edi. Bularning har uchchalasi ham jangovar kishilar bo'lib ayyor, bosqinchi va o'g'ri edilar.

Ularning qishloq aholisini o'ldirganligi xabari shaharga yetgach, Buxoro aholisi jam bo'ldilar va amirning oldiga borib: "Bu oq kiyimliklar bilai albatta jang qilishimiz kerak", - dedilar. Bir yuz ellik to'qqizinchi yil rajab oyida (aprel'B'T"may 776) Husayn ibn Maoz o'z lashkari bilan va Buxoro qozisi Omir ibn Umar ibn Imron Buxoro aholisi bilan chiqib Narshax qishlog'iga bordilar, - hozir bu qishloqni Narjaq deydilar, B'T"va oq kiyimliklar qarshisida lashkargoh tuzdilar.

Shunda Buxoro qozisi: "Biz ularni haq dinga chaqiramiz, ular bilan urushish biz uchun munosib emas". - dedi. Keyin qozi yaxshi tadbirkor odamlar bilan birga ularni haq dinga chaqirish uchun qishloqqa kirdi. Oq kiyimliklar: "Biz bu siz aytayotgan narsalarni bilmaymiz", - deb kundan-kunga kofirliklarini kuchaytirdilar va nasihatni qabul qilmadilar. Shundan keyin jang boshlanib ketdi. Birinchi bo'lib oq kiyimliklarga hamla qilgan kishi arablardan Naim ibn Sahl nomli kishi edi. U ko'p urushlar qilib bir qancha kishini o'ldirdi va oxir o'zi ham o'ldirildi. Oq kiyimliklar yengildilar, ulardan yetti yuz kishi o'ldirildi va qolganlari qoqdilar. Shu bilan o'sha kun tamom bo'ldi.

Ertasiga tong otgach, oq kiyimliklar elchi yuborib musulmonlardan omon so'radilar va: "Biz musulmon bo'ldik", - dedilar.

Musulmonlar ular bilan suluhi tuzib, sulhnomaga yozdilar va ularga bundan buyon yo'lkesarlik qilmaslik, musulmonlarni o'ldirmsaslik, o'z qishloqlariga tarqalish, o'z amirlariga bo'ysunish shartlarini qo'yib xudo va payg'ambar ahdini ularga mahkam yukladilar.

Shaharning hamma kattalari sulhnomaga qo'l qo'ydilar.

Musulmonlar qaytib ketgach, ular ahndlardan qaytib yana yo'lkesarlik bilan mashg'ul bo'ldilar. Ular musulmonlarni o'ldirlrl va endigina bosh tortgan ko'k ekin (don)larni Narshax hisoriga olib ketar edilar. Musulmonlarning ishi qiyinlashdi. Xalifa Mahdiy o'z vaziri Jabrail ibn Yah'yoni Muqannaga qarshi urushga yubordi. U Buxoroga kelib Muqannaga qarshi jangga yurish uchun Darvozayi Samarqandda lashkargoh qurdi. Husayn ibn Maoz uning oldiga borib: "Sen (avval) oq kiyimliklarga qarshi urushda

menga yordam ber, bu ishdan bo'shagach, biz sen bilan birga Muqannaning (o'ziga) qarshi urushga boramiz", - dedi, Jabrail bu taklifni qabul etdi-da, lashkarini oyoqqa turg'izib Narshax qishlog'iga bordi, qishloq atrofiga handaq qazishga buyurib, handaq ichini lashkargoh qildi; oq kiyimliklar kechasi chiqib hujum qilib qolmasinlar deb lashkariga hushyor bo'lib turishga buyruq berdi. Xuddi u aytgandek bo'lib chiqdi; oq kiyimliklar dastlabki kechadayoq qishloqdan chiqib hujum qilib ko'p vayronlik keltirdilar. Buxoro amiri Husayn ibn Maoz Jabrailga ko'p mehribonlik ko'rsatib, undan to bu ish tamom bo'lgunicha Keshga ketmay Buxoroda bo'lshini so'radi.

Jabrail urushni boshlab yubordi. To't oy mobaynida ertayu kech uzlusiz urushdilar, oq kiyimliklar g'alaba qozonmagan bir kun ham bo'lindi. Musulmonlar chorasisiz qolib tadbir izlashga tushdilar. Molik ibn Forum: "Men bir tadbir ko'rsataman", - dedi-da, lashkargohdan to hisor devorigacha ariq kavlashga buyurdi va u yerga qurolli kishilarni yuborib qancha joy kavlasalar uni cho'p, qamish va tuproq bilan mustahkamlab berkitib borishga buyurdi. (Shu tarzda) hisor devori tagigacha qazib yetdilar va (hisor devori tagini) ellik gaz miqdorida kavlab ustunlar qo'yib mahkamladilar. Ellik gaz joy kavlanib bo'lgach, uni o'tin bilan to'lg'izib neft' sepdilar-da, ustunlar yonib qo'rg'on devori yiqlisin deb o't qo'yib yubordilar. Ammo olov yonmadi, chunki olov yonishi uchun unga shamol tegishi kerak. Hisor ichnda esa shamol o'tadigan yo'l yo'q edi. Hisorning tagi kavlangan minorasiga palaqmonlarni to'g'rilab qo'yib tosh otgan edilar, teshik ochilib shamol chiqishga yo'l topdi, olov olib ustunlar yondn va hisor devorining ellik gazcha joyi yiqlidi.

Musulmonlar qilichbozlikka kirishib ko'p kishini o'ldirdilar, qolganlar omonlik tilab, ilgarigi ahdnomaga muvofiq musulmonlarni ranjitmaslik, o'z qishloqlariga qaytib ketish, o'z ulug'larini xalifa oldiga yuborilishiga (rozi bo'lish) va o'zlar bilan, birga qurolyarog' olib yurmaslik shartlari bilan suluhtuzdilar va (qishloqdan) tashqari chiqib handakdan o'tdilar. (Ammo) ular yashirin suratda qurolga ega edilar. Oq kiyimliklarning kattasi bo'lgan Hakimni Jabrail o'z o'g'li Abbosga topshirib: "Buni olib borib saropardaga qo'y va yashirin ravishda o'ldir", - dedi. Uning amriga muvofiq ish qilib Hakimni saropardaga olib bordilar. Oq kiyimliklar uzoqdan (qarab) turgan edilar. Jabrail saropardaga borgan edi, oq kiyimliklar Hakimning do'sti bo'lgan Hashviyni yuborib u orqali Jabrailga: "Biz Hakimni olmasdan ketmaymiz", - dedilar. Hashviy yangi etik kiygan edi. U Jabrailga shu so'zlarni aytil turgan ediki, Jabrailning o'g'li Abbas kelib: "Hakimni o'ldirdim", - dedi. Jabrailning buyrug'i bilan darhol Hashviyni otdan tushirib o'ldirdilar. Oq kiyimliklar qichqirishib qurollarini qo'lga oldilar va jang boshlanib ketdi. Jabrail butun lashkarini otga minishga buyurdi. Ilgarigidan kuchliroq urush bo'ldi. Qattiq janglar qildilar va oxiri oq kiyimliklar yana yengilib, ulardan ko'p xalq o'ldirildi, tirik qolganlara qochdilar.

Narshax qishlog'ining hukmdori bir xotin kishi edi, uning erining nomi Sharaf bo'lib Abu Muslimning lashkarboshisi bo'lgan va marhum Abu Muslim uni o'ldirgan edi. Bu xotinni Jabrailning oldiga olib keldilar, u bilan amakisining bir ko'r o'g'li birga keldi, u bag'oyat palid va badkor edi. Jabrail u xotinga: "Abu Muslimning gunohidan kech!", - dedi. Xotin: "Abu Muslim deb musulmonlarning otasiga aytildi, mening erimni o'ldirgandan keyin u musulmonlarning otasi bo'ladimi?", - dedi. Jabrailning buyrug'i bilan xotinni belidan ikki bo'lib tashladilar va amakisining o'g'lini ham o'ldirdilar

(Hakimiing lashkar boshliqlaridan biri bo'lgan) Girdak Muqannaning oldiga ketdi. Ulardan biri - Bog'iy esa urushda o'ldirildi. Jabrail So'g'd oq kiyimliklarning dillariga qo'rqinch solish uchun o'ldirilgan (boshliq)lar kallasini So'g'dga olib bordi. So'g'd aholisiga Muqannaning lashkar boshliqlaridan So'g'diyon nomli bir kishi amir bo'lgan edi; So'g'd aholisi u bilan ittifoq bo'ldilar. Jabrail So'g'd aholisi bilan ko'p urushdi va oxiri Buxoro aholisidan bir kishi So'g'diyonni o'ldirdi va bu qavm tarqalib ketdi.

Jabrail u yerdan Samarqandga bordi va to Maoz ibn Muslim Xurosonga amir bo'lguniga qadar [139] turklar va oq kiyimliklar bilan ko'p urushlar qildi.

(Maoz ibn Muslim) bir yuz oltmish birinchi yilda (9 oktabr' 777-27 sentabr' 778) Marvga keldi va bu yerdan ish boshlab Omuy biyoboniga kirib ketdi. Buxoroga yetganida Buxoro aholisi (orasidagi) dehqonlar jangchi kishilarni yig'dilar; besh yuz yetmish ming kishi yig'ildi. Maoz ibn Muslimning farmoni bilan urush qurollarini ko'plab tayyorladilar; u hunarmandlarning lashkar ichida ish beradpgan har bir jinsidan uch ming ishchi kishini teshalar, bellari, to'qmoq va boltalar bilan ta'minlab muhayyo qilib qo'ydi; palaqmonlar, narvonlar va devor teshadigan qurollar ishlatdi va eng yaxshi qurollantirilgan lashkar bilan So'g'dga qarab yuzlandi. So'g'dda oq kiyimliklar ko'p edilar, turk lashkari ham ko'p kelgan edi. Hariyning [140] amiri Hariydan o'n mingta qo'y olib kelgan edi, o'zi bilan birga olib yurdi. Maoz ibn Muslim unga: "Dushmanimiz turklar bu yerda bizga yaqin joyda turiptilar, ular qo'yni juda yaxshi ko'radir, bu qo'yarni Buxoroda qoldir yoki menga sot, men ularni lashkarga taqsim qilib berayin!", - deda u rozi bo'lindi. Turk askarlaridan bir to'dasi chiqib hujum qildilar-da, hamma qo'yarni Arbinjon bilan Zarmon [141] o'rtasidagi bir manzilga olib ketdilar. Turklar ketidan lashkar borgan edi ularning ham ba'zilarini o'ldirdilar, ba'zilari esa mag'lubiyatga uchrab qaytib ketdilar.

Maoz ibn Muslim So'g'd va Samarqandga borib turklar hamda oq kiyimliklar bilan ikki yilgacha ko'p urushlar qildi, goh u va goh dushman g'alaba qozonar edi. Ikki yildan keyin u Xuroson amirligidan iste'fo berdi va Musayyab ibn Zuhayr al-Zabi Marvda bir yuz oltmish uchinchi yil jumod al-avval oyida (yanvar 780) Xurosonga amir bo'ldi va rajab oyida (mart 780-aprel 780) Buxoroga keldi. Shu vaqt Buxoro amiri Junayd ibn Xolid edi, uni Xuroson amiri Xorazmga yubordi.

Buxoroda Muqanna sarkardalaridan, bo'lgan Kulortegin nomli bir sarkarda bor edi, u lashkar va mulozimlar tuzib Musayyab bilan urushlar qildi.

Hikoyat: Muhammad ibn Ja'farning rivoyat qilishicha, Muqanna lashkaridan movaraunnahrliklar, turklar va boshqalardan iborat ellik minggi uming hisori darvozasiga yig'ilib, sajda va zoriy qilib undan diyordi ko'rsatishni so'radir. Hech bir javob ololmagach, yana so'rashda davom etib: "O'z egamizning diyordi ko'rmas ekanmiz, bu yerdan qaytib ketmaymiz", - dedilar. Muqannaning Hojib nomli bir quli bor edi, Muqanna unga: "Bandalarimga, - og'ziga tuproq, - ayt, Muso mendan diyordi ko'rsatishni so'radi, toqat qilolmasligi sababli ko'rsatmadim. Meni ko'rgan har bir kishi toqat qilolmay darhol o'ladi", - dedi. Ular yalinib-yolvorib yana so'rayberdilar va: "Biz diyordi istaymiz, agar o'sak, bu ayni muddao", - dedilar. Muqanna: "Falon kuni keling sizga diyordi ko'rsataman", - deb va'da berdi.

Shundan keyin Muqanna hisorda o'zi bilan turadigan xotinlarga buyurdi, ular So'g'd, Kesh va Naxshab dehqonlarining qizlaridan iborat bo'lib, yuzta xotin edilar. Muqannaning shunday odati bor edi: qayerda xushro'y xotin bo'lsa unga xabar berar edilar va Muqanna uni oldirib kelib o'zi bilan birga saqlar edn, Hisorda u bilan birga shu xotinlar va o'sha xos quldan boshqa hech kim bo'lmas edi. Hisordagilarning oziq-ovqat kabi ehtiyojlari bo'lsa, har kuni bir marta hisor darvozasi ochilar, tashqari tomonda esa bir vakil bo'lib, u kerakli narsalarii tayyorlar, haligi qul vakilni chaqirib u narsalarni hisor ichkarisiga olib kirkach, yana hisor darvozasini berkitar va to ikkinchi kungacha Muqannaning xunuk yuzini hech kim ko'rmas edi. Chunki u yuziga ko'k parda tutib yurar edi. Shunday qilib, u o'sha xotinlarning har biriga oyna olib hisorning tepasiga chiqib bir-birining ro'baro'sida turishga va

quyosh nuri yerga tushgan paytda barcha oynalarni qo'lga olib betafovut bir-biriga ro'baro' qilib tutishga buyurdi. Xalq to'plangan edi. Quyosh nuri oynalarga tushgach, uning aksi bilan o'sha joy nurga to'lib ketdi. Shu vaqt Muqanna quliga: "Ana qarang! Xudo o'z yuzini ko'rsatyapti deb bandalarimga ayt", - dedi. To'plangan xalq qarab, butun jahonning nurga to'lganini ko'rib qo'rqdilar va hammalari birdan sajda qilib: "Ey xudo! Qudrating va ulug'ligingni shunchalik ko'rganimiz yetadi, bundan ko'proq ko'rsak yuragimiz yoriladi", - dedilar. Ular hanuz sajdada ekanlar, Muqanna yana quliga: "Sajdadon boshlaringizni ko'taring! Xudo sizdan rozi va gunohlaringizni kechdi deb ummatlarimga ayt" B'B" dedi. U jamoa qo'rqqan va vahimaga to'lgan holda boshlarini sajdadan ko'tardilar. Shu vaqt Muqanna: "Hamma viloyatlarni sizlar uchun halol qildim. Kimki menga imon keltirmasa uning qoni, moli va farzandlari siz uchun halol", - og'ziga tuproq, - dedi. Shundan keyin u jamoa talonchilikka yuz o'girdi. Bu jamoa boshqalar oldida faxrlanib: "Biz xudoni ko'rdik", - der edi.

Muqannanining halok bo'lish sababi. Hirot amiri bo'lgan Sa'id ko'p lashkar bilan Muqanna hisorining darvozasiga kelib qo'ndi [142], uylar va hammomlar qurib yozin-qishin shu yerda bo'ldilar.

Hisorning ichida chashma, daraxtlar va ekinzorlar bor eda. Muqannanining xos kishilari va sponhi solorlar kuchli lashkar bilan hisor ichida edilar. Hisor ichkarisida, tog' tepasida yana boshqa bir hisor bo'lib, u hisorga hech kimga yo'l yo'q edi. Muqanna o'sha xotinlar bilan (shu) hisorda turar edi.

Uning odati shunday ediki, har kuni o'sha xotinlar bilan birga ovqatlaiar va ular bilan sharob majlisiga o'tirib sharob ichar edi. Shu tartibda u o'n to'rt yil hayot kechirdi. (Oxiri) Hirot amiri uning ishimini og'irlashtirib, lashkarlari tarqalib ketdi, hisorda bo'lgan sponhi solor esa hisor darvozasini ochdi va bo'y sunub tashqari chiqdi; islom dinini qabul etdi. Musulmonlar hisorni oldilar. Muqanna ichki hisorni saqlab qololmasligini tushundi.

Muhammad ibn Ja'farning Kesh dehqonlaridan bo'lgan Abu Ali Muhammad ibn Horundan rivoyat qilishicha, Abu Ali shunday degan; "Mening buvim Muqannanining o'zi uchun olib kelib hisorda saqlab turgan xotinlari jumlasidan bo'lgan ekan. U shunday hikoya qilar edi: "Bir kuni Muqanna xotinlarni o'z odati bo'yicha ovqat yeyishga va sharob ichishga o'tirg'izib, sharob ichiga zahar soldida, har bir xotin uchun bittadan xos qadah tutqizib aytdi: "Men o'z qadahimdagи sharobni ichganimda sizlar ham qadahlarining butunlay bo'shatishingiz lozim". Hamma xotinlar ichdilar, men esa ichmasdan sharobni ko'ylagim yoqasiga to'kdim, Muqanna buni payqamadi. Hamma xotinlar (hushsiz) yiqilib o'dildilar; men ham o'zimni ularning orasiga tashlab o'lganga solib yotdim. Muqanna mening holimdan bexabar edi. Keyin Muqanna o'rnidan turib qarab, hamma xotinlarning o'lib yotganini ko'rda-da, o'z qulining oldiga bordi va qilich bilan uning kallasini kesdi. Muqannanining farmoni bilan uch kundan beri tandir qizitayotgan edilar. Muqanna o'sha tandir oldiga borib kiyimini yechdi va o'zini tandirga otdi. Tandirdan bir tutun chiqdi. Men u tandir oldiga borib uning vujudidan hech asar ko'rmadim. Hisorda biror tirik kishi yo'q edi.

Uning o'zini o'zi kuydirishiga sabab shu ediki, u hamisha: "Qachon bandalarim menga bo'y sunmasalar men osmonga chiqib u yerdach farishtalarni olib kelaman va ularni bo'y sundiraman", - der edi. Xalq: "Muqanna farishtalarni olib kelib bizga osmonдан yordam berish uchun osmonga chiqib ketdi; uning dini dunyoda (abadiy) qoladi", - desin deb Muqanna o'zini o'zi kuydirdi. Keyii u xotin hisor darvozasini ochdi va Sa'id Harashiy kirib u yerdagi xazinani oldi".

Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr shunday deydi: "Bu qavmdaa Kesh va Naxshab viloyatida, Ko'ski Umar, Ko'ski Xishtivon va Zarmon qishlog'i kabi Buxoro qishloqlarida hozirda ham saqlanib kelmoqda. Ular o'zlarini Muqannanining kim ekanligidan butunlay xabarsiz bo'lsalar ham uning o'sha dinidalar. Ularning tutgan yo'llari shuki namoz o'qimaydilar, ro'za tutmaydilar va junub bo'lganlarida g'usil qilmaydilar, lekin omonatga xiyonat qilmaydilar. Bu odatlarining hammasini musulmonlardan yashirin tutadilar va musulmonlik da'vo qiladilar.

(Yana) aytadilarki ular: "Xotin xuddi gulga o'xshaydi, uni kim hidlasa ham (baribir) kamayib qolmaydi", - deb xotinlarini bir-birovlariga halol hisoblaydilar. Biror kishi biror xotinnnng oldiga xilvatga kirganida uy eshidiga belgi qoldiradi; u xotinning eri kelib qolgudek bo'lsa xotini uyda boshqa kishi bilan birga ekanligini bilib qaytib ketadi va u kishi xilvat ishidan forig' bo'lgandan keyingina o'z uyiga kiradi.

Har bir qishloqda ularning raislari bo'ladi va hammalari uning farmoniga bo'y sunadilar.

Hikoyat. Aytishlaricha, ularda har bir qishloqda bittadan '(tayinlab qo'yilgan) kishi bo'lib, shu qishloqda kimki qizga uy-lanmoqchi bo'lsa qizning bakoratini avval o'sha kishi ketkizadi, shundan keyingina qizni eriga topshiradilar. Ahmad ibn Muham-mad ibn Nasr shunday deydi: "Men qishloq keksalaridan shun-day ulug' ne'mal-ni u bir kishiga berib qo'yib boshqalar o'zlarinn undan mahrum qilishlarida qanday ma'nibor?", - deb so'raga-nimda keksalar: "Ularning odatlari shuki, balog'atga yetgan har bir yigit to bir xotinga uylangunicha o'sha odam bilan o'z ehtiyo-jini qondirib yuradi va buning evaziga u yigit o'z xotinining avvalgi kechasini o'sha odamga beradi. U odam keksayib qolGANI-da esa uning o'rniga boshqa birini tayinlaydilar. Bu qishloqning erkaklari hamisha o'sha odam bilan shu muomalani qiladi-lar. Shu ish bilan shug'ullanuvchi kishini "takona" deb ataydi-lar", - deb javob berdilar. Lekin men bu holning haqiqatidan voqif bo'lomadim. Bu hikoyani qishloqning keksalaridan va (mu-qannachilar) ning qishloqlarida yashovchi jamoatdan eshitdim. Xudojo, bizni bundan saqlagin!

XXVIII. Somoniylar Hukmdorligkning Boshlanishi [143]

Somonxudotning bir o'g'il ko'rganligi va Asad ibn Abdulloh Qushayriyni do'st tutganidan, o'g'liga Asad deb nom berganligi hyaqida yuqorida aytib o'tilgan edi. Asadning to'rt o'g'li bor edi: Nuh, Ahmad, Yahyo va Ilyos.

Rofe ibn Lays Horun ar-Rashidga qarshi xuruj qilib Samarcandni oiganida Horun ar-Rashid Harsama ibn A'yaini Rofe ibn Laysga qarshi urushga yubordi. Rofe Samarcandni hisor qildi va Harsama uni qo'lga olishdan ojiz qoldi. Bu hodisa sabab li Ma'mun Horun ar-Rashid bilan birga Xurosonga kelgan va Horunning dili shu ish bilan g'oyat darajada mashg'ul edi. Ma'mun Asadning o'g'illariga xat yozib, ularga Rofe bilan urushda Harsamaga yordam berishni buyurdi. Asad o'g'illarining da'vatiga ko'ra Rofe Harsama bilan sulh tuzdi va ular o'tasida quda-andalik vujudga kelib, Horun bu ishdan xotirjam bo'ldi. Rofening butkul Xurosonni olib qo'yish xavfi bor edi, (shuning uchun) bu sulhning tuzilishi Ma'mun uchun juda yoqib tushdi.

Horun mana shu safar vaqtida Tusda vafot etdi [144]. Ma'mun xalifalikka o'tirgach [145], G'asson ibn Ubbod Xurosonga amir bo'ldi. Ma'mun unga Asad ibn Somonxudotning o'g'illariga Xurosonning ayrim shaharları hukmronligini berishni buyurdi: G'asson ibn Ubbod ularning har biriga o'sha qilgan yaxshiliklari evaziga bittadan e'tiborli shaharni berdi: Nuh ibn Asadni Samarcandga, Ahmad, ibn Asadni Marvga amir qilib tayinladi. Bu (voqe) ikki yuz ikkinchi yilda (20 iyul' 817 B'B" 9 iyul' 818) bo'lgan edi.

G'asson Xuroson amirligidan bekor etilib [146] Tohir ibn Husayn Xuroson amiri bo'lganda [147] ham Tohir u viloyatlarni Asadning o'g'illari qo'lida qoldirdi va ularning eng kattasi bo'lgan Nuh ibn Asadga sarpo kiygizdi. Nuh ibn Asad to dunyodan o'tgunigacha Samarcandda bo'ldi va birodari Ahmad ibn Asadni (o'z o'rniga) xalifa qildi. Ahmad ibn Asad olim va porso bir kishi edi, u to vafot

etgungacha[148] Samarqandda bo'ldi va (vafoti vaqtida) o'g'li Nasr ibn Ahmad ibn Asadni o'z o'rniga xalifa qildi. U otasining o'rniga o'tirgach, ikki yuz elliq birinchi yili ramazon oyining boshida (29 sentabr' 865) shanba kuni uning nomiga xalifa Vosiq billohdan 7 Mavarounnahrning amirligi unga berilganligi to'g'risida farmon keldi.

XXIX. Amiri Moziy Abu Ibrohim Ismoil Ibn Ahmad As-Somoni Hukmronligining Boshlanishi

U somoniylar sulolasiga sultonlarining avvalgisi bo'lib, haqiqatan ham podshohlikka loyiq va haqli edi. U aqlli, adolatli, shafqatl, fikr va tadbir egasi bir kishi edi; hamisha xalifalarga itoat izhor qilar va ularga tobe bo'lismi zarur va lozim bilardi. U ikki yuz sakson yettinchi yili rabi al-oxir oyining (aprel', 900) o'rtasida shanba kuni Amr ibn Laysni Balxda asir etib[149] mamlakatga ega bo'ldi va sakkiz yil podshohlik qildi. Ikki yuz to'qson beshinchi yili (12 oktabr' 907БТ"29 sentabr' 908) Buxoroda xudoning rahmatiga yetishdi. Xudo uni rahmat qilib gunohlarini kechirsin.

Amiri moziy ikki yuz o'ttiz to'rtinchi yil shavvol oyida (aprel'БТ"may 849) Farg'onada tug'ildi, o'n to'rt yoshga yetganida otasi vafot etdi. Katta akasi amir Nasr uni juda ulug' tutar, u ham amir Nasrning xizmatini qilar edi.

Husayn ibn Tohir at-Tony ikki yuz oltmishinchchi yili rabi al-oxir oyida (yanvarБ"fevral' 874) Xorazmdan Buxoroga kelganida u bilan buxoroliklar o'rtasida urushlar bo'lib, besh kundan keyin u shaharni oldi, buxoroliklarni shahar va qishloqda turishdan man qildi va ko'p kishini o'ldirdi; xorazmliklarga bosqinchilik qilishga ruxsat berdi. Ular buxoroliklarning narsalarini musodara qilar, kechasi zo'rlik bilan uylariga bostirib kirishar, og'ir jnnoyatlardan qilib mol olar edilar. Buxoro aholisi Husayn ibn Tohirga qarshi urushga chiqdi, ko'p kishi o'ldirildi va shaharning uchdan bir qismi kuydi. Urushda shahar aholisining qo'li baland kelgach, Husayn ibn Tohir jarchi qo'yib aholiga omonlik e'lon qildi. Jam bo'lib urushga tayyor turgan xalq omonlik xabarini eshitib tarqaldi; ba'zilar qishloqqa ketdilar. Husayn ibn Tohir xalq tarqalib ketganini bilib qilichni ishga soldi va ko'p kishini o'ldirdi, Xalq yana (unga qarshi) qo'zg'oldi va Husayn ibn Tohir yengildi. Kun bo'yli urush qildilar, kech bo'lgach Husayn ko'shkning darvozasini mahkam berkitdi. Xalq uni ushlab olish uchun ko'shk darvozasini qo'riqlab turar edi. Husayn ibn Tohir Buxoro xirojini tamom olgan, uning hammasi g'idriifiy diram bo'lib saroy o'rtasiga to'kib qo'yilgan edi. Husayn ibn Tohir bu g'idriifiylarni kumushga almashdirib olmoqchi edi-yu, bunga vaqt topa olmadi va o'sha kechasi devorni teshib o'zning yaqin kishilarini bilan och va yalang'och holda qochib ketdi; u g'idriifiy diramlar (saroyda) qola berdi. Odamlar bundan xabardor bo'lib saroyga kirdilar va u pullarni taladilar. Ko'p kishilar o'sha moldan shunday boy bo'lib ketdilarki, boylik asari ullaarning avlodlariga ham qoldi. Shaharda: "Falonchi Husayn ibn Tohir saroyining boyi", - deyishar edi.

Shunday qilib, Husayn ibn Tohir qochdi, undan keyin ham Buxoro aholisi boshida boshqa har xil mojarolar va har kimlar bilan urushlar ko'p voqe bo'ldi. Buxoroning ahli ilm va yaxshi kishilarini marhum Xoja Abu Hafs Kabirning o'g'li Abu Abdulloh al-faqihning huzuriga yig'ildilar. U jasoratlari kishi edi. Buxoro ishlari bo'yicha u bilan maslahat qildilar. Xurosonda biror amir yo'q edi. Ya'qub ibn Lays[150] zo'rlik bilan Xurosonni olgan va Buxoroda Rofe ibn Harsama u bilan urushayotgan edi. Xurosonda ham notinchlik bo'lib, Buxoro bu to'polonlardan xarob bo'layotgan edi. Shunday qilib, Xoja Abu Hafsin o'g'li Abu Abdulloh Samarqandga Nasr ibn Ahmad ibn Asad as-Somoniya Б" Samarqand va Farg'onaning amiri edi - xat yozdi va undan Buxoroga amir yuborishini so'radi. Nasr ibn Ahmad o'z birodari Ismoil ibn Ahmadni Buxoroga yubordi. Amir Ismoil Karminaga yetgach, bir necha kun u yerda turib, Buxoroga, Buxoro amiri Husayn ibn Muhammad al-Xavorijiyga elchi yubordi. Uning elchisi bir necha marta borib-kelib turdi va oxiri amir Ismoil Buxoroga amir, Husayn ibn Muhammad al-Xavorijiyning esa unga xalifa bo'lismiga qaror qilindi. Husayn Xavorijiyning lashkari bu qarorga bo'yundi. Amir Ismoil Xavorijyni o'ziga xalifa tayin qilganligi haqida farmon bilan bayroq va sarpo yubordi. Xavorijyni shu bayroq va sarpo bilan Buxoro shahrida aylantirdilar. Buxoro aholisi shodlik ko'rsatdi. O'sha kuni seshanba kuni edi, juma kuni xutbani Nasr ibn Ahmad nomiga o'qidilar va Ya'qub ibn Lays nomini xutbadan tushirdilar. Bu voqeaa amir Ismoilning Buxoroga kirishidan oldin bo'lib, o'sha juma kuni ikki yuz oltmishinchchi yil muborak ramazon oyining birinchi jumasi (23 iyul' 874) edi. Abu Hafs Kabirning o'g'li, - xudo ularni rahmat qilsin, - uning istiqboliga chiqdi. Buxoroning arab va boshqalardan iborat ulug' odamlari u bilan birga Karminagacha bordilar. Abu Abdulloh buyrug'i bilan shaharni yasatdilar.

Amir Ismoil Buxoroga kelganidan pushaymon edi. Chunki uning lashkari oz, Buxoroda esa to'polon va g'avg'o ko'tarilgan edi; o'ziga nisbatan buxoroliklar dildan qanday munosabatda ekani unga ma'lum emas edi. Abu Abdulloh ibn Xoja Abu Hafs (istiqbol uchun Buxorodan) chiqib Karminaga kelgach, amir Ismoilning dili quvvat topdi; Abu Abdulloh har nima qilsa ham shahar aholisi uni qaytara olmasligini bilib, o'z qarorini qat'iy qildi. Abu Abdulloh unga ko'p madhlar aytib dilini quvvatlantirdi. Amir Ismoil Buxoroga olib kelgach, uni ulug'lab, hurmat ko'rsatdilar, shahar aholisi (Abu Abdullohning) buyrug'i bilan uning ustidan ko'p tilla va kumush sochdilar.

Amir Ismoil Husayn al-Xavorijyni tutib zindonga yubordi va xudoyi taolonning quratri bilan u g'avg'o tinchidi.

XXX. Amir Ismoilning Buxoroga Kirishi

(Bu voqeaa) ikki yuz oltmishinchchi yil muborak ramazon oyining o'n ikkinchisi (1 iyul', 874) dushmanba kunida sodir bo'ldi va shu sababli shahar tinchidi, Buxoro aholisi qiyinchilikdan qutulib rohatga yetishdi.

Shu yili Mavarounnahrning Jayhun daryosidan tortib to Mashriq shaharlarining eng yirog'igacha bo'lgan barcha yerlar hukmronligi amir Nasr ibn Ahmadga berilganligi haqida xalifa Muvaffaq billohdan farmon keltirdilar va Buxoroda xutbani amir Nasr ibn Ahmad va amir Ismoil nomiga o'qidilar. Ya'qub ibi Lays Safforning nomi xutbadan tushirildi. Amir Ismoil bir muddat Buxoroda turdi va undan keyin o'z birodarining o'g'li Abu Zakariyo Yahyo ibn Ahmad ibn Asadni Buxoroga o'z o'rniga xalifa qilib qoldirib, amir Nasrning buyrug'isiz Samarqandga bordi. Rabinjonga yetganida amir Nasr bundan xabar topib, uning ruxsatsiz kelishimi yoqtirmadi hamda kutib olishga buyruq bersa ham, o'zi istiqbolga chiqmadi va hech hurmat bildirmadi. Uning farmoni bo'yicha amir Ismoilni Samarqandning soqchiboshilik mansabini unga berdilar. Amir Nasr unga achchiq qilganicha yura berdi. Amir Ismoil uning oldiga salomga borib turdi, (vaholanki) u Buxoroga borishidan oldin bunday qilmas edi. Muhammad ibn Umarni unga xalifa qilib tayinladilar. Amir Ismoil salomga kelib bir qancha vaqt turar va yana qaytib ketar, amir Nasr esa unga hech bir- so'z so'zlamas edi. Shu ahvolda o'n uch oy o'tdi. Oxir u o'z amakisining o'g'li Nuhni va Abduljabbor ibn Hamzani o'rta ga qo'ydi, (amir Nasr) uni yana Buxoroga yuborib, Ismat ibn Muhammad al-Marvaziyni unga vazir, Fazl ibn Ahmad al-Marvaziyni esa dabir[151] qilib tayinladi. Endi amir Nasr Samarqandning barcha ulug'lari va e'tiborli kishilarini bilan birga uni kuzatishga chiqdi. Shu asnoda amir Nasr Abduljabbor ibn Hamzaga qarab: "Ye Abul-Fath! Bu go'dakni (Buxoroga) yuboryapmiz-u, lekin undan nima (yaxshilik) ko'rmoqchimiz?" Б" dedi. Abduljabbor: "Bunday dema, u sening qulinq, sen nima buyursang, shuni qiladi, hargiz sening xilofingga ish tutmaydi", - dedi. (Amir Nasr) bunga javoban: "Haqiqatan ham shu mening

aytayotganidek (bo'ladi)", - dedi. Abduljabbor: "Sen nimaga asosan bunday hukm chiqarding?" "B'T" deb so'ragan edi, Amir Nasr: "Men uning ko'zлari va shakl-shamoyilida xiloflik va isyon (alomatlarini) ko'raman", - deb javob berdi va (Samarqandga) qaytdi. Amir Ismoil Buxoroga yetgach, Buxoro aholisi uning istiqboliga chiqib zo'r izzat bilan shaharga olib kirdi.

(Shu vaqtarda) o'g'rilardan biri bir to'da xalqni o'z atrofiga to'plagan, qishloqning bebosh va bezorilaridan to'rt mingta odam jam bo'lgan edi. Ular hammasi Romtin bilan Barkad o'ttasida yo'lto'sarlik qilar va shaharga qasd qilishlari xavfi ham yaqin edi. Amir Ismoil o'zining soqchiboshisi Buxoro devorini qurgan va (hozirda) "Ko'yи Alo" B'T "Alo ko'chasi" uning nomi bilan ataladigan Husayn ibn Aloni u o'g'rilarga qarshi urushga yubordi. Buxoro aholisidan ulug'lar va sarkardalar unga yor bo'ldilar va borib urush qilib o'g'rilarni mag'lub etdilar. Husayn ibn Alo o'g'rilarni ustidan g'alaba qozonib, ularning boshlig'ini tutib o'ldirdi va uning boshini olib keldi unga yor bo'lgan bir guruh kishilarni ham tutib oldi. Amir Ismoil ularning (qo'llarini) bog'lab Samarqandga yubordi.

Bu ishdan forig' bo'lganlarida Husayn ibn Tohir yana Buxoroga qasd qilib ikki ming kishi bilan Omuyaga kelganlgi haqida xabar qildilar. Amir Ismoil eplay organicha lashkar jam qilib urushga jo'nadi. Husayn ibn Tohir ikki ming xorazmliklar bilan Jayxundan o'tdi degan xabarni yetkazdilar. Amir Ismoil otga minib unga qarshi chiqdi. Qattiq jang qildilar. Husayn ibn Tohir yengildi, uning lashkaridan ba'zisi o'ldirildi, ba'zisi suvga g'arq bo'ldi va yetmish kishi asir tushdi. Bu amir (Ismoil) qilgan urushlarning dastlabkisi edi. Ertalab bo'lgach, amir Ismoil asirlarni chaqirib har biriga bittadan karbos chopon berdi va qaytarib yubordi. Husayn ibn Tohir Marvga qarab ketdi va amir Ismoil Buxoroga qaytdi. Shunda o'z hukmdorligi ahvoli haqida o'ylab, o'zining Buxoro sarkardalari huzurida u qadar baland hurmati yo'qligini, ular ko'zida salobatsiz ekanligini, ularning jam bo'lislardan o'ziga biron manfaat yetmasligini bildi-da, mana shunday ish qilishni to'g'ri topdi: Buxoro sarkardalaridan bir guruhini chaqirib ularga: "Men uchun Samarqandga borib, amir Nasr huzurida mening nomimdan uzr so'rashingiz lozim", - dedi. Ular "Eshitamiz va bo'y sunamiz", - dedilar-da, bir necha kun ruxsat berishini so'radilar va undan keyin jo'nab ketdilar. U guruh amir Ismoildan ilgari Buxoro amirlari bo'lib kelgan edi. Abu Muhammad Buxorxudot o'zi Buxoro podshohi edi, Abu Hotam Yasori esa g'oyat darajada boy bo'lib, mol-mulkining ko'pligi sababli (amir Ismoilga) bo'y sunmas edi. Buxoro ulug'lari mana shu ikkalasi bilan birlgilikda Samarqandga bordilar. Amir Ismoil amir Nasrga xat yozib, o'zining Buxoro podshohligini ushlab tura olishi uchun u kishilarni tutib zindonga yuborishini so'rangan edi. Amir Nasr uning aytganidek qilib, u guruhni to Buxoro ishlari tinchigunicha bir qancha vaqt Samarqandda ushlab turdi. Amir Ismoil yana amir Nasrga xat yozib ularni talab qilib oldi va shundan keyin ular bnlan yaxshi muomalada bo'lib, hojatlarini ravo etdi va huquqlarini rioya qilishni o'ziga lozim bildi.

(Amir) Nasr ibn Ahmad amir Ismoilning gardaniga har yili Buxoro molidan besh yuz mnng diramini yuborib turishnn vazifa qilib yuklagan edi. (Lekin) shundan keyin amir Ismoil bir qancha urushlarda bo'ldi va u mol xarj bo'lib ketib, yubora olmadı. Amir Nasr yana odamlarini yuborib o'sha molni talab qildi, amir Ismoil yubormadi va shu sababdan oralarida noxushlik paydo bo'ldi. Amir Nasr lashkar yig'di va Farg'onaga, o'z birodari Abu-l-Ash'asga xat yozib, uni ko'p lashkar bilan kelishga va yana bir xatni Shoshga, boshqa birodari Abu Yusuf Ya'qub ibn Ahmadga yozib, uni ham o'z lashkari bilan kelishga va Isfijob[152] turklarini ham olib kelishga buyurdi. (Shunday qilib) ular ko'p lashkar yig'dilar va ikki yuz yetmish ikkinchi yili raja oyida (dekabr' 885 B'T "yanvar' 886) Buxoroga qarab yurdilar. Amir Ismoil bundan xabar topgach, o'z birodariga hurmat yuzasidan Buxoroni bo'shatib Farabga ketdi, Amir Nasr Buxoroga keldi va amir Ismoilni uchratmagach, Baykandga borib, shu yerga qo'ndi. Baykandliklar uni kutib olib, ustidan ko'p oltin-kumush sochdilar va ko'p tuhfalar chiqardilar. Amir Ismoil bilan o'sha vaqtida Xuroson amiri bo'lib turgan Rofe ibn Harsama o'ttasida do'stlik bor edi. Amir Ismoil unga xat yozib, yordam so'radi, Rofe o'z lashkari bilan kelib, Jayhun daryosi muzlagan edi, muz ustidan o'tdi. Amir Nasr Rofening kelganidan xabar topib, Buxoroga qaytdi. Amir Ismoil Rofe bilan borib Samarqandni olishga ittifoq tuzdi. Bu xabar amir Nasrga yetgach, u tezlik bilan Tavoisga borib, yo'lni to'sdi. Amir Ismoil va Rofe cho'l yo'l bilan ketdilar. Buxoroning hamma qishloqlari amir Nasrning tasarrufida edi. Ular cho'lida va naoziq-ovqat va na yem-xashak topa olmas edilar. U yil qahatchilik yili edi. Ularning ahvollari og'irlashdi. Ularning lashkarlari orasida bir man[153] non hatto uch diramga yetdi va Rofe lashkaridan ko'p kishilar ochlikdan halok bo'ldilar. Amir Nasr Samarqandga, o'z o'g'li Ahmadga xat yozib unga Samarqand So'g'didan jangchilar to'plashni buyurdi. Viloyat aholisi: "Bular isyonchilardir, ularga yordam berish halol bo'lmaydi", - deb amir Ismoilga yem-xashak bermadilar.

Amir Nasr Rofening kelganidan tangdil bo'lgan edi. U Karminaga ketdi. Amir Ismoil va Rofelar uning izidan borayotgan edilar, bir kishi Rofega nasihat qilib: "Sen o'z viloyatingni qo'yib bu yerga kelding, agar u ikki birodar bir-biri bilan kelishib turib seni o'rtaga olsalar sen nima qila olasan?" B'T dedi. Rofe bu gapdan qo'rqi va amir Nasr oldiga elchi yuborib: "Men urushish uchun kelganim yo'q, balki sizlarning orangizda sull qilish uchun keldim", - dedi. Amir Nasrga bu gap yoqib tushdi va Buxoro amiri biror boshqa kishi bo'lishi, amir Ismoil omili xirojlikka[154] tayinlanib devon daromadi[155] va xutba uning nomida bo'lmasligi hamda u har yili (amir Nasrga) besh yuz ming diram to'lab turishi lozimligi shartlari bilan sull tuzdilar. (Rofe) Nasr ibn Ahmadni chaqirdi va Ishoq ibn Ahmadni ham chaqirib unga sarpo kiygizdi-da, Buxoro amirligini unga topshirdi. Amir Ismoil bunga rozilik berdi. Amir Nasr (Samarqandga) qaytib ketdi va Rofe ham Xurosonga jo'nadi. Bu ikki yuz yetmish uchinchi yili (8 iyun' 886 B'T "27 may 887) bo'lgan edi. Shu voqeadan keyin o'n besh oy o'tgach, amir Nasr odam yuborib molni talab qildi; amir Ismoil molni ushlab qolib, yubor-tirmadi. Amir Nasr o'ttada kafil bo'lgan Rofega xat yozdi. Rofe ham amir Ismoilga shu mazmunda xat yozdi. Amir Ismoil bu xatga iltifot qilmadi. Amir Nasr ikkinchi marta hammasi movarounnahrliklardan bo'lgan lashkar to'pladi; Abu-l-Ash'as Farg'onadan keldi va yana qaytadan o'sha avvalgi tartibda Buxoroga qarab yurdilar. (Amir Nasr) Buxoro tomon yuzlanib Karminaga yetganida amir Ismoil ham o'z lashkarini yig'ib Tavoisga bordi. Ikki orada to'qinish bo'lib, qattiq jang bo'ldi. Ishoq ibn Ahmad yengilib, Farabga ketdi. Amir Ismoil farg'onaliklar ustiga qattiq hujum qilgan edi. Abu-l-Ash'as mag'lub bo'lib Samarqandga jo'nadi. U o'z birodarini qoldirib qochib kelgani uchun samarqandliklar uni tutib olmoqchi bo'lgan edilar, Abu-l-Ash'as Samarqanddan qaytib Rabinjonga keldi. Amir Ismoil Ahmad ibn Muso Marzuqni asir qilib olib Buxoroga yubordi. Buxoro lashkari ikkinchi marta yengildi. Amir Ismoil o'z joyida turgan edi. U bilan ozgina odam qolgan, mashhur kishilardan esa Siymoul-kabir u bilan birga edi. Amir Ismoil odam yuborib, qullardan va mavoliylardan qochganlarining hammasini yig'dirdi; Ishoq ibn Ahmadni Farabdan qaytarib oldirib keldi; Buxoro g'oziyalaridan ham ikki ming kishi chiqdi va qishloqlar lashkarlarini jam qildilar. (Amir Ismoil) ularning hammasiga oziq-ovqat berdi. Amir Nasr Rabinjonga borib lashkar anjomlarini tayyorlab qaytdi. Amir Ismoil uning oldiga - Vozbadin[156] qishlog'iga bordi va shu yerda jam bo'lislhib ikki yuz yetmish beshinchi yili seshanba kuni jumod al-oxir oyining o'n beshinchisida (25 oktabr' 888) urush boshladilar. Amir Ismoil Farg'ona lashkari ustidan g'alaba qozoidi. Abu-l-Ash'as yengilib qochdi; lashkar hammasi yengilib qochgan va amir Nasr ozgina odamlar bilan qolib u ham mag'lubiyatga uchragan edi.

Korazmliklardan bir to'dasi Nasrga yetib borib uni o'ldirmoqchi bo'ldilar, ammo Siymoul-kabir ham buni uzoqdan ko'rdi va korazmliklarga qichqirib, ularni amir Nasrdan uzoqlashtirdi, so'ng o'zi otdan tushib Nasrning uzangisini o'pdi. Ularning otasiising

quli bo'lgan sipohsolor Siymoul-kabir odam yuborib amir Ismoilga bu holdan xabar berdi. Nasr ibn Ahmad otdan tushdi va yostiqni yerga tashlab o'tirdi. Amir Ismoil yetib keldi-da, otdan o'zini tashlab, yaqin kelib yostiqni o'pdi hamda: "Yo amir! Xudoning hukmi shu ekanki, meni senga qarshi qo'ydi va biz shunday bir zo'r ishni o'z ko'zimiz bilan ko'rib turibmiz",- dedi. Amir Nasr: "Men bu qilgan ishlaringga ajablanaman, o'z amiringga bo'ysunmading va xudoyi taoloning senga bergan buyrug'ini bajarmading!"**B**"dedi. Amir Ismoil: "Ey amir! Men xato ish qilganimga iqorman, hamma gunoh menda, sen fazilatda (mendan) ulug'roqsan va mening bu katta gunohimdan o'tib afv etasan",- dedi.

Bular shunday so'zlashib turganlarida ularning boshqa birodari Ishoq ibn Ahmad yetib keldi. U otdan tushmay turgan edi, amir Ismoil: "Hoy falonchi! Uz xojang uchun otdan tushmaysanmi?"**B**" deb unga dashnom berdi va undan achchig'landi. Ishoq tezda otdan tushib o'zini Nasrning oyog'iga tashlab yer o'pdi va: "Mening otim hali Sovutilmagan toy, undan darrov tushib bo'lmaydi",- deb uzr so'rab so'zini tamom qilgan edi, amir Ismoil (Nasrga qarab): "Ey amir! Yaxshisi shuki, bu xabar (Samarqandga) yetib Movarounnahrdha xalq qayg'uga tushmasdan burun tezda o'zingning aziz qarorgohingga qaytsang edi",- dedi. Amir Nasr: "Ey Abu Ibrohim! Meni o'z joyimga yuboradigan sennmisan?"**B**"dedi. Amir Ismoil: "Shunday qilmasam nima qilay? Qul o'z xojasiga nisbatan uning murodi nima bo'lsa shuni bajarishdan boshqacha muomala qilolmaydi",- dedi. Amir Nasr so'zlar va uning ko'zidan yosh quyilar, o'tgan ishlar va to'kilgan qonlarga pushaymon yer edi. So'ng amir Nasr turib otga mindi, amir Ismoil va birodari Ishoq uzangilarni tutib turdilar va uni (Samarqandga) qaytarib yubordilar. "(Amir Ismoil) Siymoul-kabir za Abdulloh ibn Muslimni uni kuzatish uchun yubordi. Ular bir manzil birga borganlaridan keyin amir Nasr ularni qaytarib, o'zi Samarqandga ketdi. Amir Nasr ibn Ahmad shu asirlik kunida ham o'sha odamlar bilan, xuddi o'zi amir bo'lib taxtda o'tirgan va ular uning oldida xizmatda turgan kurnadagidek so'zlashar edi. Amir Nasr bu voqeadan to'rt yil keyin ikki yuz yetmish to'qqizinchchi yili jumod al-avval oyidan yetti kun qolganida (21 avgust 892) vafot etdi. U butun Movarounnahr yerlariga amir Ismoilni xalifa qilib tayinladi va boshqa birodarini hamda o'z o'g'lini uning farmoniga bo'ysundirdi.

Amir Nasr dunyodan o'tgach, amir Ismoil Buxorodan Samarqandga kelib davlat ishini rostladi va uning o'g'li Ahmad ibn Nasrni o'ziga xalifa qildi. U shu yerdan boshlab g'azot ishiga kirishdi. Amir Ismoil Buxoroga kelganidan to akasi o'lib butun Movarounnahrni unga topshirib vafot qilganiga qadar yigirma yil o'tdi. Amir Nasrning vafot etganligi xabari Amirul-mu'minin Mu'tazid[157] billohga yetgach, ikki yuz saksoninchi yili muharram oyida (martb **B**"aprel' 893) u amir Ismoilni Movarounnahrga amir qilib farmon berdi. Amir Ismoil shu tarnxda Taroz jangiga borib ko'p qiyinchilik ko'rdi va oxiri Taroz amiri (bo'ysunib) chiqib ko'p dehqonlar bilan birga islom dinini qabul etdi va Taroz fath etildi, (u yerdagi) katta ibodatxonani masjidi jome qildilar. Amirul mu'minin Mu'tazid billoh nomiga xutba o'qidilar. Amir Ismoil ko'p o'ljalar olib Buxoroga keldi. U to Amr (ibn) Lays kuchayib ketgunicha yetti yil podshohlik qildi va Movarounnahrning amiri bo'lib turdi.

(Amr ibn Lays kuchayib) Xurosonning ba'zi joylarini oldi va jangga kirishdi. Amirlik qilib turgan Ali ibn al-Husayn[158] Guzgoniyon amiri bo'l mish Ahmaddan[159] yordam so'ragan edi, yaxshi ja-vob ololmadi va Jayhundan o'tib Buxoroga - amir Ismoil oldi-ga keldi. Amir Ismoil xursand bo'lib sipohlari bilan uning is-tiqboliga chiqdi, e'zoz va ikrom bnlar uni Buxoroga olib kirib ko'p tuhfalar taqdim etdi, Ali ibn al-Husayn Farabga borib o'n uch oy u yerda. bo'lди. Amir Ismoil unga doimo hadyalar yuborib turdi va yaxshi munosabatda bo'lди. Ali ibn al-Husayn, to uni (o'z) o'g'li urushda o'dirgunicha, Farabda turdi.

Amr ibn Lays Balx amiri Abu Dovudga, Guzgoniyon amiri Ahmad ibn Farig'unga va Movarounnahr amiri amir Ismoilga xat yozib, ularni o'ziga bo'ysunishga chaqirdi va yaxshi va'dalar qildi. Ular farmonga bo'ysunib, unga xizmat qildilar. Amir Ismoil oldiga elchi kelib xatni unga berdi hamda Balx amiri va Guzgoniyon amirining bo'ysunganligidan xabar berib: "Bu bo'ysunishga sen loyiqroqsan, chunki sen kattaroqsan va podshohzodaliging tufayli podshohlik qadrini yaxshiroq bilasan",- dedi. Amir Ismoil: "Sening xojang shu qadar nodon ekanki, meni ular qatorida sanapti; (axir) ular mening qullarim-ku! Mening senga javobim - qilich; men bilan uning o'rtasida urushdan boshqa narsa yo'q, qaytib borib unga ayt, urush asbobini sozlasin!"**B**"deb javob berdi. Amr ibn Lays amirlar va ulug' kishilar bilan maslahat qilib amir Ismoil ishi borasida ulardan yordam so'radi va: "Boshqa bir kishini yuborib, unga yoqimli so'zlar aytish va yaxshi va'dalar qilish kerak",- dedi. Keyin u xat yozib Nishopur shayxlaridan va o'zining yaqin kishilaridan bir guruhini yubordi va xatida quyidagilarni aytди: "Garchi Amir ul-mu'minin bu viloyatni menga bergen bo'lsa ham men mulkdorlikda seni o'zimga sherik qildim. Sen do'st bo'lib, men bilan yaxshi munosabatda bo'lginki, hech bir badgo'y bizning oramizga kirishga yo'l topa olmasin, o'rtamizda do'stlik va birlik bo'lsin, bundan ilgari aytgan gaplarimiz go'stoxlik yuzasidan aytigan edi, biz u gapdan kechdik. Sen Movarounnahr viloyatini qo'ruqla, chunki u dushman chegarasidir; fuqaroga g'amxo'rlik qil! Biz u viloyatni senga berdik, xursandlik va xonu moningning obodonligidan boshqa narsani istamaymiz. U viloyat xarob bo'lmasin deb o'zim bormay, Nishopurning mashhur kishilaridan bir qanchasini (elchi qilib) yubordim: ular huzurida (ushbu xat mazmunini) qabul etib so'z berdim va shu aytigan so'zlarga ularni guvoh qildim, sendan boshqa hech kimga e'timodim yo'q, oramizda do'stlik mustahkam bo'lsin uchun sen ham menga ishonishing kerak".

Amr (ibn) Laysning (elchilar yuborganligi) xabari amir Ismoilga yetgach, u Jayhun labiga (odamlar) yubordi, ular elchilarni suvdan o'tishga qo'ymadilar, keltirgan narsalarini olmadilar va (Ismoilga) yetkizmadilar, (elchilarni) xo'rlab qaytardilar. Amir (ibn) Lays bundan g'azablanib urushga hozirlandi. Uzining sipohsolori Ali ibn Surushga lashkar bilan Omuyaga borib lashkarni o'sha yerda to'xtatishni va buyruq bo'limgunicha suvdan o'tishga shoshilmaslikni buyurdi. Uning ketidan boshqa sipohsolor - Muhammad ibn Laysni besh ming kishi bilan yuborib: "Ali ibn Surush va sen birgalikda ish ko'ringlar, lashkarni saqlanglar, u tarafdan kimki omon tilab kelsa omonlik bering va yaxshi munosabatda bo'ling va kemalar tayyorlab ayg'oqchilar yuboring!"**B**"dedi. Amr (ibn) Lays ketma-ket lashkar yuborib turdi.

Amir Ismoil bundan xabar topgach, yigirma ming kishi bilan tezda Buxorodan Jayhun daryosi labiga bordi va kechasi Jayhun suvidan o'tib dushmanga to'satdan hujum qildi. Ali ibn Surush bundan xabardor bo'lib, tezda otga mindi va lashkarga qurol berib, piyoda askarlarni oldinga yubordi. Urush boshlanib ketdi.

Amir Ismoilning lashkari har tomonдан hujum qilar edi. Jang qattiq bo'lди. Muhammad ibn Ali ibn Surush chekindi, uning o'zi va Nishopurning mashhur kishilaridan ko'plari asir tushdilar. Ikkinchini kuni amir Ismoil Amr (ibn) Laysning (asir tushgan) askarlariga oziq-ovqatlar berib xursand qildi va hammasini Amr (ibn) Lays huzuriga qaytarib yubordi. Shunda lashkarboshilar amir Ismoilga: "Bular bizga qarshi urush qilgan edilar, sen ularni asir olganingdan keyin hammalariga sarpo kiygizib qaytarib yubording!"**B**"dedilar. Amir Ismoil: "Bu bechoralardan nima talab qilasiz, - qo'ying ular o'z yurtiga borsiilar, ular endi hech qachon sizga qarshi urushga kelmaydilar va boshqalarning dillarini ham (urushdan) qaytaradilar",- dedi.

Amir Ismoil orqaga qaytdi va ko'p kumush, kiyim-kechak, tilla va qurol-yarog'lar (o'lia qilib) Buxoroga keldi.

Shundan keyin Amr (ibn) Lays xafalik, g'amginlik va pushaymonlikda bir yil Nishopurda bo'lди; u "Men Ali (ibn) Surush va uning o'g'li uchun qasos olaman",- der edi. Amir Ismoil Amr (ibn) Laysning urush tadorikini ko'rayotganligini eshitib, askarini yig'di,

ularga oziq-ovqat berib har tomondan dushmanga qarab yurdi; (yig'ilgan askarning) yaroqlisiga ham yaroqsiziga ham, tikuylchi-yamoqchilarga ham oziq-ovqat berdi. Bu ishdan xalq norozi bo'lib: "Amir Ismoil shu lashkar bilan Amr (ibn) Laysga qarshi urush qilmoqchimi?!"^B_T"der edi. Bu xabar Amr (ibn) Laysga yetib, u xursand bo'ldi. (Amir Ismoil) Jayhun labida edi, Mansur Qorategin va Pors Baykandiy Xorazmdan Omuyaga keldilar; Turkiston viloyati va Farg'onadan o'ttiz ming kishi yetib keldi. Yigirma beshinchu zu-l-q'a'dada (amir Ismoil) Muhammad ibn Horunni lashkarning bosh qismi bilan yubordi va ikkinchi kuni o'zi ham yo'lga chiqib, Jayhundan o'tdi va Omuyaga har joydan askar to'pladi. Buxorodan Xorazm shahriga ketdilar va ikkinchi dashanba kunigacha (urushga) hozirlanib bo'lib, u yerdan Balxga qarab yuzlandilar.

Amr (ibn) Lays shoriston hisorini oldi va sipohlari bilan shoriston oldiga kelib tushdi; lashkar keltirdi va (shahar) atrofiga handaq qazdirib, o'radi. Sipoh (shaharga) kirgunicha bir necha kun o'tdi, U shahar devorini mustahkam qildi va o'zini shahardan qaytib ketmoqchidek qilib ko'rsatib xalqni sevintirdi.

Amir Ismoil Ali ibn Ahmadni Foryobga[160] yuborib Amr (ibn) Laysning ish boshida turgan kishilarini o'ldirishga buyurdi, ular buyruqni bajarib, ko'p mol olib keldilar. Ismoil har tarafdan odamlar yuborar, ular Amr (ibn) Lays odamlarini o'ldirib, mol olib kellar edilar.

Amir Ismoil Balxning Aliobod (degan joyi)ga qelib tushib, uch kun o'sha yerda turdi. So'ngra u yerdan lashkarini ko'chirdi va o'zini namozgohga tushmoqchidek qilib ko'rsatib, unga boriladigan yo'lni kengaytirdi. Amr (ibn) Lays buni ko'rib o'sha tomon darvozalarini mahkam qildi va o'sha tarafga ko'p lashkar qo'ydi; palaqmon va devor teshadigan qurollarni o'sha tomonga to'g'rilatdi. U namozgoh yo'liga pistirma tayyorlatib, uni lashkar bilan band qildi. Tong otgach, Amiri moziy (Ismoil) yana yo'lni o'zgartirdi va boshqa yo'l bilan shahar darvozasiga qarab yurib "Puli Ato"^B_T" "Ato ko'prigi"ga kelib tushdi. Amr ibn Lays bu ishdan taajjubda qolib palaqmonlarni o'sha tomonga olishni lozim topdi. Amir Ismoil uch kun u yerdan turdi. Uning farmoni bilan shaharga suv yubormay qo'ydilar, devorni yiqitib, daraxtlarni kesdilar va yo'llarni tekisladir. Nihoyat, seshanba kuni ertalab amir Ismoil ozgina lashkar bilan otga minib shahar darvozasiga borgan edi. Amr ibn Lays darvozadan chiqib urush boshladı. Jang qattiq bo'ldi. Amr ibn Laysning lashkari yengilib qochdi. Amir Ismoilning lashkari ularning orqasidan izma-iz quvlab ba'zilarini o'ldirar va ba'zilarini asir bo'lar edi. Shunday qilib, Balxdan sakkiz farsang yiroqlikdagi bir joyga yetganlarida ikki xizmatchisi bilan birga Amr (ibn) Laysni ko'rdilar, xizmatchilarning biri qochdi, biri esa Amr ibn Laysga yopishdi. Shunday keyin Amr (ibn) Laysni tutib oldilar. Har kim: "Amr (ibn) Laysni men tutdim", der edi. Ammo ibn Laysning o'zi esa: "Meni mana bu o'z xizmatchim tutdi", - dedi. Amr (ibn) Lays o'sha xizmatchisiga, har biri yetmish ming diram qiymatga ega bo'lgan o'n besh dona marvarid bergen ekan, ularni o'sha xizmatchidan tortib oldilar. Amr (ibn) Lays chorshanba kuni jumod al-avval oyining o'ninchisida ikki yuz sakson sakkizinchi yili (2 may 901) asir olindi.

Amr (ibn) Laysni amir Ismoil oldiga olib kelganlarida, u piyoda bo'lib yurmoqchi edi, ammo Amiri moziy bunga ruxsat bermadi va: "Bugun sen bilan shunday muomalada bo'layki, odamlar taajjubda qolsinlar", - dedi va uni saropardaga olib kirishga buyurdi va o'z birodarini uni qo'riqlab turishga yubordi. To'rt kundan keyin Amr (ibn) Lays amir (Ismoil)ni ko'rdi.

Amir Ismoilning buyrug'y bilan undan qanday qilib asir tushib qolganligi haqida so'ragan edilar, u: "Chopib ketayotgan edim, otim charchab qoldi, otdan tushib uxladim, uyg'onanimda boshimda ikkita qul turganini ko'rdim, ulardan biri qamchin bilan burnimga turtdi". Men: "Bu qari kishidan nima istaysan", - dedim va meni halok qilmasliklarini o'tinib so'radim. Ular otlaridan tushib oyog'imni o'pdilar va zinhor (o'ldirmaymiz) dedilar. Ulardan biri meni otga mindirdi. Odamlar yig'ildilar va mendan: "Nimang bor?"^B_T"deb so'radilar. Men: "Har biri yetmish ming diram qiymatida bir nechta marvarid bor", - dedim va uzugimni berdim. Ular oyog'imdan etigimni yechib bir qancha qimmatbaho gavharlarni topib oldilar. (Shu payt) meni lashkar topdi va Muhammadshoh odamlarni mendan uzoqlatib turgan asnoda uzoqdan amir Ismoilni ko'rib otdan tushmoqchi bo'lgan edim, u o'z joni va boshi hurmatini o'rta qo'yib, "Otdan tushma!"^B_T"dedi; mening ko'nglim qaror topdi. U meni saropardaga tushirtirdi; Abu Yusuf men bilan birga chodirda o'tirib meni qo'riqlab turdi; suv so'ragan edim menga gulob berdilar va menga xilma-xil izzat-ikromlar ko'rsatdilar. Keyin amir Ismoil mening oldimga kirib mehribonlik ko'rsatdi va seni o'ldirmayman deb ahd qildi va meni kajavaga o'tqizib hurmat bilan shaharga yetkizishga buyurdi va kechasi Samarqand shahriga olib kirdilar, bundan Samarqand aholisidan hech kimning xabari bo'lmasdi. Amir Ismoil mening uzugimni uni tortib olib qo'ygan kishidan uch ming diramga sotib olib bahosini to'ladi va uzukni menga yubordi. Uzukning ko'zi qizil yoqut edi", - dedi.

(Yana) Amr (ibn) Lays: "Jang kuni menda qirq ming diram bor edi, uni urush vaqtida mendan tortib oldilar. Mei ellik farsang masofaga chopib bora oladigan va o'zim ko'p sinagan bnr ot ustida edim, o'sha kuni u shunday sust yurar ediki, mei uning ustidan tushishni istar edim. Oting oyoqlari ariqqa tushib ketdi, men otdan yiqildim va o'zimdan umid uzdim, haligi ikki kishi meni o'ldirishga qasd qilgan vaqtlarida o'zim bilan birga turgan kishiga: "Mening otimga minib qoch!"^B_T"dedim, u otga minib oldi, qarasam, ot xuddi bulutdek yugur edi. Men tushundimki, bu (hammasi) mening davlatim ketganligidan ekan. Ayb otda emas ekan, - dedi.

Amr (ibn) Lays amir Ismoilga qarab: "Men Balxda o'n xarvor oltin bekitganman, buyurgin, uni olib kelsinlar, ularga ega bo'lishga butun sen sazovorroqsan!"^B_T"dedi. Amir Ismoil odam yuborib oltinlarni oldirib keldi va hammasini Amr ibn Laysga yubordi, Har qancha iltimos qilsalar ham marhum amir Ismoil u oltinlardan hech bir narsa olmadi.

Amir ul-mu'minning Amr ibn Laysni o'ziga yuborilishini talab qilib yozgan xati Samarqandga yetib keldi; xatning boshlanishiga shunday yozilgan edi: "Abdulloh ibn al-imom Abu-l-Abbos al-Mu'tazid billoh Amirul mu'minindan, Amir ul mu'mininning g'ulomi Abu Ibrohim Ismoil ibn Ahmadga". Bu xat amir Ismoilga yetgach, u Amr (ibn) Laysga achinib g'amgin bo'ldi, ammo xalifa farmonini qaytara olmadi. Nihoyat uning buyrug'i bilan Amr (ibn) Laysni kajavaga o'tqizib Buxoroga olib ketdilar. Amir Ismoil uyaganidan yuzini unga ko'rsatmadi va: "Biron hojating bo'lsa so'ra", - deb odam yubordi. Amr (ibn) Lays: "Mening bolalarimni yaxshi kutsinlar hamda bu meni olib ketayotgan kishilarga nasihat qilgin toki ular menga nisbatan yaxshi muomalada bo'lsinlar", - deb javob qaytardi. Amir Ismoil shunday qildi va uni kajavaga o'tirg'izib Bag'dodga yubordi. Amr (ibn) Lays Bag'dodga yetgach, xalifa uni Sofiy xodimga topshirdi va u Mu'tazid xalifaligining oxirigacha shu Sofiy xodim qo'lida asirlikda turdi hamda ikki yil zindonda bo'lgandan keyin, ikki yuz sakson to'qqizinchi yilda (16 dekabr' 901^B_T"4 dekabr' 902) o'ldirildi.

Amir Ismoil Amr (ibn) Laysni xalifaning oldiga yuborgandan keyin xalifa amir Ismoilni Xuroson amiri qilib farmon yubordi - Hulvon dovonidan boshlab Xuroson viloyati, Mavarounnahr, Turkiston, Sind, Hind va Gurgonlar hammasi uniki bo'ldi. U har bir shaharga bittadan amir tayin qildi, adolat va yaxshi axloq bilan ish tutdi, kimki fuqaroga zulm qilsa unga jazo berdi. U zohid bo'la turib shunday siyosatlari ediki, somoniylar sulolasidan hech kim undan siyosatliroq bo'lmagan. U davlat ishida hech beparvolik qilmas, hamisha xalifaga bo'ysunar va umrida hech mahal xalifaga itoatsizlik qilmay, uning farmonini mahkam tutar edi.

Amir Ismoil bemor bo'lib bir qancha vaqt yordi. Uning kasalligi ko'proq rutubatdan edi. Tabiblar: "Jo'yi muliyonning havosi

xushroq", - dedilar. Uni o'zining xos mulkidan bo'lgan Zarmon qishlog'iga olib bordilar: "Bu yerning havosi unga muvofiqroq keladi", - dedilar. Amir bu qishloqni yaxshi ko'rар va ov qilish uchun hamma vaqt o'sha yerga borar edi; u yerga bog' qurban edi. Bir muddat u yerda bemor yotib, oxiri ikki yuz to'qson beshinchchi yili safar oyining o'n beshinchisida (25 noyabr' 907) xuddi shu bog'da katta bir daraxt tagida vafot etdi. U yigirma yil Xuroson amiri bo'ldi. Hukmdorlik muddati o'ttiz yil edi. Xudoyi taolo uni rahmat qilsin, negaki uning davrida Buxoro poytaxt bo'ldi, somoniylar sulolasidan chiqqan hamma amirlar Buxoroda turadigan bo'ldilar. Undan oldingi Xuroson amirlarining hech biri Buxoroda turgan emas. U Buxoroda turishni o'zi uchun muborak deb hisoblar, uning ko'ngli Buxorodan boshqa hech bir yerda orom topmas va u qayerda bo'lmasin: "Bizning shahar, ya'ni Buxoro, ana bunday, ana shunday", - der edi.

Amir Ismoil vafot etgandan keyin o'rniga o'g'li o'tirdi. Unga "Amiri moziy" - "Dunyodan o'tgan amir" degan laqabni berdilar.

XXXI. Amiri Shahid Ahmad Ibn Ismoil As-Somoniyning Hukmdorligi[161]

U Xuroson amiri bo'ldi. Uni Amiri shahid deydilar. U o'z otasining yo'lidan yurib adolat ko'rsatar va barcha fuqaroga butunlay insof yuzasidan qarar edi. Fuqaro rohat va osyoishtalikda yashadilar. Amiri shahid u yer (Buxoro)dan Xurosonga borib o'z mamlakatini ko'zdan kechirdi va Seistonni oldi. Amiri moziy davrida Seiston uning nomida edi. U yerdan Buxoroga keldi. U ov qilishni yaxshi ko'rardи. U ov qilish uchun Jayhun labiga borib saroparda qurban edi (bir kuni) ovdan qaytib (saropardaga) kelganida bir chopar Tabariston amiri Abu-l-Abbosdan xat olib keldi. Amiri shahid xatni o'qidi; xatda: "Husayn ibn Alo xuruj qilib Gurgon va Tabariston viloyatlarining ko'p yerlarini oldi, mening zarurat yuzasidan qochishim kerak bo'lib qoldi", - deb yozilgan edi. Bundan amir diltang bo'lib juda g'amginlikka tushdi va: "Ey xudo! Agar bu podshohlik mendan ketadigan bo'lsa, mening ajalimi ber!" - deb duo qildida, saropardaga kirdi.

Amiri shahidning shunday odati bor edi; uning bir sheri bo'lib, har kecha amir yotadigan uy eshigiga o'sha sherni zanjir bilan bog'lab qo'yar edilar, kim u uyga kirmoqchi bo'lsa, sher uni halok qilar edi. O'sha kecha amir g'amgin bo'lganidan uning hamma xos kishilari ham u bilan mashg'ul bo'lib, sherni olib kelishni unutib qo'ydilar. Amir uqlab yotganida uning qullaridan bir to'dasi kirib boshini oldilar. (Bu voqeа) hijratdan uch yuz birinchi yil jumod al-oxir oyining o'n birinchisida (12 yanvar' 914) payshanba kuni (bo'lgan edi). Uni Buxoroga olib kelib Navkanda qabristoniga qo'ydilar va unga "Amiri shahid" deb laqab berdilar. "Bu ishni Abu-l-Hasan boshqargan," - deb unga tuhmat qildilar va uni Buxoroga olib kelib dorga osdilar. Amirga suiqasd qilgan qullardan ba'zilarini topib o'ldirdilar, ba'zilari Turkistonga qochdi.

Uning podshohlik muddati olti yilu to'rt oy va besh kun bo'ldi.

XXXII. Amiri Sa'id Abu-L Hasan Nasr Ibn Ahmad Ibn Ismoil As-Somoni Hukmdorligi[162]

Amiri shahidni dafn etib bo'lqach, uning o'g'li Nasrga "Sa'id" - "Saodatlik" laqabini berdilar. U sakkiz yoshda ekanligida otasining o'rniga podshoh qildilar. Unga vazirlik (ishi) ni Abu Abdullohamid ibn Ahmad al-Jayhoniy oldi, Hamaviya ibn Ali sipohi solor bo'ldi. Uni "Butun Xuroson egasi" deb atar edilar.

Dastlab Amiri sa'id bo'sh ish olib borganligidan har yerda fitna paydo bo'ldi, uning otasining amakisi Ishoq ibn Ahmad Samarqandda o'ziga bay'at qilishni talab etdi va Samarqand aholisi unga bo'ysundilar. Uning o'g'li Abu Solih Mansur ibn Ishoq Nnishopurda isyon ko'tarib, Xuroson shaharlaridan ba'zisini oldi. Samarqandda Ishoq ibn Ahmad hukmdorligi kuchaydi va Amiri sa'id o'z sipohsolori Hamaviya ibn Alini unga qarshi urushga yubordi. Ishoq mag'lubiyatga uchrab, lashkari Samarqandga qaytib kirdi. Ishoq ikkinchi marta urushga rostlandi va Samarqand aholisi u bilan birga shahardan tashqariga chiqib, Hamaviyaga qarshi urushdilar va mag'lub bo'ldilar. Ishoq ibn Ahmad uchinchi marta urushga chiqqan edi bu gal u asir tushdi. Uning o'g'li Mansur ibn Ishoq Nnishopurda edi, u o'ldi; butun Xuroson va Movarounnahr faqat Amiri sa'idga o'tdi; Fors, Kerman, Tabariston, Gurgon va Iroqda uning nomiga xutba o'qidilar.

Hikoyat. Amiri sa'id o'n uchinchi yili[163] Buxoroga o'zining yaqin kishilaridan biri Abu-l-Abbos Ahmad ibn Yahyo ibn Asad as-Somoni nomli kishini xalifa qilib qoldirib, o'zi Buxorodan Nishopurga ketdi.

O'sha yili "Gardun kashon" mahallasiga o't tushdi. O't shundan zo'raydiki, Samarqanddagi odamlar bu olovni ko'rib turdilar.

Buxoroliklar: "Bu olov osmondan keldi", - der edilar. O'tni o'chirish mumkin bo'lmay bu mahalla butunlay kuydi.

Shu orada Amiri sa'idning boshqa birodalarli xuruj qildilar va ko'p fitnalar qo'zg'otdilar. Oxiri fitnaning asoschism bo'lgan Abu Zakariyo, hech narsani qo'lga kirgiza olmay, ozgina odam bilan Xurosonga ketdi. Amiri sa'idning boshqa birodalarli omonlik tiladilar. Amiri sa'id ularga omonlik berib, oldiga chaqirib oldi va shu bilan fitna tinchidi.

Hikoyat. Yana Amiri sa'id Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil davrida uch yuz yigirma beshinchchi yil rajab oyida (may-iyul' 937) Buxoroga o't tushib hamma bozorlar kuydi. O't bir halimpazning do'konidan boshlangan. U do'kon Samarqand darvozasnda bo'lib, halimpaz halim qozoni tagidagp kulni tomga olib chiqib, tomda chuqurlik bor ekan, uni to'lg'izmoqchi bo'lgan, kul orasida bir bo'lak cho'g' bor ekan, halimpaz uni sezmagan va shamol cho'g'ni olib borib qamishdan yasalgan bir uyga urg'an. U uyni o't olib, undan hamma bozorlarga o't ketgan va Samarqaid darvoza mahallasi butkul kuygan. Olov osmonda bulutdek suzib yurgan. "Ko'yi bikor" -

"Qizlar ko'chasi", bozorning timchalari, Madrasayi Forjak, kovushdo'zlar timi, sarroflar va bazzozlar bozori, (xullasi) Buxoroning ana shu tomonida to anhor labiga borguncha nimaiki bo'lsa hammasi kuygan. Bir parcha oloz sachrab Masjidi Moxni o't oldi va u (ham) tomonan yonib ketdi. Olov ikki kecha-kunduz yonib, buxoroliklar uni o'chirishdan ojiz qoldilar, ko'p mashaqqat chekdilar va nihoyat. uchinchi kuni o'chirdilar. U yog'ochlar tuproq tagida bir oygacha kuyib turdi. Buxoroliklarga yuz ming diramdan ortiq ziyan yetdi. Shundan keyin Buxoro imoratlarini hech qachon u (ilgarigisidek) qilib qura olmadilar.

Amir sa'id o'ttiz bir yil podshohlik qildi. U adolatli podshoh bo'lib, otasidan ham aqilroq edi. Unnng yaxshi sifatlari ko'p; agar hammasini aytsak gap uzayib ketadi.

U dunyodan o'tgach, o'g'li Nuh ibn Nasr podshohlik (taxtiga) o'tirdi.

XXXIII. Amiri Hamid Abu Muhammad Iuh Ibn Nasr Ibn Ahmad Ibn Ismoil As-Somoni[164]

Amiri hamid uch yuz o'ttiz birinchi yili sha'bon oyining avvalida (10 aprel 943) podshohlik taxtiga o'tirdi va Abu Zar unga vazir bo'ldi. U Buxoro qozisi edi. Uning zamonida fiqh ilmini undan ko'ra biladiganroq kishi bo'lman. "Muxtasari Kofiy" uning asaridir.[165]

Amiri sa'id vafot etgach, (podshohlikni talab etuvchilardan) har bir kishi bir joyda qaror topti. Amiri hamid Buxorodan chiqib Nishopurga ketdi. Abu Ali Isfahokiy[166] Nishopur amiri edi. Amiri hamid (lashkar) yuborib uni qo'lga oldirdi; o'ziga qarshi kishilarni tarqatib yuborib viloyatlarni tozaladi; Nishopurni Ibrohim Simjurga berdi[167]. Abu Ali Isfahoni o'zicha: "Men uning

podshohligini barqaror qildim, u esa viloyatni boshqa kishiga berdi", "deb o'yadi va Abu Ishoq Ibrohim ibn Ahmad ibn Ismoil as-Somoniya: "Buxoroga borib podshohlikni ol! Men sen bilan bo'lsam amir senga qarshi tura olmaydi", - dedi. Abu Ishoq lashkar tortib Amiri hamidga qarshilik oshkor qildi. Amiri hamid Nishopurdan. qaytayotganida Abu Ishoq unga hujum qildi. Ular o'tasida jang bo'ldi va Amiri hamid yengilib Buxoroga keldi. Uning ketidan amakisi Abu Ishoq ham Buxoroga keldi va uch yuz o'ttiz beshinchi yil jumod al-oxir oyida (yanvar 947) butun Buxoro aholisi unga bay'at qildilar. Buxoroning hamma minbarlarida Abu Ishoq nomiga xutba o'qidilar. Bir oz vaqt o'tgandan keyin Abu Ishoq o'z lashkari uning o'ziga qarshi yomon niyatda ekanini, uni o'ldirishga qasd qilganini va Amiri hamidga sadoqat bildirganini bilib qoldi va Buxorodan qaytib Chag'aniyonga ketdi. Amiri hamid sipohsolorlikni Mansur Qaroteginga berdi va uni Marvga yubordi. Mansur Qarotegin Ali ibn Muhammad al-Qazviniyini ushlab asir qilib Buxoroga yubordi va u (Marvdagi) qo'zg'onloni bostirdi. Amiri hamid o'z podshohligi davrida podshohlikni talab etuvchixar xil kishilar bilan ko'p urushlar qilishiga to'g'ri keldi, Uch yuz qirq birinchi yilga (23 may 952-17 may 953) kelibgina hamma viloyatlar Amiri hamidga to'la bo'ysundi.

Amiri hamid uch yuz qirq uchinchi yil rabi al-oxir oyida (avgust 954) vafot etdi. U o'n ikki yil podshohlik qildi.

Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy bu kitobni Amiri hamid podshohligi davrining boshida uch yuz o'ttiz ikkinchi yili (4 sentabr 943-23 avgust 944) uning nomiga atab yozgan va Amiri hamid davrida yuz bergen voqealarni o'z kitobida to'la keltirmagan. Amiri hamiddan keyingi somoniylar (sulolasi) amirlarining ahvollaridan bizga ma'lum bo'lgani, olloho taolo muvaffaqiyat bersa, mana shu (quyidagicha) dir.

XXXIV. Amiri Rashid Abu-L-Favoris Abdulmalik Ibn Nuh Ibn Nasr Ibn Ahmad Ibn Ismoil As-Somoniyning Podshohligi[168] Amiri hamid dunyodan o'tgach, Amiri rashidga bay'at etdilar. U o'n yoshida podshohlikka o'tirdi. Amiri hamidning vafot etganligi xabari viloyatlarga yetgach, har kim bir viloyatga ega bo'lishni tama qildi (Amiri rashid) Ash'sas ibn Muhammad ibn Muhammadni Xurosonga yuborgan edi, unga Hirota va Isfahonda ko'p janglar qilishga to'g'ri keldi va u viloyatlarni bo'ysundirdi. U hali shu ish bilan mashg'ul bo'lib, jang qilayotgan ediki, Amiri rashid otdan yiqildi va shu kechasiyoq vafot etdi. U kecha chorshanba kechasi bo'lib, uch yuz elliginchi yil shavvol oyidan sakkiz kun o'tgan (20 noyabr' 961) edi. Uning podshohlik muddati yetti yil bo'ldi. Uni dafn qilganlardan keyin lashkar isyon qilib qo'zg'onlon ko'tardi va har kim podshohlikni tama qilib, g'alayonlar yuz berdi.

XXXV. Maliki Muzaffar Abu Solih Mansur Ibn Nasr Ibn Ahmad Ibn Ismoil As-Somoniyning Podshohligi[169]

Amiri sadid podshohlik taxtiga o'tirgach, lashkar unga bay'at qildi: ko'p qarama-qarshiliklardan keyin ittifoqlik vujudga keldi. Unga bay'at qilingan kun juma kuni, uch yuz elliginchi yil shavvol oyida (noyabr'-dekabr' 961) edi. (Shu vaqtda) sipohsolor Alptegin Nishopurda edi, Amiri rashidning vafoti xabarini eshitgach, u Amiri sadidni qo'lga olishga qasd qildi. Amiri sadid unga (qarshi) odam yubordi. Alptegin Jayhun daryosiga yetib kelib, undan o'tishni mo'ljallagan edi, ammo (unga qarshi) ko'p lashkar kelganligi tufayli o'ta olmadi. U o'z viloyati Nishopurga qaytmoqchi bo'ldi. (Ammo) Amiri sadid Nishopurga, Muhammad ibn Abdurazzoqqa: "Uni Nishopurga kirishga qo'y manglar!" B'B"deb xat yozdi. Alptegin bundan xabardor bo'lgach, Nishopurga bora olmasligini bilib, Jayhun suvi hamda Omuydan o'tib, Balxga bordi va Balxni olib qarshilik zohir qildi.

Amiri sadid Ash'sas ibn Muhammadni yubordi, u Alptegining qarshi ko'p urush qilib oxir uni Balxdan chiqardi. Alptegii G'aznaga ketdi. Ash'sas ibn Muhammad ham uning ketidan G'aznaga bordi, u yerda ham urush qildilar. Alptegin ikkinchi marta Ash'asdan yengilib qaytib Balxga qarab qochdi. Ko'p qarama-qarshilik va urushlardan keyin Amiri sadid unga yana omonlik berdi va u xizmatga keldi. Shu vaqlarda Amiri sadid viloyatlarga ko'p lashkar yuborib mamlakatni (dushmanlardan) tozaladi; viloyatda (taxt uchun) nizo qiluvchi kishi qolmadidi. Amiri sadid daylamiyalar viloyatini olib sulh tuzdi: daylamiyalar har yili Amiri sadidga bir yuz ellik ming nishopur dirami to'laydigan bo'ldilar.

Amiri sadid uch yuz oltmish beshinchi yili o'n oltinchi muharramda (25 sentabr' 975) yakshanba kuni dunyodan o'tdi. U o'n besh yilu besh oy podshohlik qildi. Yana xudo bilimdonroq.

XXXVI. Amiri Rashid Abu-L-Qosim Nuh Ibn Mansur Ibn Nuh Ibn Nasr Ibn Ahmad Ibn Ismoil As-Somoniyning Podshohligi[170] Amiri sadid yakshanba kuni dunyodan o'tgach, dushanba kuni o'g'li taxtga o'tirdi va unga bay'at qildilar. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad al-Jayhoni unga vazir bo'ldi. (Lekin) bir necha kun vazirlik qilgach, qariligi sababli vazirlikdan iste'fo berdi. Undan keyin ikki-uch kun o'tgach, oxiri, amir Muhammad ibn Abdulloh ibn Aziz vazir bo'ldi va davlat ishi ravnaq topdi. Lashkar sipohsolori bo'lib turgan Abu-l-Abbos Tosh bo'shatilib, Abu-l-Hasan Muhammad ibn Ibrohim sipohsolor bo'ldi. Abu-l-Abbos Tosh qarshilik bildirib Nishopurni oldi. Abu-l-Hasan, uning o'g'li Abu Ali va Abu-l-Hasan al-Foyiq al-Xossalar Nishopurga borib, uch yuz yetmish yettinchi yili (3 may 987-20 aprel' 988) uni mag'lub qildilar. Abu-l-Abbos Nishopurdan qochib Gurgonga bordi. Ali ibn Hasan unga yor bo'lib, Gurgonga kiritdi.

Sipohsolor Abu-l-Hasan Muhammad ibn Ibrohim zu-l-q'a'da oyining oxirida uch yuz yetmish sakkizinchchi yili (11 mart 989) dunyodan o'tdi va uning o'g'li (Abu Ali) sipohsolor bo'ldi. Keyin Amiri rashid uni yomon ko'rib qolib bekor qildi va Abu-l-Hasan al-Foyiq al-Xossa sipohsolor bo'ldi hamda Hariyga borib u bilan jang qildi, ammo undan (engilib) qochdi va hijratning uch yuz yetmish sakkizinchchi yili zu-l-hijja oyida (mart-aprel' 989) Marvga bordi.

Undan keyin Abu-l-Horis Mansur ibn Nuh bir yilu tuqqiz oy voliy bo'ldi, bektuziyalar uni Saraxsda band qildilar[171]. Shu bilan podshohlik somoniylar sulolasi qo'lidan chiqib ketdi. Yana olloho bilimdonroqdir.

B'B" Asarda keltirilgan ma'lumotlar hozirgi zamон nelmiy-tarixiy adabiyotida boshqa yozma manbalar hamda arxeologik, topografik, etnografik va hokazo turli xil tarixiy materiallар bilan solishtirilib bir qadar yoritilgan. Shu tufayli biz bevosita asarning yozilish va asrlar osha bizning davrimizgacha yetib kelish tarixi hamda ushbu o'zbekcha nashrning qanday tayyorlanganligi borasidagina so'zlab o'tishni ma'qul deb bildik. Ko'rsatilgan davr bo'yicha to'la tarixiy ma'lumot olmoqchi bo'lgan hurmatli kitobxonlarga "O'zbekiston SSR tarixi (1-t., 1-kitob, Toshkent, 1956), V.V. Bartol'dning "Turkestan v epoxu mongol'skogo nashestviya (Moskva, 1963). V. A. Shishkinning "Varaxsha" (Moskva, 1963), "Istoriya tadjijskogo naroda" (t. 11, kn. 1, Moskva, 1964). O. A. Suxarevaning "K istorii gorodov Buxarskogo xanstva" (Tashkent, 1958) 'kabi yirik asarlarga va ularda ko'rsatilgan boshqa tarixiy adabiyotga nazar solishni tavsiya etamnz.

Б†“ "Buxoro tarixi"ning Texron nashrini (1939 yil) tayyorlagan Mudarris Rizaviyning muqaddimasi.

Б†“ Asarga ko'p kishilar o'z tahririni kiritganligi ko'pchilik tadqiqotchilar tomonndan qayd etilib kelgan, ulardan biri, masalan, Eron olimi Muhammad Taqi Bahor "Malik ush-shuaro"dir.

Б†“ Abu Nasr Ahmad va Muhammad mbn Zufarlarning "Buxoro tarixi"ga kiritgan o'zgartishlari miqdori va Narshaxiyning asl nusxasiga qo'shimchalar kiritgan kishi asosan Abu Nasr Ahmad ekanligi haqida O. A. Suxarevaning "K istorii gorodov Buxarskogo xanstva" (Tashkent, 1958) nomli asarinnng kirish qismida bir oz to'xtab o'tilgan bo'lsa ham, bu masala hali uzil-kesil hal qilingan emas va kelajakda yana ilmim tadqiqot ishlari olib borishni talab qiladi.

Б†“ "Sobraniye vostochnnx rukopisey AN UzSSR", t. 1, Tashkent, 1952, str. ", b,— 92.

Б†“ "Buxoro tarixi" matnining aytib o'tilgan qo'lyozma va nashr etilgaa nusxalar orasidagi jiddiy deb topilgan farqlar asarning 1966 yili "Fan" nashriyotida chop etilgan o'zbekcha tarjima ilovalarida to'la keltirilgan.

Б†“ "Al-Quboviy" degan nisbadan "Buxoro tarixi"ning arabchadan fors tiliga tarjimonи hozirgi Quva shaharidan bo'dganligi anglashiladi.

Б†“ HadisBТ" lug'aviy ma'nosi: xabar, so'z va biror yangi narsa. Dinny adabiyotda esa payg'ambarning so'z va ishlari, to'g'rirog'i payg'ambarga nisbat beriladigan so'z va ishlar tushuniladi.

Б†“ Amiri hamid Abu Muhammad Nuh...- Somoniylar sulolasidan, hukmdorlik yillari: 943BТ"954. U haqda "Buxoro tarixi"ning XXXIII bobida to'liq ma'lumot berilgan.

Б†“ Aslida diniy jamoalar va ruhoniylarning oliy rahbarlik lavozimlarini egallab kelgan sadrlar XII asrda Buxoroda feodal davlat ustidan hukmronlikni ham o'z qo'llariga olganliklari nazarga olinsa, Abdulaziz sadrga berilgan mazkur yuksak sifatlar boisi oydinlashadn.

Б†“ Sebavayh... an-NahviyBТ" oxirgi so'z "grammatika fani olimi" degan ma'noni anglatadi. Biroq bu fan tarixida Sebavayh ibn Abdulaziz al-Buxoriy emas, Abu Bishr Omir ibn Usmon Sebavayhiy mashhurdir. U asli basralik bo'lib, VIII asr oxirida vafot etgan.

Б†“ Bu to'g'onlar BТ""bu" ko'rsatkich olmoshini nazarga olganda 828 yil atrofida Sa'id ibn Xalaf al-Balxny tashabbusi bilan qurilgan to'g'onlar Narshaxiy o'z asarini yozayotgan vaqtida (943BТ"944), balki tarjimon Ahmad ibn Muhammad (1128) yoki qisqartuvchi Muhammad ibn Zufar (1178) davrada ham mavjud ekanligi ashlashiladi.

Б†“ Ahmad ibn-Ismoil...- Somoniylar sulolasidan, hukmdorlik yillari: 907BТ"914. U haqda "Buxoro tarixi"ning oxirgi boblaridan birida (XXXI) to'laroq yozilgan.

Б†“ Zohid - molu dunyoga rag'bat va xohishi bo'limgan, tarki dunyo qilgan kishi.

Б†“ Faqih - shariat ilmini, shariat hukmlarini yaxshi biluvchi kishi.

Б†“ Imom Shofeiy - islom dinidagi mashhur to'rt sun'iy mazhabdan biri - "Shofeiy mazhabixiing asoschisi; 767 yilda tug'ilib 819 yilda vafot etgan.

Б†“ Abu-l-Fazl... as-Sulamiyning 943BТ"945 yillarda hukmronlik qilgan Nuh ibn Nasr Somoniya vazir bo'lganligi haqida "Buxoro tarixi"ning keyingi sahifalarida (XXXII 1-bob) aytilgan. Faqat bu yerdagi Abu-l-Fazl o'rnida u bobda Abu Zar deb yanglish yozilgan. Abu-lFazl vazirlik lavozimida ekanligida, 946 yili, maoshi vaqtidan kechiktirilgan askarlar tomonidan qatl qilingan.

Б†“ Abu-l-Hasan Abdurahmon (ibn) Muhammad an-Nishopuriyning "Xazoin ul-ulum" kitobi bizgacha yetib kelgan-kelmaganligi manbashunoslik fanida hozircha ma'lum emas.

Б†“ Rudi Mosaf - hozirgi Zarafshon daryosi ko'zda tutiladi.

Б†“ Bitik BТ"Chorjo'y ro'baro'sida Amudaryo bo'yida joylashgan qishloq.

Б†“ FarabbТ"(yokn Firabr), bu qishloq Chorjo'y ro'baro'sida. Amudaryo bo'yida Bitikka yaqin joylashgan va "Raboti Tohir ibn Ali" deb mashhur bo'lgan.

Б†“ AbruyBТ"(Abravay) yozilgan. O'zbekiston SSR tarixi (I tom, 1-kitob, 137-bet)da bu shaxs haqida aytilgan so'zlar mazmunicha, u VI asrning 80-yillari atrofida Buxoroda hukmronlik qilgan.

Б†“ Nur - Samarqand oblastidagi hozirgi Nurota.

Б†“ Xarqonrud - Zarafshon daryosidan chiqarilgan. Shopurkom va G'ijduvon rayonlarini sug'oruvchi qadimiy kanallardan biri. Bu yerda shundan nomli kanal bo'yida joylashgan, Buxoro qishloqlaridan biri bo'lgan, Karmina yaqinidagi Xarqona nazarda tutilishi

kerak.

Б†‘ Vardona - bu qishloq "Qurg'oni Vardonze" nomi bilan hozir ham mavjud. Hozirgi Shopurkom rayonining Xo'ja G'ulom tepa qishlog'i yaqinidagi ulkan tepalik.

Б†‘ Tarovcha - Buxoroning janub-g'arbida joylashgan Torob qishlog'ining kichraytirma atalishi.

Б†‘ Safna (Isvona va "Aysuvona")БЂqishloqlari qayerda bo'lganligi hozirgacha aniqlangan emas.

Б†‘ Baykand (Poykand)БЂBu qishloq haqida so'ngroq "Buxoro tarihi"ning o'zida IV bobda so'zlanadi. Uning vayronalari Buxorodan janubi g'arbda, Sverdlov rayonidagn Oktabr' kolxozi territorpyasida. Yakkatut temir yo'l stansiyasm yonida saqlanib qolgan.

Б†‘ 'Qal'ayi Dabusiy - O'zbekistonda, hozirgi Ziyouuddin temir yo'l stansiyasi yonida joylashgan.

Б†‘ Dehqonlar - bu yerda va umuman "Buxoro tarixi"ning ko'p joyida bu so'z yirik yer egalari, nasldor zodagonlar ma'nosida ishlatiladi.

Б†‘ Taroz БЂhozirgn Jambul (Avliyoota) shahari.

Б†‘ Kadivarlar - Arablar istilosi oldidan O'rta Osiyoda ilk feodal jamiyatining tashkil topa boshlagan davrida erkin dehqonlar tabaqasi bilan bir qatorda paydo bo'lgan, ammo erkin dehqondan farqli o'laroq, iqtisodiy jihatdan boy tabaqalarga butunlay qaram bo'lgan kishilar.

Б†‘ Shahriston (Shoriston shaklida ham yozilgan)БЂshaharning mudofaa devori bilan o'ralgan asosiy qismi.

Б†‘ MamostinБЂ (Mamostiy). Buxoro shaharining g'arbida joylashgan qishloq.

Б†‘ Saqmatin - keyinroq Sumiton deb atalgan. Bu qishloq Shaharrud kanalining bo'yida, Buxoro yonida joylashgan. Hozir esa Chorbakr deb ataladi.

Б†‘ Abu Bakr Siddiqning xalifaligi davri: 632БЂ”634 yillar.

Б†‘ Nasr (ibn) Sayyorning Xurosonda amirlik yillari: 738БЂ”748

Б†‘ Amir Ismoil Somoni davri, ya'ni 892БЂ”907 yillar, u haqda bat afsil XXIX bobda so'zlangan.

Б†‘ Bidun Buxorxudot - 680 yili Muslim ibn Ziyod tomonidan o'ldirilgan, Bu haqda to'laroq keyingi sahifalarda so'zlanadi.

Б†‘ Xotinning Buxoroda hukmronlik qilgan yillari: 680-695.

Б†‘ Mol БЂhar xil ma'noda ishlatiladigan termin: "Buxoro tarixi" da ko'pincha pul, mol-mulk mazmunini anglatsa ham asosan xiroj, jon puli ma'nosida ham keladi.

Б†‘ Xoja sarolar, ya'ni bichilgan qullarБЂ”"Xoja saroyon, ya'ni xusyon".

Б†‘ Aloqa (xat-xabar) ishlari boshlig'i "sohibi barid".

Б†‘ Muqanna qo'zg'olonn haqida to'laroq ma'lumot uchun qarang: ushu kitob XXVII bob. Abbosiylar xalifalaridan bo'lgan Mahdiyining xalifalik yillari: 775БЂ”785.

Б†‘ Ibrohim - nuxsalardan birida "Abu Ibrohim", bu esa Ismoil Somoniyning kunyasi, demak uning o'zi.

Б†‘ Nasr - Ismoil Somoniyning akasi. Samarqandda hukmronlik qilgan; vafoti yili .892.

Б†‘ Amir. ul-mu'minin MuqtadirБЂ Abbosiylar xalifalaridan, 908-932 yillarda xalifalik qilgan.

Б†‘ "Bayt ul-mol mulki"ning mazmuni umuman: g'aniyimatga olingan mollar va egalari vafot qilgandan keyin davlat ixtiyoriga olingan mollar saqlanadigan joy (uy) va, yana, barcha musulmonlarning haqqi bo'lgan mol;

Б†‘ Oriz - askarlar va mansabdorlarga maosh ulashish ishlarini boshqarish lavozimidagi kishi, xazinachi ma'nosida xam tushunish mumkin.

Б†‘ Tobeinlar - Muhammad payg'ambarni o'z ko'zi bilan ko'rgan (sahoba)larni ko'rgan kishilar.

Б†‘ Tavois - joylashgan yeri Buxorodan Samarqandga olib boradigan katta yo'l ustida bo'lganligi keyinroq aytilgan. Tarixiy adabiyotda ko'proq uchraydigan to'g'ri atalishi "Tavovis"dir.

Б†‘ Arqud - Raboti malik cho'lning g'arbida joylashgan deb bir nusxada tushuntirish ham berilgan.

Б†‘ Choch - Toshkent shahrining ilk o'rta asrlardagi nomi.

Б†‘ Kuhandiz - "kundiz" qal'a. XIII asrdan boshlab Buxoroning kuhandizi "ark" deb ham atalgan.

Б†‘ Juft - asli "jufti gov", ya'ni "qo'sh ho'kiz". Yer o'lchovi sifatida ishlatilib, bir faslda bir juft ho'kiz bilan ishlov berib hosil olinishi mumkin bo'lgan yer miqdorini anglatadi.

Б†‘ Abu Ahmad al-Muvaffaq billoh - Abbosiylar xalifalaridan bo'lgan birodari Mu'tamid davrida (870БЂ"892) hukmdorlik qilgan; vafot yili 891.

Б†‘ Muqotaa - ulush sifatida taqdim qilingan yer-mulk.

Б†‘ Muhammad ibn Tohir 862БЂ"873 yillarda Xurosonda amir bo'lgan.

Б†‘ Malik Shamsulmulk Nasr ibn Ibrohim Tamg'ochxon - nusxalarda "Ibrohim" bilan "Tamg'ochxon" orasiga yanglish "ibn" qo'yilgan. Qoraxoniylar sulolasasi hukmdorlaridan bo'lgan Ibrohim Tamg'ochxon 1068 yili taxtdan voz kechib, o'g'li Shamsulmulk Movarounnahrda hokimiyatni qo'liga olgan va 1080 yili vafot etgan.

Б†‘ Omillar - umuman xizmatchi yoki amaldor ma'nolarida; bu yerda soliq yig'uvchilik lavozimidagi kishilar ma'nosini anglatuvchi tarixiy atama.

Б†‘ Qadrxon Jabrail ibn Umar ibn To'g'rulxon Qoraxoniylar sulolasidan bo'lib, 1099БЂ"1102 yillar orasida Movarounnahrda bo'lgan.

Б†‘ Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon - Qoraxoniylar sulolasidan, hukmronlik yillari 1102БЂ"1130.

Б†‘ Qintoriy Doziyning lug'atida "quntoriy" talaffuzi bilan o'qilib "o'q yoy" yoki "nayza yog'ochi" deb tarjima qilingan. "Muhibbi A'zam"da zsa "qintoriy"ga "tutatiladigan ud" ma'nosи, "Burxoni qote"da yong'oq daraxtishshg ildizi ichida paydo bo'ladigan yelimga o'xshash narsa deb izoh berilib, uning qon to'xtatish xususiyati bor deyilgan.

Б†‘ Mis - lug'aviy ma'nosи kiyimlarni qizilga bo'yash uchun ishlatiladngan bir ildizdir.

Б†‘ Bu yerda Sosoniylar sulolasasi shahzodalaridan bo'lgan Shopur (Xusrav I (531БЂ"578) yoki Xusrav II (590БЂ"628)ning o'g'li) ko'zda tutilsa kerak. Bu Shopur haqida "Buxoro tarixi"ning keyingi sahifalaridan birida so'zlanadi.

Б†‘ Ali va Ja'far avlodи - AlibБЂ Muhammad payg'ambarning kuyovi, safdoshi va amakisi Abu Tolibning o'g'li; 656БЂ"661 yillarda xalifalik qilgan. U asosan Eronda tarqalgan shia mazhyablaridan imomiyha mazhabidagi o'n ikki imomning birinchisi hisoblanadi. Ja'far (Imom Ja'far Sodiq) esa oltinchisidir, 765 yili vafot etgan.

Б†‘ Xoja imom Abu Hafs Kabir - Buxoroda o'tgan mashhur faqih - shariat ilmining bilimdoni. 834 yili vafot etgan.

Б†‘ XunukxudotБЂ VIII asrda o'tgan Buxoro hukmronlaridan.

Б†‘ Somoniylar shahzodalaridan bo'lgan Ahmad ibn Nuhning hukmdorlik taxtiga o'tirganligi haqida aniq ma'lumot yo'q. "Musulmon dinastiyalari"nnng avtori Len Pul'ning ko'rsatishicha hamda "Buxoro tarixi"ning keyingi sahifalarida yoritilishicha, Nuh ibn Nasrdan uning o'g'illari Abdumalik ibn Nuh (954БЂ"961) va Mansur ibn Nuh (961БЂ"976) hukmdorlik qilgan.

Б†‘ Xarvor - har xil shaharlarda miqdori har xil bo'lgan og'irlik o'lchovini anglatadi. Lug'aviy ma'nosи "bir eshak yuki", ya'ni bir eshakka ortilishi mumkin bo'lgan og'irlik mikdori. Bu o'rinda esa "xarvorho" shaklida yozilgan va umuman juda ko'p degan mazmunni anglatadi.

Б†‘ Shaddod - afsona bo'yicha Iram bog'ini qurdirgan va zolimlikda dong chiqargan bir podshohning nomi; shu tufayli adabiyotda ko'pincha zolim podshohБЂ hukmdorlarga nnsbat beriladi.

Б†‘ Funduqiy - ya'ni jigarrang.

Б†‘ Numijkat - o'rta asr manbalarining ma'lumoticha, Numijkat aslida Buxoroga yaqin, lekin undan alohida bir shahar bo'lib, so'ng bu ikki shahar bir-biriga qo'shilib ketgan, shuning uchun Buxoro goho Numijkat deb ham atalgan.

Б†‘ Salmoni Forsiy - asli eronlik bo'lib, Muhammad payg'ambarning sahobalaridandir; 655 yili vafot etgan.

Б†‘ Kutvol - qal'a boshlig'i.

Б†‘ Xorazmshoh БЂbu yerda Xorazmshoh Otsiz ko'zda tutilishi kerak, u 1127БЂ"1156 yillarda hukmronlik qilgan.

Б†‘ Sulton Sanjar - saljuqiylar sulolasasi hukmdorlaridan (1119БЂ"1157 yillar).

30 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Б†‘ Go'rxonb‌" 1141 yili sulton Sanjarni mag'lubiyatga uchratib Movarounnahrni bosib olgan qoraxitoylar sulolasini hukmdorining unvoni.

Б†‘ G'uz askarlari - turk qabilalaridan biri bo'lgan g'uzlarning sulton Sanjar (saljuqiylardan) ixtiyoridagi askarlari ko'zda tutilsa kerak.

Б†‘ Xorazmshoh Muhammad ibn Sulton Takash - 1200‌" 1220 yillarda hukmronlik qilgan; "xitoyliklar yengildilar" deyishdan qoraxitoylarni tushunmoq lozim.

Б†‘ Somoniylar sulolasini hukmronligi, umuman, 874‌" 999 yillar.

Б†‘ Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil as-Somoniyning hukmronlik davri 914‌" 943 yillar.

Б†‘ Abdumalik ibn Nuh ibn Nasr ibn Ahmad ibn Ismoilning hukmronlik davri: 954‌" 961 yillar.

Б†‘ "Kitobi Yaminiy"ning muallifi Ahmad ibn Hasan al-Utbiy b‌" "Buxoro tarixi"ni fors tiliga tarjima qilgan Ahmad ibn Muhammad bu yerda xatoga yo'l qo'ygan: haqiqatda vazirning nomi Abu Ja'far Utbiy bo'lib, "Tarixi Yaminiy"ning muallifi butunlay boshqa shaxs b‌" Abu Nasr Muhammad ibn Abduljabbor Utbiydir.

Б†‘ Somoniylar sulolasidan bo'lgan Mansur ibn Nuhning hukmronlik yillari: 961‌" 976.

Б†‘ Misqol - og'irlik o'lchovi: 4,25 gramm.

Б†‘ Xalifa al-Musta'in ibn al-Mu'tasim - abbosiylar xalifalaridan: 862‌" 866 yillar.

Б†‘ Mavoliy - aslida "mavlo" (xoja, janob, valiy va hokazo)ning jami. Bu yerdagiga o'xshash "ozod etilgan qul" ma'nosida ham keladi. Mavoliy (ozodlik olgan qul)lar Ismoil Somoniyning gvardiyasida xizmat qilganlar.

Б†‘ Nasrxon ibi Tamg'ochxon, ya'ni Malik Shamsulmulk.

Б†‘ Xizrxon 1080 yili taxtga o'tirgan.

Б†‘ Ahmadxonning hukmronligi 1095 yilgacha davom etgan.

Б†‘ Malikshoh - saljuqiylar sultoni (1072‌" 1092), u Movarounnahrga 1089 yili hujum qilgan.

Б†‘ Sosoniylar sulolasidan bo'lgan Kisro (Xisrav) I (531‌" 578) yoki Xisrav II (590‌" 628).

Б†‘ Kanpirak devor - xarobalari shu kunlargacha ham saqlanib qolgan.

Б†‘ Abu-l-Abbos al-Fazl ibn Sulaymon Tusny 783 yildan 787 yilgacha amirlik qilgan.

Б†‘ Mas'ud Qilich Tamg'ochxon - qoraxitoylar xoni (1160‌" 1178).

Б†‘ Abu Bakr Siddiqning (xalifalik) davri: 632‌" 634 yillar.

Б†‘ Horun ar-Rashid - abbosiylardan; xalifalik yillari: 786‌" 809.

Б†‘ Muso al-Hodiy - abbosiylardan; 785-786 yillarda xalifalik qilgan.

Б†‘ Yarim diramdan tortab to'rt yarim donakgacha ba'zi nusxalarda: "yarim diram yoki to'rt yarim donak". Bu bobda uchragan og'irlik o'lchozlarining o'sha davrlarda arablarda ishlatilgan miqdori taxminan bunday:

misqol - 4,250 gr.

diram - 3,186 gr.

donak - 0,531 gr.

habba - 0,071 gr.

Б†‘ Muoviya Ib‌" umavbya xalifalaridan, xalifalik yillari: 661‌" 680.

Б†‘ Qusam ibn Abbochnng o'z ajali bilan vafot topgan yoki o'dirilganligi va bu voqeя Samarqandda yoki Marvda sodir bo'lganligi borasida manbalarda ixtiloflar bor. Lekin shunisi aniqki, hozirda ham Samarqandda mavjud bo'lgan Shohizinda maqbarasi uning bu yerga ko'milgan yo yo'qligidan qat'i nazar shu shaxs nomi bilan bog'langan. Bu haqda mufassal ma'lumot Abu Tohir Xojaning "Samariya" asarida to'liq keltirilgan.

Б†‘ Yazid (I) ibn Muoviya (umaviya xalifalaridan) xalifalik qilib turgan vaqt - 680‌" 683 yillar.

Б†‘ Muslim ibn Ziyod ibn Abiyh - arablarda otasining nomi noaniq bo'lgan kishiga shunda (Abiyh) deyiladi, ya'ni: otasi noma'lum

31 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Ziyodnnng o'g'li Muslim. Xurosonda amirlik qilgan yillari. 681B"684.

B†“ Ajam - arablar o'zlaridan boshqa xalqlarni "ajam" deb ataganlar, shuningdek, arablar yashaydigan yerlardan boshqa mamlakatlar, xususan Eron va Turonlar ham "mulki ajam" nomi bilan yuritilgan.

B†“ Hajjoj b'B"arab xalifaligining sharqiy qismalarining 694B"714 yillaridagi noibi Hajjoj ibn Yusuf; o'z zolimligi bilan dong chiqqargan. Qutayba ibn Muslimning Xuroson amiri bo'lgan yili - 705.

B†“ To'xoriston - Amudaryoning o'rta va yuqori oqimidagi ikki sohilini ishg'ol etgan yerlarning o'rta asrlardagi atalishi.

B†“ Xunbun - Buxoro bilan Paykand oralig'ida joylashgan qishloq.

B†“ Torob - bu ham Xunbun yaqinida o'nashgan Buxoro qishloqlaridan.

B†“ Hayyoni Nabatiy - Qutaybaning yaqin kishilaridan.

B†“ Amiri sadid Mansur ibn Nuh ibn Nasr - somoniylar sulolasidan, hukmronlik yillari: 961B"976 (q. XXXV bob).

B†“ Abu Ja'far Davonaqiy, ya'ni halifa Mansur; abbosiylar xalifalaridan, 754B"775 yillarda xalifalik qilgan.

B†“ Tohiriyalar sulolasida bunday nom yo'q. Umuman bu sulolaning Xurosonda hukmronlik yildari 821B"873.

B†“ Xoja imom Abu Hafs Kabir Buxoriy - Buxoroning mashhur faqihlaridan, vafot yili, "Buxoro tarixn"ning o'zida keyinroq aytishicha, 832.

B†“ To'g'risi: Muhammad ibn Hasan Shayboniy, mashhur fiqh olimi Abu Xanifan shogirdi, vafoti yil - 804.

B†“ Islom mualliflari orasida Shams ul-aimma al-Xalvoiygacha (vafoti 1060 yil atrofida) o'tgan faqixlarni "Mutaqaddimin"b'B""avvalgilar", undan keyingi faqihlarni esa "mutaaxxirin"b'B""keyingilar" deb yuritiladi.

B†“ Abu Abdulloh b'B"Abu Hafs Sag'r deb ham ataladi, vafoti yili b'B"877.

B†“ Mujovirlar - masjid va mozorlarda tunab yuruvchilar.

B†“ Haqrahni "haq" deb ataganlar - "Haqrah"ning mazmuni: haq yo'l.

B†“ Qutayba o'ldirilgan yil - 715.

B†“ Asad ibn Abdulloh al-Qushayrni 166 (782B"783) yilda emas, 4 20 (29 dekabr' 737B"17 dekabr' 783) yili vafot etganligi tarixiy adabiyotda manbalar asosida aniqlangan. Binobarin, 166 yilni 120 deb tushunmoq lozim; shuningdek, uning nisbasi ham "al-Qushayriy" emas, "al-Qasriy"dir.

B†“ Somon qishlog'i ba'zi manbalar ma'lumoticha Samarqand atrofida deyilgan, biroq "Buxoro tarixi"dagi bu so'zlar, ko'pchilik manbalar bilan bir qatorda, Somon qishlog'ining Balxga yaqin yerda ekanligidan darak beradi.

B†“ Abu-l-Hasan Maydoniy - akademik V. V. Bartol'dnpng aniqlashicha, "Maydoniy"emas "Madoiniy" yozilishi kerak. Maydoniy esa (to'la nomi Abu-l-Hasan Ali ibn Muhammad), arab tarixnavislaridan bo'lib, 830 yoki 840 yilda vafot etgan.

B†“ Zimmilar - islom dini hukmron bo'lgan mamlakatda yashab turuvchi boshqa dinlarga mansub kishilar, islom davlati o'z himoyasida saqlab turganligi evaziga zimmilar ma'lum solid - Jizya to'lab turganlar.

B†“ Asad ibn Abdulloh al-Qushayrni 166 (782B"783) yilda emas, 4 20 (29 dekabr' 737B"17 dekabr' 783) yili vafot etganligi tarixiy adabiyotda manbalar asosida aniqlangan. Binobarin, 166 yilni 120 deb tushunmoq lozim; shuningdek, uning nisbasi ham "al-Qushayriy" emas, "al-Qasriy"dir.

B†“ Hishom ibn Abdumalik ibn Marvon - umaviylar xalifalaridan, xalifalik yillari: 724B"743.

B†“ Bu bobda bayon qilingan voqealar 750B" 751 yillarda sodir bo'lgai.

B†“ Marvoiiylar b'B"umaviylar xalifalaridan (661B"750) oxirgisi Marvon II (744B"750) ning avlod-tarafdarlari ko'zda tutiladi.

B†“ Abbociylar - umaviylar (661B"750) xalifaligidan keyingi 750B"1258 yillarda hukmronlik qilgan xalifalar sulolasi.

B†“ Barzam - "Haft qulzum"da buni Amudaryo yoqasidagi bir qal'a nomi deyilgan. Lekin "Zamm"ni alohida olsak, u Karki shahrining qadimiy nomi. Zam viloyati Amudaryoning Karkdan janubdag'i qismi, Andxo'y Maymana atroflari.

B†“ Abu Muslim - umaviylar xonadoni xalifaligining yiqilishi va abbosiylar xonadoni xalifaligining o'rnatilishida abbosiylarga katta xizmatlar ko'rsatgan shaxs.

Б†‘ KashmizBТ“ Fray izohida buning Omuya (Chorjo'y) yaqinida o'rnashgan shahar ekanligi va "Kushmihon" o'qilishi to'g'riligi ko'satilgan.

Б†‘ Sipoh alomatinn oshkora qildi - Likoshin buni hamma nusxalarda shunday yozilganidan qat'i nazar "qora alomat" o'qilishi to'g'ri degan. Chunki abbosiyarlarning bayroqlari qora rangli bo'lgan. Tag'shoda Ziyod ibn Solih tarafida jang qilgailigi uchun shunday alomat ko'satgan bo'lishini to'g'ri deb tushunish mumkin.

Б†‘ "Axbori Muqanna" (nomli kitob) ning muallifi Ibrohim va Muhammad ibn Jarir at-Tabariylarning aytishlaricha...

Б†‘ Mahdiy ibn Mansur - abbosiyalar xalifalaridan, xalifalik yillari: 775BТ”785.

Б†‘ Abu Ja'far Davonaqiy davri, ya'ni abbosiyalar xalifalaridan bo'lgan Mansur (754BТ”775 yillar) ning davri.

Б†‘ Abduljabbor Azdiy - 758 yili Xuroson amiri bo'lgan.

Б†‘ Naxshab yoki Nasaf - hozirgi Qarshi yonidagi qadimiy shahar. Kesh - Shahrisabz va Kitob.

Б†‘ Maoz ibn Muslim Xurosonga amir bo'lgan vaqt - 777 yil.

Б†‘ Hariy - ya'ni Hirot shahari; hozirgi Afg'onistonnnng shimoli g'arbnda o'rnashgan.

Б†‘ Arbnjon va Zarmon - Buxoro bilan Samarqand orasida yo'l ustida o'rnashgan qishloqlar nomi.

Б†‘ Hirot amiri bo'lgan Sa'id ko'p lashkar bilan Muqanna hisorining darvozasiga kelib qo'ndi. Nusxalardan birida: "Muqanna saroyi darvozasiga yigirma mingdan ortiq lashkar bordi, urushlar qildi, ammo uni ololmadi. Muqannaning halok bo'lish vaqt yetgach, Mahdiy Hirotning amiri bo'lgan Sa'id Harashiyini yubordi va u lashkar bilan Hisor darvozasi (oldiga) kelib qo'ndi".

Б†‘ Ba'zi nusxalar hoshiyasida "Tarixi Faxruddin Ali Mustavfiy Iroqiy" dan keltirilgan ilovada: hukmronlik muddat bir yuz o'n yilu olti oyu yetti kun bo'lgan. Ularning mamlakati Turk diyoridan to Hind, Fors va Iraq chegaralarigacha, turarjoy (poytaxt) lari esa Buxoroda bo'lgan.

Б†‘ Abbosiyalar xalifalaridan bo'lgan Horun ar-Rashidning xalifalikka o'tirgan yili - 786, vafot yili esa - 809. Shunga ko'ra mazkur Samarqand voqealari 809 yilda sodir bo'lgan.

Б†‘ Ma'munnng xalifalikka o'tirgan yili bevosita Horun ar-Rashiddan keyin (809) emas, 813 yili voqe bo'lgan va u 833 yilgacha xalifalikda turgan.

Б†‘ G'asson ibn Ubbodning Xuroson amirligidan tushirilgan yili - 821.

Б†‘ Tohir ibn Husayn - 821BТ”822 yillarda Xurosoi amiri bo'lgan.

Б†‘ Nuh ibn Asadning vafoti yili 842, Ahmad ibn Asadniki - 864.

Б†‘ Amr ibn Lays - safforiylar sulolasining asoschisi Ya'qub ibn Laysning birodari; 879 yili o'z akasi o'rniga taxtga o'tirgan. Somoniylardan amir Ismoil uni Balxda mag'lubiyatga uchratganligi voqeasi XXX bobda batafsil so'zlangan.

Б†‘ Ya'qub ibn Lays - safforiylar sulolasining asoschisi, hukmronlik yillari 868BТ”879. Uning Xurosonni tohiriylar sulolasi qo'lidai olgan yili - 873.

Б†‘ Dabir - kotib va maslahatchi ma'nosida.

Б†‘ Isfijob - ko'pchilik adabiyotda mashhur bo'lgan shaklda olindi. Chimkent yonida, Sayram o'rnidagi o'rta asr shahri.

Б†‘ Man - og'irlilik o'lchovi; har xil yerlarda turli miqdorni anglatgai; masalan, arab xalifaligida ishlataligan 1 man - 831 gr. Bunda umuman don og'irligi emas, bir dona non haqida gap borayotgailigiga asosan bu yerda mazkur 831 gr atrofidagn miqdor tushunilishi mumkin.

Б†‘ Omili xiroj - xiroj yig'ish ishlari mutasaddisi.

Б†‘ Devon daromadibТ“ (amvoli devon); ya'ni davlat mol-mulki.

Б†‘ Vozbadin - Buxoro va Samarqand oralig'ida o'rnashgan ekanligi teks mazmunidan tushunilsa ham, lekin tarixiy adabiyotda bunday nomdag'i jon uchramaydn.

Б†‘ Mu'tazid - abbosiylardan; 892BТ”902 yillarda xalifalik qilgan.

Б†‘ Ali ibn-al-Husayn - Janubiy Erondagp Fors viloyatinining amiri. 869BТ”871 yillar orasida Ya'qub nbn Lays uning 33 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

This is not registered version of TotalDocConverter
hukmroning dag'i surʼati surʼatiga qilinadi.

Б†‘ Guzgoniyon amiri Ahmad (keyingi abzatsda Ahmad ibn Farig'un) - hozirgi Afg'onistonning shimolidagi Andxo'y, Shibirgon shaharlari joylashgan yerlar Guzgon (yoki Guzgonon) deb atalib, 1X-X asrlarda u yerda farig'unlar sulolasi hukmronlik qilgan; Ahmad shu suloladandir.

Б†‘ Foryob - Guzgonondagi shaharlardan biri. Afg'onistondagi qadimiy shahar, hozirgi Davlatobod o'rnila bo'lgan.

Б†‘ Ahmad ibn Ismoil as-Somoniyning hukmdorlik yillari: 907Б”914.

Б†‘ Abu-l-Hasan Nasr ibn Ahmad ibi Ismoil as-Somoni hukmdorligi: 914Б”943 yillar.

Б†‘ Amiri sa'id o'n uchinchi yili - yuqorida o'tgan 301 yilga qaraganda, bu yerda 313 (29 mart 925Б”18 mart 926).

Б†‘ Nuh ibn Nasr ibn Axmad ibn Ismoil as-Sombniyning xukmronlik yillari: 943-954.

Б†‘ Bu yerda Abu Zar deb noto'g'ri yozilgan, yuqorida aytishicha haqiqatan ham Buxoroga qozilik qilib fiqh masalalariga oid "Muxtasari kofiy" nomli ysar yozgan kishi Abu-l-Fazldir.

Б†‘ Abu Ali Isfahoni Nishopur amiri edi - boshqa manbalar ma'lumoticha bu shaxs Isfahoni emas Sag'oniyoniy yoki Chag'bniyoniy (Surxon vodiysi) bo'lishi kerak. U 955 yilda vafot etgan.

Б†‘ Ibrohim Simjo'r - 945Б”948 yillarda Nishopurda amirlik qilgan.

Б†‘ Abdulmalik ibn Nuh ibn Nasrnning hukmronlnk yillari: 954Б”961.

Б†‘ Mansur ibn Nasr nbn Ahmad ibn Ismoil as-Somoniyning podshohligi adabiyotda 961Б”976 yillar deb ko'rsatilgan, lekin ushbu bobning oxirida 25 sektyabr' 975 yil aniq aytilgan. "Amiri sadid" uning laqabidir. "Sadid"Б” to'g'ri, haq ma'nosida.

Б†‘ Nuh ibn Mansur ibn Nuh ibn Nasr nbn Ahmad ibn Ismonl as-Somoniynng hukmronligi: 976Б”997 yillar.

Б†‘ Shu davrdagi nufuzli kishilardan biri hojib Bektuzun ko'zda tutilsa kerak. Bektuzun matnda nomi atalgan Foyiq al-Xossa bilan birga Saraxsda 929 yili Mansur ibn Nuhni asir olib, so'ng uni ko'r qilib Buxoroga jo'natganligi tarixiy adabiyotda bayon qilingan.